

616.036.8.  
X 780



# ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATOLOGIYADA AMALIY KO'NIKMALAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI




B.K. XOLBEKOV

A

NESTEZIOLOGIYA VA  
REANIMATOLOGIYADA  
AMALIY KO'NIKMALAR

TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARI UCHUN O'QUV QO'LLANMA



Samarqand 2024

**KBK 54.5.lt.545**

**X-22**

**UO'S 411.521.14.21.(31.28.5.2)54**

**Muallif:**

**B.K. Xolbekov** – Samarkand davlat tibbiyot universiteti. Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**

**N.K. Ibragimov** – Toshkent tibbiyot akademiyasi. Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi mudiri t.f.d. professor.

**Z.B. Kurbaniyazov** – Samarqand davlat tibbiyot universiteti. 1- son xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrasi mudiri t.f.d. professor.

**G.Sh. Xamrayeva** – Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. Pediatriyada anesteziologiya va intensiv terapiya kafedrasi mudiri. t.f.d. dotsent.

**Anesteziologiya va reanimatologiyada amaliy ko'nikmalar**

Qo'llanmada reanimatologiyada, intensiv terapiyada va anesteziologiya amaliyotida qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalarning asosiy usullari keltirilgan.

Amaliy ko'nikmalar qat'iy tartibda; usulga ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, asbob-uskunalar, asoratlari va texnikasi kadamma-kadam ketma-ketlikda keltirilgan. Har bir usul bosqichlariga namoyish rasmlari qo'yilgan bo'lib, rasmlar o'ziga mos sxematik tasvirlar bilan izohlangan.

Qo'llanma anesteziologiya va reanimatsiya va tez tibbiy yordam fanlarini o'qiydigan 5-6 kurs barcha yo'nalishdagi talabalar, magistr va klinik ordinatorlar va barcha tibbiy xodimlar uchun mo'ljalangan.

**SamDTU. Ilmiy kengashi tomonidan o'quv qo'llanma tasdiqlandi.**

**26. Iyun. 2024 y. Bayon № 11.**

**ISBN 978-9910-742-94-1**

Pýýrat va emerza  
Payall

**© B.K. XOLBEKOV  
“Fan ziyosi” 2024**

**MUNDARIJA**

So'z boshi .....	5
Qisqartmalar ro'yxati .....	7
Kirish .....	8
<b>REANIMATSIYA</b>	
<b>I-BOB. A – (Airway oren) – Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash .....</b>	10
Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklashning P. Safar uchligi .....	11
Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini manual tiklashning Geymlix usuli.....	13
Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini manual tiklashning Sellik usuli .....	18
Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklashning konikotomiya usuli .....	20
Krikotireoid bog'lam punksiyasi .....	24
Gvedel naychasini og'iz orqali kiritish usuli.....	27
Burun orqali havo naychasini kiritish .....	351
Traxeya intubatsiya .....	33
Og'iz orqali traxeya intubatsiyasi .....	35
Burun orqali traxeya intubatsiya.....	3340
Laringeal niqob o'rnatish texnikasi .....	3543
<b>II-BOB. B – (Breathe for victim) – O'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi.....</b>	48
Og'izdan-og'izga sun'iy nafas berish .....	49
Og'izdan-burunga sun'iy nafas berish .....	52
Yuz niqobi orqali o'pka ventilyatsiyasi .....	54
«S» simon naycha orqali o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi.....	57
<b>III-BOB. C – (Circulation blood) – Sun'iy qon xaydash .....</b>	60
Yurakning tashqi massaji .....	61
<b>IV-BOB. D – (Drugs) – Dorilarni yuborish usullari .....</b>	66
O'pka-yurak reanimatsiyasida ishlatalidigan dori preparatlari .....	67
O'mrov osti venasini kateterlash .....	76
Dori vositalarini suyak ichiga kiritish usuli .....	85
Periferik venalar kateterizatsiyasi .....	91
<b>V-BOB. E-(Electrocardiographry) – Uyrak faoliyati diagnostikasi .....</b>	103
Kardiomonitor o'rmatish.....	104
<b>VI-BOB. F – (Difibrillation) – Defibrillyatsiya / kardioversiya .....</b>	108
Defibrillyatsiya o'tkazish .....	109

## INTENSIV TERAPIYA

<b>VII-BOB. Intensive Care – Intensiv terapiya .....</b>	114
Markaziy vena bosimini o'lhash .....	115
Oshqozonni zond orqali yuvish .....	119
Og'iz orqali oshqozonni yuvish texnikasi .....	121
Siydik pufagini kateterizatsiyalash .....	126
Erkaklarda kateterlash texnikasi: .....	127
Ayollarda siydik pufagini kateterlash texnikasi .....	130
Burun kateteri yordamida kislordil terapiyani o'tkazish .....	133
Lyumbal punksiya .....	136

## ANESTEZOLOGIYA

<b>VIII-BOB. Anesteziologiya .....</b>	143
Mahalliy anestetiklar .....	144
Terminal anesteziya .....	146
Infiltratsiyali anesteziya .....	149
O'tkazuvchi anesteziya .....	153
Novokainli g'ilofli (futlyar) blokada .....	156
Epidural anesteziya .....	160
Orqa miya anesteziyasi (lyumbal) .....	166
Izoxlar (glossariy) .....	173
Rasmli test mashqlari .....	187
Adabiyotlar .....	278

## **SO'Z BOSHI**

Zamonaviy anesteziologiya va reanimatologiya – klinik meditsinaning katta bir qismi bo'lib, turli xil tashxisdagi va turli xil yoshdagи bemor va jabrlanuvchilarga kritik holatlarda zudlik bilan ahvolini baholab shoshilinch yordam berishga qaratilgan. Anesteziolog-reanimatologlar, shoshilinch tibbiyat sohasidagi barcha tibbiy xodimlar tibbiyotning barcha nazariy bilimlarini egallashgan bo'lishlari lozim. Nazariy bilimlar favqulotda holatlarda bemorlarning (jabrlanuvchilarning) yoshi, jinsi, fizik ma'lumotlarini hisobga olgan holda tez yordam berishda kerakli asbob-anjomlarni tanlay olishlari, muolajalarni bajarishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri bajara olishlari uchun asos bilim hisoblanadi. Bemorlarga taalluqli barcha ma'lumotlar hozirgi rivojlangan tibbiyotda turli xil tekshirish usullari va asbob-uskunalar orqali aniqlanadi. Kritik vaziyatlarda diagnostik va davolash muolajalarini bajarish uchun xodimlarda nazariyot bilan amaliyot bilimlari umumlashgan bo'lishlari lozimdir.

Tibbiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi inson organizmining yashirin hali o'rganilmagan sir asrorlariga kirib borishiga turtki bo'lmoqda. Turli xil diagnostik va davolash uskunalarining kashf qilinishi xayot uchun muhim a'zolar faoliyatini chiqurroq va to'laqonli tasavvurga ega bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Tibbiyotga yangi kirib kelayotgan diagnostik va davolash usullari o'z navbatida tibbiy xodimlarning mazkur amaliy ko'nikmalarini qaytadan ko'rib chiqishlari va o'zlashtirishlarini taqozo qiladi.

Tibbiyot oliyoholarida talabalar barcha kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashning umumiyl tamoyillari to'g'risida nazariy bilimlarni to'liq o'zlashtirishadilar. Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish holati yillar davomida «ustoz-shogird» zimmasida qolib kelmoqda.

Ushbu qo'llanma kritik holatlarda qo'llaniladigan asosiy amaliy ko'nikmalarini o'zida jamlagan bo'lib, barcha tibbiyotda qo'llaniladigan ko'nikmalarni ushbu qo'llanma tartibida o'qib o'rganishlari, o'rgatishlari va takomillashtirish imkonini beradi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi tibbiyotda "Kuzat, bajarib ko'r va takrorla" usulini inkor qilish emas, chunki har qanday yozma manbalar ko'nikmalarni bajarayotgan ustozning mohir qo'llarini kuzatish, texnikani mustaqil ravishda mashq qilish yoki amaliyotga qo'llash vaqtি mas'uliyatini o'z zimmasiga olish kabi kompetentlikni almashtira olmaydi.

Ushbu qo'llanmada amaliy ko'nikmalar qat'iy ravishda bir xil uslubda tartiblashtirilgan:

1. Usulning talqini,
2. Ko'rsatmalari,
3. Qarshi ko'rsatmalari,
4. Asbob-uskunalar,
5. Anesteziyasi,
6. Holati,

7. Amaliyotning qadamma-qadam bajarish ketma-ketligi,
8. Asoratlari va ularni oldini olish.

Bu turdagи ketma-ketlik asosida o'quvchi qo'llanma tarkibiga kirmagan boshqa amaliy ko'nikmalarni ham shu asnoda o'rganishda foydali qo'llanma bo'ladi deb o'yaymiz.

Qo'llanmada ba'zi bir tibbiy atamalarga, olimlar to'g'risidagi ma'lumotlarga, hisob-kitoblarga qo'shimcha ravishda ilovalar ham kiritilgan.

Ushbu qo'llanma nafaqat anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qiyotgan talabalar uchun, balki magistratura rezidentlari, klinik ordinatorlar va shoshilinch tibbiyot yo'nalishida ishlayotgan yosh amaliyotchi shifokorlar uchun ham foydali bo'lib kritik holatlarda mustaqil ishlashga o'tishni osonlashtiradi degan umiddamiz.

**Yarmuxammedova N.A.  
SamDTU. O'quv ishlari bo'yicha prorektor.**

## QISQARTMALAR RO'YXATI

<b>AB</b>	– arterial bosim
<b>AYeD</b>	– automated external defibrillator. Tashqi avtomatik defibrillyator
<b>BF</b>	– bo'l machalar fibrillyatsiyasi
<b>DF</b>	– defibrillyatsiya
<b>kPa</b>	– kilopaskal. Bosimni xalqaro birlikdagi o'lchash birligi (SI sistemasi)
<b>QT</b>	– qorinchalar taxikardiyasi
<b>QF</b>	– qorinchalar fibrillyatsiyasi
<b>LN</b>	– laringial niqob
<b>M/o</b>	– mushak orasi
<b>MVB</b>	– markaziy venoz bosim
<b>MNN</b>	– Mejdunarodnoye nepatentovannoye naimenovaniye (Xalqaro patentlanmagan nomi)
<b>MNT</b>	– markaziy nerv tizimi
<b>O<sub>2</sub></b>	– kislород
<b>PVK</b>	– periferik venoz kateter
<b>pH</b>	– (lot. pondus Hydrogenii - vodorod ko'rsatgichi, kislotalik ko'rsatgichi
<b>pO<sub>2</sub></b>	– kislорodning partsial bosimi
<b>pCO<sub>2</sub></b>	– korbonat angidridning partsial bosimi
<b>SA</b>	– spinal anesteziya
<b>SNO</b>	– sun'iy nafac oldirish
<b>T/o</b>	– teri osti
<b>O'B</b>	– o'ng bo'l macha
<b>O'Q</b>	– o'ng qorincha
<b>O'YuM</b>	– o'pka yurak miya
<b>O'YuR</b>	– o'pka- yurak reanimatsiyasi
<b>sAMF</b>	– siklik adenozinmonofosfat
<b>EKG</b>	– elektrokardiografiya
<b>EMG</b>	– elektroniografiya
<b>YuQS</b>	– yurak qisqarishlar soni
<b>YuQTT</b>	– yurak- qon- tomir tizimi
<b>YuM</b>	– yurak massajи

---

Aksariyat qisqartmalar bo'limlarda izohlar bilan yoritilgan.

## KIRISH

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalişlaridan biri shoshilinch tibbiy yordam xizmatining milliy tizimini yaratish bo'ldi. Shu munosabat bilan turli darajadagi shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish kabi tibbiyot muassasalari tarmog'i shakllantirildi.

Bu tarmoqlarda bemorlarga xizmat ko'rsatish mukammal va murakkab texnologiyalarga asoslangan bo'lishi bilan, faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan monitoring, diagnostika va davolash muolajalari soni ortib bormoqda. Ko'p hollarda bu muolaja-ko'nikmalar favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilmoxda.

Ushbu tibbiyot muassasalarida juda katta ishlarning salohiyati anesteziolog va reanimatologlar zimmasiga to'g'ri keladi, ularning harakatlari va kasbiy mahoratiga bemorlarning taqdiri bog'liqdir. Bu yerda tibbiyot xodimlarining nafaqat bilim, balki bajarayotgan amaliy ko'nikmalarining qat'iy ketma-ketlikda to'g'ri bajarishlari, asbob-uskunalarini to'g'ri tanlay olishlari, asoratlarni vaqtida ko'ra bilishlari, noxush holatlar kuzatilishini vaqtida oldini olishlari va barham berish imkonini beradigan tibbiy fikrlashning yetarli darajasini ham talab qiladi. Bu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan yosh shifokorlar o'z tajribalarini ustozlarning "men qilgandek qilinglar" tavsiyalari orqali zarur ko'nikmalarga ega bo'lishsa-da, bu sohada turli muolajalarni bajarish bo'yicha batapsil va yaxshi tartiblashtirilgan qo'llanma bo'lsa foydali bo'lardi. Hozirgi vaqtida shifoxonagacha va shifoxona bosqichlarida amalga oshiriladigan ba'zi muolajalar texnikasining tavsiflarini tor mutaxassisliklarning nashrlarida topish mumkin, ammo favqulotda holatlarda bajariladigan tibbiy muolajalarga, shu jumladan tibbiyotning turli sohalaridagi usullarning tavsifiga bag'ishlangan qulay qo'llanma mavjud emas.

Bunday vaziyatda amaliy shifokorga (ayniqsa, yosh mutaxassislarga) shoshilinch tibbiyot, anesteziologiya va intensiv terapiya amaliyotida tez-tez qo'llaniladigan, barcha kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalar to'g'risida, jamlagan shakldagi qo'llanma bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

«Anesteziologiya va reanimatologiyada amaliy ko'nikmalar» qo'llanmasida shoshilinch tibbiyot, anesteziologiya va reanimatsiyada qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qo'llanma III- bobdan iborat. Birinchi bob reanimatologiyaga bag'ishlangan bo'lib, qo'llanmada amaliy ko'nikmalar kritik holatlarda hayotni birlamchi saqlash xalqaro «ABC» algoritmi ketma-ketligida keltirilgan. Ikkinci bob intensiv terapiya amaliyotiga bag'ishlangan va hayot uchun muhim a'zolarda qo'llaniladigan asosiy ko'nikmalar yoritilgan. Uchinchi bob asosan mahalliy og'riqsizlantirishga bag'ishlangan bo'lib, mahalliy anesteziyaning asosiy og'riqsizlantirish usullari yoritilgan.

Qo'llanmada muolajalar qat'iy ravishda: ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, amaliyot vaqtida bemorning holati, asbob-uskunalar va ularning o'lchamlarini aniqlash, amaliy ko'nikmani qadama-qadam bosqichlari bilan yoritilgan. O'quvchi uchun o'zlashtirishni yengillashtirish maqsadida barcha bosqichlardagi rasmlar parallel ravishda sxematik rasmlar bilan izohlangan. Muolaja vaqtি kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar va ularni oldini olish kabi ma'lumotlar kiritilgan. Ba'zi bir

tibbiy atamalarga, olimlar to'g'risidagi ma'lumotlarga, hisob-kitoblarga qo'shimcha ravishda ilovalar alifbo tartibida kiritilgan.

Ushbu nashr har qanday tarzda ham to'g'ridan-to'g'ri ta'lim va kundalik tibbiy amaliyotda olingen tajribani almashtira olmaydi. Tegishli tajriba yoki malakali murabbiy bo'lmasa, u yoki bu ko'nikmalarni amalga oshirishga urinmaslik kerak. Ushbu qo'llanmada tasvirlangan muolajalar texnikasi muallifning tajribasi va turli xil adabiyotlardan olingen maxsulotlar natijasidir. Tibbiyotning rivojlanib borishi bilan bu ko'nikmalar yillar davomida texnik ta'minotlari va usullari bemorning xususiyatlari qarab o'zgarib borishi mumkin.

Qo'llanmani yozishda biz mahalliy va xorijiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalandik. Qo'llanma yetakchi chet el adabiyotlaridan foydalanib birinchi marta o'zbek, rus va ingliz tilida nashr etilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, turli xil chet el adabiyotlaridan olingen ma'lumotlar o'quvchiga yetakchi klinikalarning eng oxirgi ma'lumotlari bilan tanishish imkonini ham beradi.

Ushbu qo'llanma nafaqat anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qiyotgan talabalar uchun, balki magistratura rezidentlari, klinik ordinatorlar va shoshilinch tibbiyot yo'nalishida ishlayotgan yosh amaliyotchi shifokorlar uchun ham foydali bo'lib kritik holatlarda mustaqil ishlashga o'tishni osonlashtiradi degan umiddamiz.

Qo'llanma sifatini oshirishga qaratilgan hamkasblarning barcha e'tiroz va takliflarini minnatdorchilik bilan qabul qilamiz.



---


## NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI TIKLASH

---

1. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini manual tiklashning P. Safar uchligi
2. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini manual tiklashning Geymlix usuli
3. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini manual tiklashning Sellik usuli
4. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklashning Konikotomiya usuli
  - a. Krikotireoid bog'lam punksiyasi
5. Gvedel naychasini og'iz orqali kiritish usuli
  - a. Burun orqali havo naychasini kiritish
6. Og'iz orqali va burun orqali traxeya intubatsiya
  - a. Og'iz orqali traxeya intubatsiyasi
  - b. Burun orqali intubatsiya texnikasi
7. Laringeal niqob o'rnatish texnikasi

## NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING UCHLIK QO'LLANMASI P. SAFAR UCHLIGI

P. Safarning uchlik usuli — o'pka-yurak reanimatsiyasining nafas yo'llari o'tkazuvchanligining bir usuli hisoblanadi. Bu usul Piter Safar tomonidan 1957 -yili kiritilgan.



Rasm 1. Nafas yo'llining berkilish mexanizmi.

Bu usul quyidagi yo'nalişda olib boriladi.

1. Boshni orqaga egish.
2. Og'izni ochish.
3. Jag'ni oldinga surish.

### Ko'rsatma:

1. Yuqori nafas yo'llarini to'silishi hayot uchun xavf soluvchi holatlarda.
2. Bemorlarda markaziy asab tizimi dorilar ta'sirida bo'lib, yutinish yo'tal, til tutish reflekslari keskin susaygan holatlarda.
3. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi og'iz a'zolari bilan obstruksiya holatlarda.

### Qarshi ko'rsatma:

1. Bo'yin umurtqalarini shikastlanishida gumin qilinganda.
2. Daun sindromida (bo'yin umurtqalarini S1-S2 to'liq suyaklashmaganda yoki shikastlanishlarida).
3. Bo'yin umurtqalarining bitishib ketganda.
4. Bo'yin umurtqalarining patologiyasida.

### Holati:

Chalqancha.



Rasm 2. Bemor yoki jabrланувчи holati.

**Texnikasi:**

**1-Qadam. Boshni bukish texnikasi:**



Rasm 3. Usulning birinchi bosqichi.

- Yuqorida ko'rsatilgan qarshi ko'rsatmalar bo'limgan taqdirda pastki jag'ni oldinga tortish usulini bajaring.
- Bemorni bosh tarafiga o'ting.
- Ikkala kaftingizni yuz qismiga qo'ying, qo'lingizni bosh barmoqlari bemorning iyak qismiga qolgan barmoqlar iyakning burchak qismida bo'lsin.
- Bo'yin umurtqasining atlantaokskipital sohasidan og'zini yopgan holda boshni orqa tomonga eging (3 rasm).

**2- Qadam. Pastki jag'ni oldinga tortish.**



Rasm 4. Usulning ikkinchi bosqichi

- Ikkala bosh barmog'ingiz bilan yengil harakat qilib iyakni bosib og'zini oching. Shunda pastki tishlar bilan yuqorigi tishlar bir tekislikda bo'ladi.(4 rasm).

**3- Qadam. Og'izni ochish texnikasi.**



Rasm 5. Usulning uchunchi bosqichi

- Pastki jag'ni ushlab turgan barmoqlaringiz bilan jag'ni oldinga ko'taring.
- (5 rasm).

- Bemorni og'zi ochilgan va pastki tishlari **yuqori tishlardan oldinga chiqgan holatda bo'lsein.**



**Bimanual** metodning qulayligi og'izni oolib pastki jag'ni oldinga chiqarish, til ildizining oldinga siljib nafas yo'llarini ochilishiga sabab bo'ladi.

#### Asoratlар va ularни bartaraf etish:

1. Besh yoshdan kichik bemorlarda bo'yin umurtqalari bukilganda hijildoqni devori tilga yaqinlashtirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bu usulni boshni neytral holda bajarish yaxshiroq natija beradi.

### NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING GEYMLIX USULI

**Geymlix usuli** - nafas yo'llariga qattiq jism (ovqat burdasi, mayda o'yinchoqlar va h.k.) tiqilishidan kelib chiqgan shoshilinch holatlarda yordam berish usulidir.

#### Ko'rsatmalari:



Rasm 1. Halqumga yot jism tiqilishining sxematik ko'rinishi.

- Nafas yo'llariga qattiq jism tiqilishi sababli bo'g'ilishlarda (**obstuksiya**). Bu holatlarda inson gapira olmaslik, nafas ola olmaslik va yo'tala olmaslik belgilari paydo bo'ladi.
- Geymlix usulini faqatgina bo'g'ilish jabrlanuvchi hayotiga xavf solgan taqdirdagina amalga oshirish lozim.

#### Qarshi ko'rsatmalar: Mutloq qarshi ko'rsatmalar:

- 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda bu usulni qo'llash mumkin emas. Batafsil internet orqali rus tilida ko'rishingiz mumkin [**Lecheniye udushya u mladensa v soznanii**].

#### Nisbiy qarshi ko'rsatmalar

- 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda yoki tana vazni 20 kg dan kam bo'lgan bolalarda bu usulni yengilroq bajarish lozim.
- Semiz odamlarda va **homiladorlikning** oxirgi davrlaridagi ayollarda. Bunday odamlarda usul qorin qismini emas, balki ko'krak qafasini qisish orqali amalga oshiriladi.

#### Asoratlari

- Ko'krak qafasi travmasi yoki qovurg'alar sinishi.
- Ichki qorin a'zolarining ezilishi.

### Qo'shimcha ma'lumotlar

- Jabrlanuvchiga bu usulni aspiratsiya belgilari kuzatilgach vaziyatdan, holatidan qat'iy nazar zudlik bilan bajarish lozim.
- Usulni bajarish vaqtি odamga qo'shimcha travma keltirib chiqarishdan saqlanish lozim.
- Bu usul amaliyotda keng qo'llaniladi. Mohiyati ko'krak qafasida musbat bosim hosil qilish natijasida yot jismni otlib chiqarishga qaratilgan. Usul natija bermagan taqqirda qayta o'tkazish mumkin.

#### Bemorning holati:



Rasm 2. Yuqori obstruksiyalarda bemor ko'rinishi.

- Vaziyatdan kelib chiqib turli holatda bo'lishi mumkin, jabrlanuvchining hushi o'zida bo'lganda-tik holatda, hushi bo'lmaganda-yotgan holda bo'lishi mumkin.



Rasm 3. Turli holatlarda bemorga yondashish.

- Kichik yoshli bolalarda esa turli hollarda bo'ladi.

### Anatomik xususiyati

- Hiqqildoq usti tog'ay odatda odatda yot jismlarni traxeyaga tushishini himoya qildi.
- Aspiratsiya odatda ovoz bog'lamidan pastda yoki yuqorida bo'ladi.

### Qadama -qadam bajarilish texnikasi:

Avval bemorda aspiratsiya to'liq yoki qismanligini aniqlash lozim.

1. Avval odamda nafas olishini tekshiring, nafasi adekvatmi yoki yo'qmi, yo'tal refleksi bormi yo'qmi aniqlang.
2. Alovida e'tibor bering: odam agar tomog'ini ushlab ko'karib turgan bo'lsa bu og'ir-to'liq obstruksiyadan darak beradi.
3. «Nafasingiz bo'g'ilayaptimi» deb so'rang.
4. Agarda odam gapirayotgan va nafasni qisman bo'lsada olayotgan bo'lsa yo'taltirishga harakat qiling. Zinhor yot jismni olishga harakat qilmang.

### Hushida bo'lgan hollarda usul bajarishning ahamiyiati

1. Bo'g'ilayotgan odamning orqa tomoniga o'tiladi, agar bola bo'lsa yoniga tizzalab turiladi.
2. Agar jabrlanuvchi homilador bo'lmasa yoki semizlik alomatlari bo'lmasa qorin tomonidan qisish amaliyoti bajariladi. Semiz odam yoki homiladorlikning





oxirgi davrlaridagi ayollarda ko'krak qafasidan qisish bajariladi. Bunday odamlarda usul qorin qismini emas, balki ko'krak qafasini qisish orqali amalga oshiriladi.

3. Usulni bajarish vaqt kuraklar orasiga kaft bilan urishni usul bilan ketma-ket bajarib boriladi.
4. Geymlix usuli to natija berguncha yoki mahsus yordam berish usuliga o'tguncha bajariladi.

Natija bermagan hollarda agar nafasi va yurak urishi to'xtashi kuzatilganda o'pka-yurak reanimatsiyasi bajariladi. Reanimatsiya vaqt nafas berishdan oldin og'iz bo'shlig'ini tekshiriladi. Doim og'iz bo'shlig'ini tozalab boriladi. Barmoqlar bilan halqumga kirish mumkin emas.


### Geymlix usuli amaliyoti



Rasm 4. Hushi o'zida bo'lganda orqa yondashuv.

## A - (Airway oren) - Nafas yo'llarini o'tuvchanligini tiklash

**1- Qadam.** Jabrlanuvchining orqa tomonidan o'tib ikkala qo'lingiz bilan qavurg'alarning paski qismidan quchoqlang.



Rasm 5. Orqa yondashuvda qo'llar joylashuvi.

**2- Qadam.** Bir qo'lingizni **musht**



qilib to'shning Hanjarsimon o'simtasining pastiga qo'ying.




Rasm 6. Ko'krakni qisishda qo'llar yo'nalishi.

**3- Qadam.** Ikkinchi qo'lingizni musht ustidan ushlang. (**Geymlix usuli**). Qo'llarni qisish harakatini **pastdan yuqoriga**



yo'naltirilgan holda tezkor va qisqa harakat bilan bajaring.  
Qisish harakatini lozim bo'lsa ritmik 6-10 martagacha qaytaring.

Kuraklar orasiga urish amaliyoti:



Rasm 7. Kuraklar orasiga urish.

- Jabrlanuvchining yonbosh tomoniga o'ting.
- Bir qo'lingiz bilan ko'krakning old tomonidan ushlab 90 gradus atrofida kengaytiring.
- Bola bo'lса tizzalaringizga qorin bilan yotqizishingiz mumkin.
- Bo'sh qolgan qo'lingiz bilan ikkala kurak orasiga kaft bilan



5 marotaba uring.



Rasm 8. Chaqaloqlarda usulni qo'llash.

**Keyingi taktika**

- Natija ijobiy bo'lgan taqdirda har qanday holatda ham tibbiy muassasaga qo'shimcha tekshirish uchun yotqizing.
- **E'tibor qiling, xato qilib qo'y mang.**
- Agarda kishi gapira olsa, yo'tala olsa yoki nafasi adekvat bo'lса bu usulni qo'llay ko'r mang.

- Semiz kishilarda va homiladorlikning oxirgi davrlaridagilarga zinhor qorindan qisish harakatini bajarmang.

**Eslatma va maslahat**

- Geymlix usulini bajarganengizda jabrlanuvchi qayt qilish mumkin. Qayt qilishda ovqat qoldiqlarining chiqishi har doim ham nafas yo'lidagi yot jismni chiqganligidan darak bermaydi.
  - Ba'zi holatlarda qayt qilish vaqtı nafas yo'lidagi yot jism ham chiqishi mumkin.

**NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING  
SELLIK USULI**

**Sellik usulinini** 1961 yil Brayan Artur Sellik birinchi marta kirish narkozi vaqtı **uzuksimon tog'ayni**, bosish orqali regurgitatsiyani oldini olish mumkinligini e'lon qilgan. Hozirgi kungacha bu usul Sellik nomi bilan ataladi. Uzuksimon tog'ayga bosim berish orqali qizilo'ngachni bo'yin umurtqasiga qisib o'tkazuvchanligini to'sish mumkin.



**Ko'rsatmalar:**

- O'pkani niqobli ventilyatsiyasi vaqtida havoning oshqozonga o'tishini oldini olish maqsadida.
- Traxeya intubatsiyasi vaqtı nafas yo'llariga oshqozondagi mahsulotlarini tushishni oldini olish maqsadida.

**Qarshi ko'rsatma:**

- Toksik buqoqning og'ir darajasi.
- Bo'yin sohasi travmatik deformatsiyalarida.

**Asbob-uskunalar:**

Sharf emas


**Holati:**

Gorizontal. Djekson holati.

**Texnikasi:**

**1-Qadam.** Bemorni gorizontal holda yotqizib bo'yin sohasiga iloji bo'lsa qattiq taglik qo'ying. Bosh qismini orqaga ohista buking. Bemor yotqizilgan holda bo'yin qismi paypaslanib qalqonsimon tog'ay topiladi. Qalqonsimon tog'ay pastrog'ida chuqurcha paypaslanadi, bu- median cricothyroid ligament. Uzuksimon tog'ay bog'lamasining pastida joylashgan. Bosh barmoq va o'rta barmoqlarni

uzuksimon tog'ay yonboshidan, ko'satkich barmoqni uzuksimon tog'ayni old qismidan qo'ying.




Rasm 1. Barmoqlarni joylashash tartibi.

**2-Qadam.** Bemor hali hushi yo'qolmasdan uzuksimon tog'ayni markazidan ushlab uni biroz kuch bilan (10 Nyuton) bosamiz. Ba'zida bosish kuchini haddan ziyyod oshirib yuborish bo'yining orqaga ketishiga olib keladi. Bu holatda traxeyani intubatsiya qilish qiyinlashadi. Bu holat kuzatilmasligi uchun yordamchi (hamshira) usul bajarilayotganda qo'lini bo'yin orqa sohasiga qo'yib ushlab turish lozim. Uzuksimon va qalqonsimon tog'ay qizilo'ngachni bosib undan oshqozon mahsulotlarini chiqishiga to'sqinlik qiladi. So'ngra intubatsion trubka yoki oshqozon zondi o'rnatiladi va manjetka shishiriladi.



Rasm 2. Usulni bajarish.

**3-Qadam.** Usul oxirida qo'lingizni bo'yindan olishdan oldin so'rg'ichni (otsos) tayyorlab turing. Uzuksimon tog'ayni bosib turish qizilo'ngach sfinkterini tonusini susaytirishi mumkin. Agarda regurgitatsiya kuzatilsa usulni qaytarish lozim.



Rasm 3. Nafas yo'llari sanatsiyasi.

#### Asoratlari:

Bo'yin a'zolarining travmasi, qizilo'ngachning yirtilishi.

## NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI TIKLASHNING KONIKOTOMIYA USULI

### (KRIKOTIREOIDOTOMIYA)

**Konikotomiya** (krikokonikotomiya, krikotireoidotomiya) – nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash uchun qalqonsimon va uzuksimon tog'aylar aro membranani teshish muolajasidir.



#### Ko'rsatmalar:

Sun'iy nafas berishga tayyorlash jarayonida quyidagi holatlarda bu usul o'tkaziladi:

- Og'iz-yuz qismida jarohatlar natijasida laringoskopiya yoki traxeyani intubatsiya qilishning iloji bo'limganda.
- Yuqori nafas yo'llarida yot jism yoki og'ir darajali shishlar hayot uchun keskin xavf solish holatlardida.
- Endotracheal intubatsiyani iloji bo'limganda.

#### Qarshi ko'rsatma:

- 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda. Krikotireoid tog'ayni punksiyasi vaqt uzuksimon tog'ayni shikastlash ehtimolligi yuqori bo'lganligi sababli mumkin emas.

#### Anesteziya:

Shart emas.

#### Jihozlar:

1. Skalpel.
2. Traxeyani kengaytirgich.
3. Qon to'xtatuvchi qisqichlar.
4. Traxeostomik yoki endotracheal trubka.
5. Ambu qopchasi va kislorod.
6. № 3-0 raqamli xirurgik ip.
7. Asseptik salfetka.
8. Tibbiy qo'lqop.



Rasm 1. Krikotireoid membranani punksiyasi uchun jihozlar to'plami.

#### Holati:

Chalqancha, bo'yin sohasiga yostiqcha qo'yilgan holat. Bunday bemorlarga holatni xuddi bo'yin umurtqalari shikastlangan bemorlar kabi munosabatda bo'lishi lozim.

#### Texnikasi:

**1- Qadam.** Antiseptik bilan bo'yin sohasini old qismini ishlov bering. Steril salfetka bilan sohani yoping.



Rasm 2. Sohaga ishlov berish.

**2- Qadam.** Qalqansimon tog'ayni topib pastida joylashgan krikotiroid bog'ilamni barmoq uchi bilan paypaslab toping.



Rasm 3. Krikotireoid tog'ayni aniqlash usuli.

**3- Qadam.** Bir qo'lingiz bilan qalqonsimon tog'ayni ushlab ikkinchi qo'lingiz bilan ohista skalpelni chuqur kiritmasdan krikotireoid bog'lamani ko'ndalangiga 2 sm atrofida kesing. Ba'zida traxeyaga konyulani kiritish qiyinroq kechadi, bu holat bog'lamani to'liq kesmagan hollarda ro'y beradi.



Rasm 4. Krikotireoid bog'lamani kesish.

**4- Qadam.** Kesma bo'ylab kengaytirgichni pastga qarab kiritting va kesmani kengaytiring. Agarda kengaytirgich bo'limgan taqdirda skalpelni dastasini kiritib 90° ga burang, shu usul yordamida kesmani kengaytirish mumkin.




Rasm 5. Krikotireoid bog'lama kesmasini kengaytirish.

**5- Qadam.** Kiritilgan kengaytirgich bo'ylab traxeostomik trubkani kiritting so'ngra kengaytirgichni chiqarib oling.





Rasm 6. Traxeostomik trubkani kiritish.

**6- Qadam.** Traxeostomik trubkaning manjetkasini 5 ml atrofidagi havo bilan shishiring.




Rasm 7. Traxeostomik trubkaning manjetkasini shishirish.

**7- Qadam.** Trubkaga Ambu qopchasini ulab 100% kislород билан sun'iy nafas bering. O'pkaning ikkala tomonidan bir xil nafas o'tayotganligini fonendoskop yordamida eshitib ishonch hosil qiling.



Rasm 8. Ambu qopchasi bilan sun'iy nafas berish.

**8- Qadam.** Traxeostomik trubkani 2-0 razmerli **prolen** bilan teriga choclab mahkamlang yoki mahsus fiksator bilan mahkamlang. Agarda kesma bo'ylab qon ketish kuzatilsa barmoqlar yordamida bir oz bosib turing yoki 3-0 razmerli xirurgik ip bilan gomeostaz o'tkazing.



Rasm 9. Traxeostomik trubkani fiksatsiyalash bosqichi.

**Asoratlari va ularni oldini olish.**

**Qon ketishlarda:**

- Yuzaki kapillyarlardan qon ketishlarda odatda o'z-o'zidan to'xtaydi.
- Boshqa holatlarda qon ketayotgan joyni barmoq bilan bosib turing yoki (zajim) qisqich yoki xirurgik ip bilan tikib qo'ying.

**Qizilo'ngach jarohatlari:**

- Skalpelni chuqur kiritganda traxeyadan o'tib qizilo'ngachni kesib qo'yish mumkin. Terini kesish vaqtি skalpelni chuqur kiritmang, krikotireoid bog'lamni kesib bo'lгach kesishni to'xtating.
- Qizilo'ngachni shikastlab qo'ygan taqdiringizda xirurgni konsultasiyaga chaqiring.

## **KRIKOTIREOID BOG'LAM PUNKSIYASI**

Krikotireoidotomiyani alternativ usullaridan biri hisoblanadi. Bu usul faqat qisqa vaqt 30-45 daqiqa davomida sun'iy nafas berish maqsadida qo'llaniladi.

**Ko'rsatmalar:**

- Og'iz bo'shligining katta jarohatlari natijasida laringoskopiya qilishning iloji bo'lмаган taqdirda.
- Yuqori nafas yo'llarida kuchli shish, qon ketish yoki yot jismlar bo'lgan taqdirda.
- Qayta-qayta traxeya intubatsiyasi amalga oshmaganda.
- 12 yoshgacha bolalarda bo'yin qismi anatomik xususiyatlarini inobatga olgan holda.

**Qarshi ko'rsatmalar:**

Yo'q.

**Anesteziya:**

Shart emas.

**Asbob-uskunalar:**

1. Tibbiy qo'lqop.
  2. Steril bint.
  3. 5 ml shprist.
  4. Angiokateter 12-14 kalibrdagи.
  5. 3.0 mm endotraxeal trubka adabteri.
  6. Ambu qopchasi.
- Y-simon (perexodnik) uzatgich.
  - Kislород uskunasi floumetr bilan.
  - Kislород berish uskunalarini.



Rasm 1. Bog'lam punksiyasi uchun ishlataladigan asboblar namunasasi.


#### **Holati:**

Chalqancha, bo'yin sohasiga yostiqcha qo'yilgan holat. Bunday bemorlarga holatni xuddi bo'yin umurtqalari shikastlangan bemorlar kabi munosabatda bo'lishi lozim.

#### **Texnikasi:**


Muolajani bajarishdan oldin o'zingizni va bemorni turli xil kontakt kasalliklardan himoya qiling.

**1- Qadam.** Imkon bo'lsa, vaqt chegaralanmagan bo'lsa antiseptik bilan bo'yin sohasini old qismini ishlov bering, steril salfetka bilan sohani yoping.




Rasm 2. Buyin sohaga ishlov berish.

**2- Қадам.** Qalqonsimon tog'ayni topib pastida joylashgan krikotiroid bog'lamani barmoq uchi bilan paypaslab toping.




Rasm 3. Qalqonsimon tog'ayni paypaslab topish.

**3- Qadam.** 5 ml. lik shpristga 12-14 razmerli angiokateterni ulang so'ngra krikotireoid bog'lamni ignani uchini pastga tanaga nisbatan  $45^{\circ}$  og'dirib punksiya qiling.




Rasm 4. Krikotireoid bog'lamni punksiya qilish.

**4- Qadam.** Punksiya vaqtiga shprist porshenini tortib boring, havo kelgach kiritishni to'xtating, traxeya bo'shlig'iغا tushdingiz. Kateter ignasini ushlab turgan holda kateterni o'zini traxeyaga biroz kriting va so'ngra ignasini chiqarib oling.



Rasm 5. Angiokateterni o'rnatish.

**5- Qadam.** Kateterga 3-0 razmerli endotracheal trubkaning adapterini o'mating.



Rasm 6. Angiokatetarga adapter o'rnatish.

**6- Qadam.** Adapterga Y-simon uzatkichni Ambu qopchasiga kislород orqali ulang. Kislород oqimini 5 l/dad. ga ko'taring. Y-simon uzatkichni bosh barmog'ingiz

bilan yopib 1 soniya davomida yopib so'ngra 4 soniya davomida ochib sun'iy o'pka ventilyatsiyasini o'tkazing.



Rasm 7. Sun'iy nafas berish.

### **Asoratlari va ularni oldini olish.**

#### **a. Qon ketishlarda:**


- Yuzaki kapillyar qon ketishlar odatda o'z-o'zidan to'xtaydi.
- Boshqa holatlarda qon ketayotgan joyni barmoq bilan bosib turing yoki (zajim) qisqich yoki xirurgik ip bilan tikib qo'ying.

#### **b. Qizilo'ngach jarohatlari:**

- Kateterni chuqur kiritganda traxeyadan o'tib qizilo'ngachni shikastlab qo'yish mumkin. Shpristda havo erkin kela boshlagach kateterni kirgizishni to'xtating.
- Qizilo'ngachni shikastlab qo'ygan taqdiringizda xirurgni konsultastiyaga chaqiring.

### **GVEDEL NAYCHASINI OG'IZ ORQALI KIRITISH USULI**

Nafas olish yo'llarining o'tkazuvchanligini tiklash va ushlab turish usullaridan biri havo naychalarini nafas yo'llariga kiritish kiradi.



Og'iz

va burun

havo naychalarini kiritilishi halqumgacha bo'lган o'tkazuvchanlikni saqlashga imkon beradi, chunki bu tilning orqaga tortilishiga



to'sqinlik qiladi. Amaliyotda rezina, metall yoki plastmassadan tayyorlangan turli o'lchamdag'i orofaringeal havo naychalari ko'proq qo'llaniladi.

### Ko'rsatma:



Rasm 1. Gvedel havo o'tkazuvchi naychani qo'yishga bo'lgan ko'rsatmalar.

- To'liq va qisman yuqori nafas yo'llari **obstruksiyalarida**.
- Hushsiz holatda bo'llib, jag'i qattiq yopilgan bo'lsa.
- Og'iz halqumdan shilliq moddalarini so'rib (**aspiratsiya**) olish lozim bo'lganda.


### Qarshi ko'rsatma:

- Pastki jag' yoki tishlar singanda.
- Muolaja o'tkazish vaqtি **bronxospazm** holati kuzatilsa yoki anamnezida bronxeal astma holatlari qaytarilib turgan bo'lsa.

### Anesteziya.

Qayt qilish refleksini susaytirish maqsadida 10% **lidokain** eritmasi bilan og'iz-halqumga ishlov beriladi.

### Jihozlar:



Rasm 2. (1-Havo o'tkazuvchi naycha. 2-shpatel. 3-vakuumli aspirator).

1. Rezinali yoki temirli havo naychalari.
2. Shpatel.
3. Vakuumli aspirator (otsos) .

Gvedel havo o'tkazuvchi naychalar ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli xil materiallar va tuzilishda ishlab chiqiladi. [Naychalar o'chami va rangli kodlar bilan farqlanadi].

Naycha raqami	Kateterning ichki diametri	Rangli kod
№ 000	30mm.	Pushti rang
№ 00	40mm.	To'q sariq

No 0	50mm.	Ko'k
No 1	60mm.	Siyoh rang
No 2	70mm.	Oq
No 3	80mm.	Yashil
No 4	90mm.	Sariq
No 5	100mm.	Qizil

### Holati.

Orqa yoki yonbosh holatda yotkiziladi.

#### Texnikasi:

**1- Qadam.** Bemorga holat berilgandan so'ng havo o'tkazuvchi naychani o'lchab oling. Naycha og'iz burchagidan pastki jag'ni paski burchak qismigacha o'lchanadi.

- Og'iz ochib shpatel bilan til ildizini bosib tilni oldinga chiqaring.
- Pastki jag'ni oldinga chiqarib og'zini oching.



Rasm 3. Naycha o'lchami mosligini o'lhash.


**2- Qadam.** Naychani uch qismini tanglay tomonga qaratilgan holda og'izga kiriting.



Rasm 4. Naychani og'iz bo'shlig'iga kiritish.

**3- Qadam.** Naychani uchi til ildiziga yetgandan so'ng uni 180 gradusga aylantiring.

## A - (Airway oren) – Nafas yo'llarini o'tuvchanligini tiklash



Rasm 5. Naycha uchini nafas yo'liga to'g'rilash.

**4- Qadam.** Naychadan havo o'tayotganligiga ishonch hosil qiling.



Rasm 6. Naychani to'g'ri turganligini tekshirish.

**5- Qadam.** Naycha bo'g'zi lablar bilan bir tekisda bo'lismiga e'tibor qiling.

Bu usulni agar bemor tishlari sinishga moyil bo'lsa yoki og'iz bo'shlig'ida jarohatlanish bo'lsa qo'llamagan ma'quldir.



Rasm 7. Naychani to'g'ri turgan holati.

### Asoratlari va ularni oldini olish

Bronxospazm kuzatilganda.

- Safar uchlik muolajasini bajarib, nafas o'tkazuvchanligini tiklang.

- Dori preparatlari bilan bronxospazmnı bartaraf eting.

Qayt qilish va ko'ngil aynish kuzatilsa.

- Bemor boshini yonbosh tomonga qayirib **drenaj** holati bering va og'iz bo'shlig'ini qusuq massalaridan tozalab oling.

Naychaning noto'g'ri joylashishi natijasida nafas yo'llari **obstruksiyasining** kuchayishida.

- Naychani chiqarib oling va qaytadan qo'yishga harakat qiling.

## BURUN ORQALI HAVO NAYCHASINI KIRITISH



### Ko'rsatmalar:

- Hushsiz yotgan bemorlarning yuqori nafas yo'llarini obstruksiyasida.
- Tomoq va og'iz a'zolari travmalarida.
- Og'iz orqali havo naychasi kiritilganda nafas yo'llarining o'tuvchanligini to'liq tiklanmasligida.

### Qarshi ko'rsatma:

- Burun bo'shlig'i okklyuziyasi.
- Burun to'sig'i singanda yoki kalla suyagi asosi singanda.
- Burun to'sig'i qiyshiqligida.
- Koagulopatiyalarda.
- Serebrospinal suyuqlikning burundan kelishida.
- Anamnezidan kraniofasial nuqsonni to'g'irlash yoki orqa faringeal tashxis o'tkazilgan hollarda.
- Homiladorlikning burun bo'shlig'i tomirlari dimlanish kabi patologiyalarida.

### Anesteziya boskichlari:

- Burun va burun bo'shlig'ini vizual tekshirib chiqing. Burundan qon ketish yoki poliplar bo'limganligiga ishonch hosil qiling.
- Bemorga oynacha yoki laringoskop dastasiga burun bilan nafas olishni buyuring.
  - Oynachada va laringoskop dastasida suv bug'larini paydo bo'lishi nafas yo'llari ochiqligidan darak beradi.
  - Burun yo'llari anesteziyasi va vazokonstriksiyasi uchun mezatonning (1 ml) 10 mg+ lidokain 2% -10 ml gel aralashmasini tayyorlang.
  - Tayyorlangan anestetikni tampon orqali burun yo'lliga surkang va anesteziya bo'lishini kuting.
  - Bir oz vaqt o'tgach tamponni burun yo'lining chuqurroq qismi bo'ylab kiritib boring, surkashni halqumgacha yetkazing.
  - Uchta tamponni birlashtirib burun bo'shlig'iga kriting, agarda erkin kirsa, 7,5 mm naychani kiritish mumkin.
  - Ma'lum sabablarga ko'ra tampon kiritishni iloji bo'limgan taqdirda anestetikni shprist orqali purkash mumkin.

**Jihozlar:**




1. Burun havo naychasi diametri 0 dan to 8,0 mm gacha.
2. 2% lidakain geli, paxtali tamponlar.
3. Fenilefrin.
4. Vakuumli aspirator.

**Holati:**

Orqa yoki yonbosh yotgan holatda yoki o'tirgan holatda.

**Texnikasi:**

**1- Qadam.** Naychaning uch qismini tanglay tomonga yo'naltirilgan holda sekinlik bilan kiritting. Havo naychani pastki burun chig'anog'idan tanglayga paralell kiritting.



Rasm 8. Naycha o'lchamini aniqlash.

**2- Qadam.** Agarda naychani kiritish vaqtı qiyinchilik tug'ilsa naychani 60-90° soat strelkasiga qarshi yo'nalishda burab kiritishda davom eting; ba'zida naychani 90° soat strelkasiga qarshi yo'nalishda burab sekinlik bilan tortib olib so'ngra qayta kiritish natija beradi.



Rasm 9. Naychani kiritish.

**3- Qadam.** Naychani to'g'ri turganligiga tekshirib ko'rib ishonch hosil qiling. Agarda bu usul ham naf bermasa kichikroq razmerli naychadan foydalaning.

- Ba'zida naycha ichidan kichik qalinlikdagi **aspiratsiya** uchun kateterni kiritib so'ngra kateterni yo'naltirgich sifatida foydalaniб naychani kiritish mumkin.

- Naychani kiritishni umuman iloji bo'limgan taqdirda ko'p urnamasdan ikkinchi burun yo'lidan kiritishga harakat qiling.



Rasm 10. Naycha to'g'ri turganligini aniqlash.

#### Asoratlari va ularni oldini olish.

##### Burun qonashida

- Yengil burundan qon ketishlarda burunni oldingi tamponada qiling.
- Qon ketishning og'ir holatlarda otolarингolog vrach bilan maslahatlashgan holda burunga orqa tamponada o'tkazing.

##### Burun shilliq qavatlarini shikastlanishi.

- Muolajani to'xtatib, naychani olib tashlang.
- Mutaxassisni yordamga chaqiring.

### OG'IZ ORQALI VA BURUN ORQALI TRAXEYA INTUBATSIYA

Traxeya intubatsiyasi o'pkani [Ambu niqobli] ventilyatsiyasi bilan solishtirganda nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlashning "**oltin standarti**" sifatida o'zini namoyon qildi va bir necha kungacha sun'iy Ventilyatsiya o'tkazish uchun tanlov usuli hisoblanadi.<sup>[1]</sup> Amaliyotda orotraxeal intubatsiya keng tarqalgan usul hisoblanadi, usulni qo'llashda endotraxeal trubka [laringoskop], orqali og'iz bo'shilig'i, [halqumdan] o'tkazilib [ovozi bog'lamlari] orasidan traxeyaga kiritiladi.

##### Ko'rsatmalar:

1. Nafas yoki qon aylanishning to'xtashi yoki to'xtash xavfi bo'lgan holatlarda.
2. Nafas olish sonining 1 daqiqada 40 dan yuqori yoki 7 dan kamaygan holatlarda.
3. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligining boshqa usullar bilan tiklashning iloji bo'limgan holatlarda.
4.  $pO_2$ -ning meyordan sezilarli pasayishida.
5.  $pCO_2$  ning meyordan sezilarli ortishida.
6. Bronxoskopiya o'tkazish lozim bo'lgan holatlarda.

**Qarshi ko'rsatmalari:**

A. Og'iz orqali intubatsiya qilishga:

- Og'iz bo'shlig'i jarohatlari.

B. Burun orqali intubatsiya qilishga:

- Homiladorlik (birinchi trimestrda keyin burun bo'shlig'idagi tomirlarda dimlanish kuzatilganda).

• Koagulopatiyalarda.

- Burun bo'shlig'ining okklyuziyalarida.

• Burun suyaklarining sinishlarida.

• Burun to'sig'ining egriligidagi.

• Burun orqali orqa miya suyuqligining oqishida.

• Transsfenoidal gipofizektomiya o'tkazgan bo'lsa.

- Anamnezda kraniofassial nuqsonini yopish uchun orqa faringal laxtakdan foydalanish holatlarda.

**Anesteziya:**

Odatda, traxeya intubatsiyasi kombinatsiyalashgan umumiy anesteziya miorelaksantlar asosida olib boriladi. Sedativ vositalar esa odatda qo'zg'aluvchan bemorlarni intubatsiyadan avval tinchlantirish maqsadida qo'llaniladi.

**Kirish narkoz uchun preparatlar:**

• Tiopental (4-6 mg / kg)

• Etomidat (0,3 mg / kg)

• Ketamin (1-3 mg / kg)

**Mushak relaksantlari:**

• Suksinilxolin (1.0 mg / kg)

• Vekuroniy (izchil induksiya uchun 0,3 mg / kg)

**Sedativlar:**


• Diazepam (0.03-0.1 mg / kg)

• Midozolam (0.05-0.15 mg / kg)

Favqulotda holatlар uchun reanimatsiyaga tayyorgarlik: Atropin, fenilefrin, efedrin va adrenalin.

Hushi o'zida bo'lган holatlarda intubatsiyadan oldin nafas yo'llarini tayyorlash uchun mahalliy kontakt anestetik kerak bo'ladi.

**Asbob-uskunalar:**



Rasm 1. Intubatsiya jihozları.

1. Laringoposkop (1-rasmga qarang)

2. Ambu qopchasi va yuz niqobi.

3. Har hil o'lchamdagи endotraxeal naychalari to'plami (odatda kattalar uchun 6,0 mm dan 8,0 mm gacha).

4. So'rg'ich.

**Holati:**



- Bemorning ahvoli yotishga imkon bo'lmasa yoki burun orqali intubatsiya qilish lozim bo'lsa bu holatlarda— o'tirgan holatda bo'ladi.
- Boshqa holatlarda klassik— yotgan holatda bo'ladi.

### **OG'IZ ORQALI TRAXEYA INTUBATSIYASI**

**1- Qadam.** Endotraxeal naychani manjetkasini 10 ml. havo yuborib tekshirib ko'ring.



Rasm 1.1. Endotraxeal naychani tekshirish.

**2- Qadam.** Laringoskopni ishlashini tekshiring: lampochkalar yorityaptimi, laringoskop to'g'ri yig'ilganmi va h.k.




Rasm 1.2. Laringoskopni tekshirish.

**3- Qadam.** Yuz niqobi orqali bemorga giperokxygenatsiya o'tkazing, SNO vaqtি uzuksimon tog'ayni bosib turing (Sellik usuli).

**A - (Airway oren) – Nafas yo'llarini o'tuvchanligini tiklash**

---




Rasm 1.3. Intubatsiya oldi bosqichi.

**4- Qadam.** Og'izdan havo o'tkazuvchi naychani olib tashlang.




Rasm 1.4. Intubatsiya oldi bosqichi.

**5- Qadam.** Laringoskopni chap qo'lingizda ushlang. Hushi saqlangan holatlarda bemorga og'zini kattaroq ochishni buyuring. Klassik holatlarda bemor boshiga qulay holat bering, og'zini oshib o'ng qo'l ko'rsatkich va bosh barmoqlamni bemor tishlariga tiragan holda "**Qaychisimon**" harakat bilan og'zini oching.




Rasm 1.5. Intubatsiyani boshlash bosqichi.

**6- Qadam.** Laringoskop uchini kiritish vaqtি bemor tishlarini sindirib qo'yishdan ogoh bo'ling. Laringoskop uchini ohista bemor og'zining chap tomoni bo'ylab kiritib boring.




Rasm 1.6. Tilchani aniqlash bosqichi.

**7- Qadam.** Hiqqildoq usti tog'ayining toping, laringoskop uchi bilan hiqqildoq usti tog'ayining asosini tuting.



Rasm 1.7. Hiqqildoq usti tog'ayinini aniqlash bosqichi.

**8- Qadam.** Laringoskop uchi (klinik) asosini bemor tishlariga suyagan holda (richag hosil qilish) laringoskop uchini yuqoriga ko'tarib ovoz bog'lamenti toping.




Rasm 1.8. Ovoz bog'lamenti aniqlash bosqichi.

**9- Qadam.** Intubatsiya naychasini laringoskop uchi qirrasi bo'ylab ovoz boylamli orqali traxeyaga kiriting. Intubatsiya naychasing manjetkasi ovoz boylamidan o'tgan bo'lishi kerak, aks holda traxeya devorini shikastlab qo'yishingiz mumkin, so'ngra naychaning ichidan o'tgan simli yo'naltirgichni chiqarib oling.



Rasm 1.9. Naychani traxeyaga kiritish bosqichi.

**10- Qadam.** Intubatsiya naychasining manjetkasiga 5-10 ml. havo yuborib shishiring, bu naychani fiksatsiya qilish maqsadida bajariladi.




Rasm 1.9. Naychani fiksatsiyalash bosqichi.

**11- Qadam.** Trubkani tish bilan qismasligi uchun og'izga mahsus chegaralagich qo'ying. Naychani lab qirrasiga yaxshilab leykoplaster bilan mahkamlang. Naychani labga fiksatsiya qiling.




Rasm 1.11. Naychani fiksatsiyalash bosqichi.

**12- Qadam.** Intubatsion naychani SNO uskunasiga adapter orqali ulang. 5-6 marta nafas bering, ko'krak qafasini harakatini kuzating. Adapter datchigini monitorga ulab pCO<sub>2</sub> ning partsel bosimini tekshiring. Tekshirishlarning ijobiy natijasi naychaning o'pkada to'g'ri turganligidan darak beradi.



Rasm 1.12. Endotracheal naychani tekshirish bosqichi.

**13- Qadam.** Fanendoskop yordamida o'pkaning ikkala tomonida ham bir xil nafas o'tishini tekshiring, oshqozon sohasida quldirash kabi xech qanday tovushlar eshitilmasligi lozim.



Rasm 1.13. Endotracheal naychani tekshirish bosqichi.

#### Esda tuting!

- Tekshirishlar natijasi siz naycha to'liq traxeyada ekanligiga ishonch hosil qilsangiz, yordamchingizga uzuksimon tog'ayni bosib turishini to'xtatishini so'rang.
- Lozim bo'lsa ko'krak qafasini R- grafiya qilib naychani to'g'ri turganligiga ishonch hosil qiling.
- Qiyin intubatsiya holatlariда qizilo'ngachni intubatsiya qilib qo'ygan bo'lsangiz naychani chiqarib olmang, qayta intubatsiya vaqtı “nishon” sifatida xizmat qiladi.

### BURUN ORQALI INTUBATSIYA TEXNIKASI



Intubatsiya naychasini og'iz orqali kirish imkonini bo'limganda (masalan, og'iz ochilishini chegaralanishida) yoki og'iz bo'shlig'ida jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi lozim bo'lgan hollarda nazotracheal intubatsiya qilinadi. Nazotracheal

intubatsiya intensiv terapiyada traxeostomiya muqobil usul sifatida qo'llaniladi, chunki u og'iz orqali intubatsiyaga qaraganda ishonchliroq usul hisoblanadi.

**1- Qadam.** Endotracheal naychani manjetkasini 10 ml. havo yuborib tekshirib ko'ring.




Rasm 1. Endotracheal naychani tekshirish.




**2- Qadam.** Laringoskopni ishlashini tekshiring, lampochkalar yorityaptimi, laringoskop to'g'ri yig'ilganmi va x.k.



Rasm 2. Laringoskopni tekshirish.



**3- Qadam.** Burun orqali traxeya intubatsiyasi odatda bemor hushi saqlangan, nafasi adekvat holatda bajariladi. Bo'yin umurtqalari sinishlarida laringoskopiyani iloji bo'limganda bu usul qo'llaniladi. Burun yo'llarini xuddi burun orqali havo o'tkazuvchi naychani qo'yish usulidek tayyorlang. Burun o'tkazuvchanligini tekshirib ko'ring.



Rasm 3. Burun o'tkazuvchanligini tekshirib ko'rish.

**4- Qadam.** Burun yo'llarini kichikroq o'lchamdagи intubatsion naycha bilan kirib avval kengaytiring.



Rasm 4. Burun o'tkazuvchanligini tekshirib ko'ring.

**5- Qadam.** Intubatsion naychani ichidagi simli yo'naltirgichni olib tashlang, naychani uch qismidan 3 sm. dan bir oz egib yumshashi uchun 3 daqiqaga iliq fiziologik eritmada ushlab turing. Naychaga anestetik gel suykang.



Rasm 5. Naychani issiq suvda bukish.

**6- Qadam.** Bemor boshini bir oz orqaga egiltirib intubatsion naychani xuddi burun naychasi singari sekinlik bilan kiritib boring. Naycha ovoz bog'lamiga yaqinlashgach naychada suv bug'lari paydo bo'lib ovozi o'zgaradi.



Rasm 5. Naychani traxeyaga kiritish.

**7- Qadam.** Bemorga chuqur nafas olishni buyuring, nafas olganda hiqqildoq usti tog'ayi ochiladi shu paytda naychani kiriting. Ovozni yo'qolishi naychaning nafas yo'lidaligidan darak beradi.



Rasm 5. Naychani o'tuvchanligini tekshirish.

**8- Qadam.** Naycha manjetkasini shishiring va keyingi taktikangiz xuddi og'iz orqali intubatsiyadagidek harakat qiling. SNO o'tkazing.



Rasm 5. Naychaga SNO uskunasini ulash.

---

#### Intubatsiyaning asoratlari va ularni bartaraf qilish:

##### Nafas olish yo'llari shikastlanishida:

1. Lablar, til va milklarni yaxshilab tekshiring, qon ketmayotganligiga ishonch hosil qiling. Agar yirtilish yoki shikastlanish holatlari kuzatilsa jarohatni tiking yoki chora ko'ring.

##### Tishlar sinishida:

1. Singan tishlarni iloji bo'lsa mutaxassis chaqirib tiklash chorasini ko'ring. Keyingi taktika uchun stomatolog va LOR vrachni maslaxatga chaqiring.

##### Qizilungachni intubatsiya qilib qo'yilganda:

1. Oshqozonni dekompressiya qiling. Qayta intubatsiyaga o'ting.

##### Nafas yo'llarining jiddiy shikastlanishlarida

1. Ko'krak qafasini R-grafiyasini o'tkazing. Zudlik bilan krikotireoidotomiya qiling. Stomatolog va LOR vrachni maslaxatga chaqiring.

## LARINGEAL NIQOB O'R NATISH TEXNIKASI

**Laringeal niqob** (LN) orqali ventilyatsiya, hushi o'zida bo'limgan yoki qayt qilish refleksi susaygan bemorlarga shoshilinch yordam berish vaqtida qo'llaniladigan usul bo'lib, bu usul boshqa nafas yo'llarini tiklash usullariga qaraganda texnik jihatdan osonroq bajariladi.

### Laringeal niqobni qo'llash uchun ko'rsatmalar:

- Apnoe, o'tkir nafas yetishmovchiligi kuchayib borayotgan holatlardan yoki mavjud vaziyatdan kelib chiqgan holda traxeya intubatsiyasiga vaqt tig'iz holatlarda.
- Ambu qopchasi bilan SNO qiyin bo'lgan holatlarda **LM** o'rnatish foydalidir:
  - Yuzning og'ir deformatsiyasi (travmatik yoki tabiiy), qalin soqol yoki boshqa sabablar tufayli niqobning yuzga germetik mahkamlashning iloji bo'limganda.

### Laringeal niqobni joylashtirishga qarshi ko'rsatmalar

#### Mutloq qarshi ko'rsatmalar:

- Og'iz ochilganda tishlar orasidagi maksimal masofa < 2 sm bo'lganda (bu holda nazotraxeal intubatsiya yoki nafas o'tkazuvchanligini tiklashning jarrohlik usullari qo'llaniladi).
- Yuqori nafas yo'llarining to'liq obstruksiyasi (bu holda nafas yo'llarini jarrohlik yo'li bilan tiklashga ko'rsatma bo'ladi).

#### Nisbiy qarshi ko'rsatmalar:

- Hushi o'zida bo'lsa yoki qayt qilish refleksi saqlangan holatlarda.
- Regurgitatsiya xavfiningyuqoriligidagi: Ambu qopchasi bilan uzoq vaqt SNO o'tkazilganda, og'ir darajali semizlik, homiladorlikning 10 haftadan keyingi holatlariada. Ko'p ovqat istemol qilgan holatlarda yoki yuqori oshqozon-ichak traktida muammolari bo'lgan bemorlarda (masalan, shu sohada operatsiya o'tkazgan bo'lsa yoki diafragma churrasi, gastroezofagial reflyuks kasalligi, oshqozon yara kasalligi).

### Laringeal niqobni qo'llashdagi asoratlar

#### Asoratlarga quyidagilar kiradi:

- Qusish va aspiratsiya.
- LN uzoq vaqt turishi yoki ortiqcha **LN manjetkaga** havo yuborganda tilning shishishi.
- O'rnatish paytida tishlar yoki og'iz-halqumming shikastlanishlari.

### Laringeal niqobni o'rnatish uchun uskunalar:



Rasm 1. Asbob uskunalar.

## A - (Airway oren) – Nafas yo'llarini o'tuvchanligini tiklash

1. Qo'lqop, niqob, xalat va ko'zni himoya qilish vositalari (ya'ni universal ehtiyyot choralar)
2. Shprist 30 dan 60 ml gacha.
3. Steril anestetik gel.
4. Zarur bo'lganda og'iz-halqumni tozalash uchun so'rg'ich uskunasi.
5. Laringeal niqob.
6. Ambu qopchasi.
7. Kislorod manbai (100% kislorod, 15 l/min).
8. Pulsoksimetr, kapnometr (nafas chiqarishdagi havodagi karbonat angidrid konsekratsiyasining monitori uchun) va qo'shimcha datchiklar. (Rasm 1).

### Laringeal niqobni qo'llashda bemor holati:



Rasm 2. Djekson holati.

- LN ni o'rnatish uchun bemorning optimal holati: gorizontal bosh orqaga ketgan. (Rasm 2).
- Bajaruvchi esa bemorning boshida turishi lozim.
- Yordamchi bemorning yon tomonda turishi mumkin.

### Texnikasining bosqichma-bosqich tavsifi:


LN razmeri	Bemorlar guruhি	Tana massasi (kg)	Maksimal havo hajmi (ml)
1	Chaqiloqlar va ko'krak yoshidagilar	≤5	4
1,5	Ko'krak yoshidagilar	5-10	7
2	Ko'krak yoshidagilar va bolalar	10-20	10
2,5	Bolalar	20-30	14
3	Bolalar	30	20
	Kattalar	30-50	
4	Kattalar	50-70	30
5	Kattalar	70-100	40

Rasm 3. Laringeal niqob razmerlari va yoshga mosligi.

**1- Qadam.** LN yoki endotracheal naychalarni kiritish paytida va ventilyatsiya paytida bemorni uyg'onishdan saqlaning. Ehtiyyot choralarini ko'rib qo'ying. Tegishli laringeal niqob o'lchamini tanlang va manjetning maksimal shishirish hajmiga e'tibor bering. Hajmi va maksimal shishirish hajmi odatda trubaning yon tomonida ko'rsatiladi. Odatta, №4 o'lcham 50-70 kg og'irlilikdagi kattalar uchun mos keladi, №5 o'lcham 70-100 kg gacha bo'lgan kattalar uchun mos keladi.


## A - (Airway oren) – Nafas yo'llarini o'tuvchanligini tiklash

- 2- Qadam.** Manjetkaning shishirish hajmini va germetikligini shprist bilan havo yuborib tekshirib ko'ring.



Rasm 4. LN germetikligini tekshirish.

- 3- Qadam.** Manjetning havosini chiqarib unga mahsus anestetik maz surting.



Rasm 5. LN tanglayda siljish uchun anestetik gel surkash.

- 4- Qadam.** Iloji bo'lsa, Ambu qopchasi bilan bemorni LN qo'yishdan olin kislorod bilan SNO berib to'yintiring.



Rasm 6. Giperventilyatsiya bosqichi.

- 5- Qadam.** Bemor boshini orqaga bukib iyagini oldinga ko'taring.




Rasm 7. P.Safar uchligini bajarish.

**6- Qadam.** Naychani o'ng qo'l barmoqlaringiz bilan ushlab naychani teshik uchini old tomonga yo'naltirilgan holda tanglay bo'ylab sirpantirib kiritib boring.




Rasm 8. LN ni kiritishning 1-bosqichi.

**7- Qadam.** Qo'lingizni og'iz bo'shlig'idan chiqarib oling.




Rasm 9. LN ni kiritishning 2-bosqichi.

**8- Qadam.** LN manjetni puflang. Tavsiya etilgan maksimal havo hajmining yarmini yuboring. LN to'g'ri joylashgach qolgan havoni yuboring.




Rasm 10. LN ni germetiklash bosqichi.

**9- Qadam.** Ambu qopchasini LN ga ulang. O'pka ventilyatsiyasini boshlang (1daqiqada 8-10 marta nafas bering, har soniyada nafas hajmini 500 ml berib boring).




Rasm 11. LN orqali Ambu qopchasida SNO o'tkazish.

**10- Qadam.** Ventilyatsiyani effektivligini o'pkani ikkala tomonidan auskultatsiya qilib tekshirib baholang. Monitor yordamida CO<sub>2</sub> ni chiqarilgan havodagi partzial bosimini tekshirib ko'ring.



Rasm 12. LN ni to'g'ri turganligini auskultativ tekshirish.

**11- Qadam.** LN ni og'izga to'g'ri mahkamlang.



Rasm 13. LN ni og'izga fiksatsiya qilish.

#### Laringeal niqobni qo'llashda asoratlar va ularni oldini olish:

- LN qo'yish vaqtida bemorni barvaqt uyg'onishidan (hushiga kelishidan) saqlang. Agar kerak bo'lsa, bemorga narkoz va relaksantlar qiling. Manjetni ortiqcha shishirmang. Qoida tariqasida, maksimal havo hajmining yarmidan boshlang va so'ngra LN to'g'ri joylashgach qolgan havoni yuboring.



### O'PKANING SUN'IY VENTILYATSIYASI

1. Og'izdan- og'izga sun'iy nafas berish
2. Og'izdan-burunga sun'iy nafas berish
3. Yuz niqobi orqali o'pka ventilyatsiyasi
4. «S» simon naycha orqali o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish

## OG'IZDAN-OG'IZGA SUN'YI NAFAS BERISH

### Ko'rsatmalari:

#### Mutloq:

- Nafas to'xtashi, apnoe.
- O'pkaning minutlik hajmining kamayishi bilan o'pka ventilyatsiyasining yaqqol yetishmovchiligi.
  - Nafas yetishmovchiliginig og'ir darajasi.


#### Nisbiy:

- Gipoksemiya, 50% kislород maska orqali berilganda ham kislородning partsial bosimi ( $\text{PaO}_2$ ) 9,3 kPa dan past bo'lganda (70 mm.sim.ust).
- Giperkapniya karbonat angidridning partsial bosimi ( $\text{PaCO}_2$ ) 7,98 kPa dan yuqori yoki 60 mm sim ust. dan yuqori.
- Funksional o'lik bo'shliq hajmi ning nafas hajmiga nisbatan 6,6 martadan oshishi.
- O'pkaning tiriklik sig'imi ning 10-12 ml/kg gacha pasayishi.
- Nafas chastotasi 1 minutda 50 martadan oshganda.
- Effektsiz yo'tal bo'lib, nafas yo'llarini doimiy tozalashga zarurat tug'ilganda.

Agar konservativ davo muolajalari (fizik usullar, oksigenoterapiya, bronx kengaytiruvchi moddalar, halqum va traxeyani sistematik tozalashlar) ventilyatsiyani yaxshilamasra nisbiy ko'rsatma absolyut ko'rsatmaga aylanishi mumkin.

#### Holati:

- Chalqancha, bosh qismi «hidlayotgandek» holatda.



Rasm 1. Bemorning boshlang'ich holati.

#### Texnikasi:

Sun'iy nafas berishning eng effektiv va oddiy asbob-uskunalar talab qillinmaydigan va turli joylarda ham o'tkazish mumkin bo'lgan usullaridan biri "og'izdan-og'izga" ya'ni jabrlanuvchining to'g'ridan-to'g'ri og'ziga yoki burniga puflash usulidir.

#### Bu usullar quyidagicha nomlanadi:


- a) «og'izdan-og'izga»
- b) «og'izdan-burunga»

#### Usulni qadama-qadam bajarish:

1- **Qadam.** Jabrlanuvchining qisib turgan jihozlarini yoki kiyimlari yechiladi, chalqancha yotqizilib kurak sohasiga kiyimlaridan yostiqcha qilib qo'yiladi;



Rasm 2. Bemorni tayyorlash.



**2- Qadam.** Odatda yordam beruvchi jabrlanuvchining o'ng tomonidan turib bosh qismiga o'tiladi;



Rasm 3. Bemorga yondashuv.



**3- Qadam.** Jabrlanuvchining og'iz halqumini tekshirib ko'ring, agarda ko'pik, qum, shilliq yoki qon laxtalari bo'lsa tozalab oling. Buning uchun jabrlanuvchini yelka va bosh qismini yonboshga qaratib og'zidagi yot jismlarni barmoqlarga biron parcha mato (ro'molcha) bilan o'rab olib tashlang.



Rasm 4. Nafas yo'llari sanasiysi.



**4- Qadam.** Nafas yo'llarini o'tkazuvchanligini tiklash uchun jabrlanuvchi boshining SNO payti holati katta ahamiyatga egadir. Jabrlanuvchining boshini maksimal orqaga tashlang (buking), bu holat til ildizining tanglaydan tortilib nafas

yo'llari to'lqidan ochilishiga olib keladi. Buning uchun o'ng qo'lingiz bilan bo'yinni orqa qismidan ushlang, chap kaftingiz bilan peshonaga qo'yib boshni orqaga bosing.



Rasm 5. Safar uchligini bajarish.



**5- Qadam.** Yordam beruvchi chuqur nafas olib lablarini jabrlanuvchining lablariga mahkam yopishtirdi va kuch bilan bemorning o'pkasiga havo puflanadi. (jabrlanuvchining og'ziga biron bir mato qo'ying). Bunda bemorning ko'krak qafasi ko'tarilishi kerak. Og'zingizni og'izdan olinganda passiv nafas chiqarish sodir bo'ladi. (ko'krak qafasi pasayishi hisobiga). Bemorning ko'krak qafasi pasayib, dastlabki holatiga kelgach, ikkinchi nafasni berish mumkin. Puflashni minutiga 12-16 martadan qaytarib boring.



Rasm 6. Ventilyatsiya bosqichi.



**DIQQAT!** To'g'ri nafas berilganda ko'krak qafasi ko'tarlib tushib turadi, teri ranginining oqarib-ko'karishlari kamayadi. Agarda bu holatlar kuzatilmasa nafas yo'llari o'tkazuvchanligini yana tekshirib ko'ring. Nafas germetikligini ta'minlang.

Gigliyenik nuqtai nazaridan bu usul oxirgi yillardagi epidemiologik holatni hisobga olgan holda ma'qul hisoblanmaydi. Birlamchi shifokorlik yordami o'tkazish yug'ida turli xil uskunalaridan foydalangan holda bu usulni amalga oshirish maqsadga muvoifiqdir. (S-simon Safar naychasi, yuz niqoblari va h.k).

#### Asoratlari:

- Havoning oshqozonga o'tib ketishi natijasida **regurgitatsiya** va oshqozon mahsulotlaridan **aspiratsiya** kabi og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin.
- O'pkani yorilip ketishi. (asosan bolalar amaliyotida uchraydi).

## OG'IZDAN-BURUNGA SUN'IY NAFAS BERISH

### Ko'rsatmalar:

- Nafasnig to'xtashi.
- Nafas berishning og'izdan-og'izga iloji bo'lmaganda;
- Og'iz bo'shlig'ida jarohatlar bo'lganda;
- Tishlari singanda;
- Og'iz bo'shlig'i qon yoki boshqa sabablar bilan berk bo'lganda.

### Qarshi ko'rsatma:

Burun yo'llarining berk bo'lishi.

### Holati:

Chalqancha, bosh qismi «hidlayotgandek» holatda.



Rasm 1. Bemorning boshlang'ich holati.

### Texnikasi:

Og'izdan-burunga sun'iy nafas berish usuli samarasizrok usul bo'lib, burun yo'llarining torligi tufayli nafas o'tishining qiyinchiligi bu usulning bajarilishida noqulayliklariga olib keladi. Lekin turli xil travmalarda, jumladan pastki' jag' suyagining sinishlarida, og'izni ochishni iloji bo'lmaganda yoki jabrlanuvchi cho'kkana holatlarda birinchi yordam berishda bu usul boshqa SNO usullariga qaraganda samarali bo'lib hisoblanadi.

### Harakatlar ketma-ketligi:

1- **Qadam.** Safar uchlik usulini bajarib nafas o'tuvchanligini tiklang.



Rasm 2. Bemorni nafas yo'llarini tiklash bosqichi.

2- **Qadam.** Jabrlanuvching o'ng tomonidan o'tib bosh qismida turing.



Rasm 3. Bemorga yondashuv.

## B – (Breathe for victim) – Suniy nafas berish

**3- Qadam.** Chap kaftingiz bilan bemor peshonasini ushlab boshini orqaga qayiring, ikkinchi qo'l bilan pastki jag'ni yuqoriga ko'taring.



Rasm 4. Nafas berishga tayyorlash.

**4- Qadam.** Jag'ni tepaga ko'tarib mahkam qilib og'zini yoping.



Rasm 5. Og'izni yopish bosqichi.

**5- Qadam.** Chuqr nafas olib, lablaringiz bilan burunni to'liq qoplab puflang. Puflashdan so'ng boshingizni ko'tarib havo chiqishini kuting.



Rasm 6. Ventilyatsiya bosqichi.

**6- Qadam.** Puflash chog'i ko'krak qafasiga qarab boring, har puflaganda ko'krak qafasi ko'tarib-tushishi lozim.



Rasm 7. Ventilyatsiya natijasini kuzatish.

### Esda tuting!

Iloji boricha “og’izdan-og’izga”, “og’izdan-burunga” SNO o’tkazishda himoya vositalaridan foydalaning. Himoya vositalari sizni va jabrlanuvchini noma’lum yuqumli kasallikklardan himoya qiladi.

Og’iz-burunga qo’yilgan har qanday mato, doka yoki rumolcha sizni va jabrlanuvchini to’liq himoya qilmaydi, aksincha havo o’tishini qiyinlashtiribgina qolmasdan lablaringizni germetik yopilishini to’liq ta’minlay olmaydi.

Og’izdan-og’izga va og’izdan-burunga sun’iy nafas berish faqat shifoxonagacha sharoitda jabrlanuvchiga to’liq ishonch hosil qilingan vaqt dagina (o’z yaqinlarining) natija beradi.

### Asoratlari:

- Havoning oshqozonga o’tib ketishi natijasida regurgitatsiya va oshqozon mahsulotlaridan aspiratsiya kabi og’ir asoratlarga olib kelishi mumkin.
- O’pkaning yorilib ketishi. (asosan bolalar amaliyotida uchraydi).

## YUZ NIQOBI ORQALI O’PKA VENTILYATSIYASI

### Ko’rsatmalar:

- Mustaqil nafasning bo’lmashligi yoki noadekvatligida.
- Traxeya intubatsiyasidan oldingi **giperventilyatsiya** maqsadida.
- Nafas yetishmovchiligining yengil holatlarida qo’shimcha nafas berishda.

### Qarshi ko’rsatmalar:

- Diafragmal churralar.
- Aktiv yoki passiv **regurgitatsiya**ga moyillikda.
- Bosh va bo’yin qismida shikastlanish bo’lganda.
- Traxeo-qizilo’ngach oqmalarida.
- Traxeyaning shikastlanishlarida.
- Yuz suyaklari sinishlarida.
- To’la oshqozon paytida. (Nisbiy qarshi ko’rsatma).

### Anesteziya:

- Shart emas.

### Asbob uskunalar:



Rasm-1. Asbob uskunalar.

1. Ambu qopchasi.
2. Bemorga mos yuz niqobi.
3. Kislorod.
4. Elektr so’rg’ich.

**Holati:**

- Chalqancha, bosh qismi «hidlayotgandek» holatda.

**Texnikasi:**

Ambu oqphasining ishga yaroqliligini tekshiring. Bemorga holat berilganda bir qo'l bilan bemorning boshi orqaga maksimal qayriladi. Pastki jag' yuqoriga va oldinga ko'tariladi.

**1- Qadam.** Avval og'iz bo'shlig'ini tozalab havo o'tkazuvchi naychani og'iz yoki burun orqali o'rnatiting.




Rasm 2. Havo o'tkazuvchi naychani og'iz orqali o'rnatish.

**2- Qadam.** Niqobni chap qo'lingiz bilan ushlang; bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan niqobni bo'yin qismidan, chap kaftingiz bilan niqobni asos qismidan ushlang.




Rasm 3. Niqobni qo'lga moslab olish.

**3- Qadam.** Niqobni uchli qismini burunning suyak qismiga ko'zga yaqinlashtirib joylang.



Rasm 4. Niqobni mosligini tekshirish.

**4- Qadam.** Niqobni asos qismini jag' suyagining alveolyar qismigacha tushirib boring.




Rasm 5. Niqobni o'lchab ko'rish.

**5- Qadam.** 1-2 barmoq bilan niqobning burun qismi, 3-4 barmoq bilan niqobning jag' qismini o'shlab niqobni yuzga germetik ushlang.



Rasm 6. Niqobni germetik yuzga mahkamlash.

**6- Qadam.** O'rtacha ritmda o'ng qo'l bilan qopchanli siqib havo yuborib turing.



Rasm 7. Niqob orqali sun'iy nafas berish.

Agar bemorda nafas tiklansa nafasiga jo'r (ritmik) ravishda nafas bering (sinxronizatsiya). Agar bemorda taxipnoe kuzatilayotgan bo'lsa bu holda o'z nafasiga qo'shimcha nafas berish bilan nafas ritmini tiklang.

**7- Qadam.** Ikki kishi nafas berishda ishtirok etayotgan bo'lsa, bir kishi ikkala qo'l bilan niqobni ushlab yuzga mahkamlab turadi, ikkinchi kishi qopchani siqib nafas berish mumkin.



Rasm 8. Niqob orqali ikki kishi sun'iy nafas berish.


#### Asoratlar va ularni oldini olish:

- Oshqozonga havo kirib ovqat massasining nafas yo'llariga tushishi. (oshqozonga zond qo'yish bu asoratni bartaraf etadi).
- Qayt qilish.

### «S» SIMON NAYCHA ORQALI O'PKANING SUN'YI VENTILYATSIYASINI O'TKAZISH

**Usulga ko'rsatma:** klinik o'lim vaqtida o'pka-yurak reanimatsiyasi o'tkazish bosqichlarida naycha orqali o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasini amalga oshirish vaqt.

#### Asbob-uskunalar:



Rasm 1. Asosiy jihozlar to'plami.

1. -«S» -simon naycha (kattalar va bolalar uchun ikki xil o'lchamdagи naychalar).

2. - kornsang.

3. - tibbiy qo'lqoplar.

4. - tibbiy niqob.

#### Texnikasi:

Diqqat! Avval o'zingiz va jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlang.

#### I-Qadam. Boshlang'ich. Harakatlar ketma-ketligi.

1. Jabrlanuvchini chalqancha yotqizing. Kishidagi turli xildagi qon yoki ajralmalarni o'zingizga tegishidan (kontakt) himoyalaning. Tibbiy qo'lqop va niqobingizni taqib oling. Kishining yuqori nafas yo'llarini tozalang (sanasiya).

**II-Qadam. Asosiy. «S»- simon naychani o'rnatish.**

- Jabrlanuvchining yonbosh tomonidan bosh qismiga yaqinroq turing.
- Bir qo'lingiz bilan kishining pastki jag'ini ushlang.
- Jag'ni oldinga yo'naltiring.
- Bir barmog'ingiz bilan og'zini oching.



Rasm 2. Nafas o'tkazuvchanligini tiklash.

- S- simon naychani mos o'lchamini oling.




Rasm 3. Naychani o'lchamini aniqlash.

- Naychani uch qismini tanglayga yo'naltirilgan holda kiriting.



Rasm 4. Naychani halqumga kiritish.

- Naycha uchi halqumga yetib borgach naychani uchini nafas yo'liga qaratib burang.



Rasm 5. Naychani nafas yo'lida to'g'ri tutish.

**III-Qadam. Sun'iy nafas berish.** O'ng kaftingizni kishining bo'yin tagiga qo'ying. Boshni orqa tomonga yo'naltiring. Chap kaftingiz bilan peshonani ushlab orqaga bosing. Chap kaftingizni 1-2 barmoqlaringiz bilan burnini qising. O'ng qo'lingizni bo'yindan oling. Bo'sh qo'lingiz bilan pastki jag'ni ushlang. Pastki jag'ni oldinga va yuqoriga ko'taring. Naychani chegaraligichini (mufta) labga mahkam bosib ushlang.



Rasm 6. Naychani to'g'ri ushlash.

Og'zingizni katta oching. Chuqur nafas oling. Naychani uchiga labingizni qo'ying. 1,5 soniya davomida chuqur nafas bering. Har 5 soniyada nafas berishni qaytaring. Jabrlanuvchini boshi qimirlamagan holda tursin. Naychadan havo chiqishini kuting.



Rasm 7. "S" simon naycha orqali nafas berish.

**IV-Qadam. Yakuniy. Harakatlarni yakunlash.**

1. Har 5 soniyada 1 marta nafas berib boring.
2. Reanimatsiya natijalari ijobiy bo'lgach naychani sekinlik bilan chiqarib oling.



## SUN'Y QON HAYDASH

### 1. Yurakning tashqi massaji

## YURAKNING TASHQI MASSAJI

Yurak massajini (YuM) "qon aylanishini to'xtashi" tashxisi qo'yilgach, uning sabablari, turlari va mexanizmlarini aniqlab o'tirmasdan darhol reanimatsiya tadbirlarini boshlash kerak. YuM ning ijobjiy tomoni uni har qanday sharoitda ham amalga oshirish mumkin. (asbob-uskunalar talab qilinmaydi). YuM ning patofiziologik mohiyati shundan iboratki, yurakni to'sh va umurtqa pog'onasi



o'rtaida siqib, qonni katta va kichik qon aylanishining doirasiga haydab shu bilan va hayotiy muhim a'zolar funksiyalarini sun'iy ravishda ushlab turish mumkin. YuM to'g'ri bajarilganda sistolik qon bosimini sun'iy ravishda (AB) 60-80 mm.sim.ust. gacha ko'tarish mumkin.

### **YuM uchun ko'rsatmalar:**

- Hushning bo'lmasligi.
- Nafasning yo'qligi.
- Qon aylanishining to'xtashlarida (bunday vaziyatda uyqu arteriyalarida pulsni tekshirish samaraliroqdir).



pulsni tekshirish samaraliroqdir).




Rasm 1. Puls va nafasni borligini aniqlash.

Agar reanimatolog yoki reanimator (reanimatsiyani o'tkazayotgan shaxs) uyqu arteriyasidagi pulsni aniqlamagan bo'lsa (yoki uni qanday aniqlashni bilmasa), unda puls yo'qligini, ya'ni qon aylanishining to'xtashi sodir bo'lgan deb hisoblash kerak. Yevropa reanimatologlar kengashining 2010-yildagi "Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalarga muvofiq, asosiy reanimatsiya boshlanishi uchun ko'rsatmalar faqat nafas olish va hushning yo'qligi hisoblanadi.


### **YuM uchun qarshi ko'rsatmalar:**

- Biologik o'limning aniq belgilaringin mavjudligi.
- Hayotga mos kelmaydigan jarohatlar.
- Davolab bo'lmaydigan kasalliklarning terminal bosqichlarida.



Rasm 2. Ko'z qorachig'inining biologik o'limdagi ko'rinshi (Mushuk ko'zi simptom).

**Holati:** Chalqancha.



Rasm 3. Bemor yoki jabrlanuvchi holati.

### Yurak tashqi massajini o'tkazishdagi asosiy qoidalar (YuM)

**1-Qadam.** Jabrlanuvchi gorizontal holatda chalqancha va qattiq taglikda yotishi lozim; uning boshi ko'krak qafasidan yuqori bo'lmasligi kerak, chunki bu yurak massaji vaqtida miyaga qon kelishining sekinlashuviga olib kelishi mumkin.; YuM boshlashdan oldin markazda (katta qon aylanish doirasi,



bosh miya) qon hajmini oshirish uchun jabrlanuvchining oyoqlarini ko'tarish kerak.



Rasm 4. Bemorning to'g'ri holati.

### 2-Qadam. Kaftingizni to'sh tuyagi



Sternum) ning qaysi qismiga qo'yishni aniqlab oling. Hanjarsimon o'simta



to'shning eng qisqa va eng tor qismi, to'shning pastki uchligidir. To'shning hanjarsimon o'simtdan 2-4 sm yuqorisiga - bu massaj qilish (kaftni qo'yish) nuqtasidir. Kaftingiz asosini massaj nuqtasiga qo'ying. Bunda, "bosh barmog'ingiz"




Jabrlanuvchining iyagiga yoki qorin tomoniga yo'naltirilgan holda bo'lishi lozim. Ikkinchisi qo'lingizni birinchi qo'lingizning ustiga qo'ying, barmoqlaringizni bir-biriga "qulf"



ga o'xshatib ushlang. Bosishni qat'iy ravishda "kaftning asosi"



bilan amalga oshiring - barmoqlaringiz jabrlanuvchining ko'kragiga tegmasligi kerak.



Rasm 5. Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash.

**3-Qadam.** Qutqaruvchi o'zini jabrlanuvchiga nisbatan shunday joylashtirishi kerakki, uning qo'llari tirsak bo'g'imirlaridan to'liq to'g'rilangan va jabrlanuvchining ko'kragi orasida to'g'ri burchakda bo'lsin.



Rasm 6. Massaj vaqtida yelka-qo'l holati.

**4-Qadam.** Jabrlanuvchining ko'krak qafasini massaji tanangizning og'irligi tufayli amalga oshiriladi. Bu qutqaruvchining kuchini sezilarli darajada tejashni ta'minlaydi va qon aylanishini samaradorligini oshiradi. Massaj va nafas berish vaqtiga ikki kishi bo'lsangiz qo'llaringizni ko'krakdan ajratmasdan barmoqlar ko'tarilgan holda bo'linsin.



Rasm 7. Ikki kishi bo'lgandagi holati.

**5-Qadam.** To'shning umurtqa pog'onasi tomon qisilishi (ko'krak qafasining qisilish chiqurligi) - kamida 5 sm bo'lishi lozim. Agarda massaj to'g'ri bajarilayotgan bo'lsa, ko'krak qafasining siqilishi vaqtida uyqu va son arteriyalarida sinxron puls paydo bo'lishi kerak.



Rasm 8. Ko'krak qafasi ekskursiyasi.

**6-Qadam.** Sun'iy nafas va yurak massaji nisbati 30:2 (qutqaruvchilar sonidan qat'iy nazar) bo'lishi lozim. Yurak massaji va o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi (O'SV) bir vaqtida emas ketma-ketlikda pauza bilan amalga oshiriladi.




Rasm 9. Yurak massaji va nafas berish nisbati.

- Yurak massaji kattalarda 1 daqiqada 100 martagacha bo'lishi va sun'iy nafas berish esa 10 martagacha bo'lishi lozim. Ambu qopchasi



bilan SNO o'tkazilayotgan bo'lsa - har 5 soniyada 1 marta nafas berilib tanaffussiz amalga oshiriladi.

- Yuqorida tavsiya etilgan nisbat va ko'satkichlar miyada qon aylanishini samarali ta'minlay oladi. Yurak massaji vaqtি ko'krak qafasining qisilib bo'shashi yurakka venoz oqimining qaytishini oshishiga va O'YuM reanimatsiyasining samaradorligini oshishiga olib keladi.



Rasm 10. Venoz oqimining yurakka qaytishi mexanizmi.

#### **Yurak massaji vaqtি ko'p uchraydigan xatoliklar**

- Ko'krak qafasining yetarli darajadagi qisilmasligi, odatda bu xatolik jahrlanuvchi qattiq yuzada yotqizilmaganda yoki ko'krak qafasini yetarli kuch bilan bosmagan hollarda kuzatiladi. Obyektiv ko'satkichi - uyqu arteriyasida sinxron pulsning paydo bo'lmasligi.

- Ko'krak qafasining qisilish chastotasining yetarli emasligi (1 daqiqada 100 dan kam).

- Ko'krak qafasi massajlari oralig'idagi tanaffuslar (pauza) 10 soniyadan ko'p bo'lib ketishi.

#### **Yurak massaji vaqtি uchraydigan asoratlар**

YuM paytida eng ko'p uchraydigan asoratlardan biri ko'krak qafasining (qavurg'a va to'sh suyagi) sinishlari, bu asorat ko'pincha qariyalarda, ba'zan bolalarda ko'p uchraydi.

# **IV- BOB**

## **DORILARNI YUBORISH USULLARI**

- 1. Dori preparatlarining turlari**
- 2. O'mrov osti venasini kateterlash**
- 3. Dori vositalarini suyak ichiga kiritish usuli**
- 4. Periferik venalar kateterizatsiyasi**

## O'PKA-YURAK REANIMATSIYASIDA ISHLATILADIGAN DORI PREPARATLARI

Ushbu dorilarning keng tarqalishi va hozirda an'anaviy qo'llanilishiga qaramay, biron ta dori yoki dorilar kombinatsiyasi yurak to'xtashida bemorlarning omon qolish darajasining aniq yaxshilanishini ko'ssatganicha yo'q. Ba'zi dorilar o'z-o'zidan qon aylanishini tiklash ehtimolini oshirishi mumkin, shuning uchun ularni qo'llash tavsiya etiladi.

**Medikamentoz terapiya** kengaytirilgan O'YuRning muhim tarkibiy qismalaridan biri bo'lib, u qutqarilgan bemorlarning foizini oshirishga imkon beradi, ammo:

O'YuR ni bajarishda asosiy tamoyillardan (ABC tadbirlari) chiqmaslik lozim. Ketma-ketlik hayot garovidir. Medikamentoz terapiya yordamchi xususiyatga ega bo'lib, vaqtningiz va imkoniyatingiz bo'lган taqdirda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

### Dori moddalar guruhlari:

1. Vazopressorlar: **adrenalin**
2. Antiaritmiklar: **amiodaron, lidokain**
3. Mahsus preparatlari: **kalsiy, magniy, bikarbonatlar**


Markaziy venoz kateter o'rnatilgan bemorga preparatlarni qon aylanish markaziga tezlik bilan yo'naltirish uchun bir laxzada (kattalarda tez infuzion, yosh bolalarda 3-5 ml) yuboriladi. Venaga tushish qiyinchilik tug'dirgan holatlarda bemorlarga nalokson, atropin va epinefrin, preparatlari endotracheal naycha orqali tomir ichiga yuboriladigan dozadan 2-2,5 baravar yuqori dozada berilishi mumkin.

### Qon aylanish to'xtaganda qo'llaniladigan asosiy dorilar guruhi:

#### ADRENALIN (Adrenalinum)

**Ta'sir qiluvchi modda:** epinefrin (epinephrine). Sintetik adrenalin «Epinefrin» domi bilan dorilar guruhiga kiradi (MNN).

**Klinik-farmakologik guruhi:** Alfa-,beta-adrenomimetik



#### [Adrenalin]

**Adrenalin (epinefrin) ((-)-(1R)-(3,4-Digidroksifenil)-2-metilaminoetanol)** — gormon, buyrak ustı bezida sintez bo'ladi. Organizmda ovqat bilan qabul qilingan **tirozin** — aminokislotasidan hosil bo'ladi. Bundan tashqari Adrenalin vegetativ nerv tizimi qo'zg'alishlarida (nerv tolalari **sinapslari**) hosil bo'lib organizmni xavfga tayyorligiga ishtirok etadi.

#### Ta'siri

Adrenalin xuddi simpatik nerv tolalari qo'zg'alishi kabi  $\alpha$ - i  $\beta$ -adrenozeptorlarni qo'zg'atadi. Adrenalin teri, shilliq qavatlar, skelet mushaklari,

qorin bo'shlig'i a'zolari **tomirlarini toraytiradi**, bosh miya tomirlarini aksincha kengaytiradi. Adrenalin ta'sirida A/B ko'tariladi. Adrenalinning tomirlarni qisqartirish xususiyati noradrenalindan sustroq. Noradrenalina  $\alpha_1$  i  $\alpha_2$ -adrenozeptorlardan tashqari i  $\beta_2$ -adrenozeptorlarga ta'sir qilishi tufayli vazopressorlik xususiyati kuchliroq nomoyon bo'ladi.

### Farmakologik xususiyatlari

Ta'siri hujayra membranasining ichki yuzasidagi retseptorlarga bog'liq adenilatsiklazani faollashishi, hujayra ichida siklik adenozinmonofosfati (sAMF) va kalsiy ionlari ( $Ca^{2+}$ ) ning konsentrasiyasini oshishi bilan bog'liq.

Juda past dozalarda, minutiga 0,01 mkg/kg tezlikda yuborilganda skelet mushaklari tomirlarini kengaytirishi natijasida arterial bosim pasaytirishi mumkin. Minutiga 0,04-0,1 mkg/kg tezlikda yuborilganda yurak qisqarishlari soni va kuchini, qonning zarb hajmi va minutlik hajmini oshiradi, qon tomirlarining umumiylar qarshiliginini kamaytiradi; minutiga 0,02 mkg/kg dan yuqori tezlikda qon tomirlarini toraytiradi, arterial bosimni (asosan, sistolik bosimni) va qon tomirlarning umumiylar qarshiliginini oshiradi. Pressor samarasini yurak qisqarishlari sonini qisqa muddatli sekinlashishini chaqirishi mumkin.

Miokardning o'tkazuvchanligi, qo'zg'aluvchanligi va avtomatizmini oshiradi. Miokardni kislordan bo'lgan ehtiyojini oshiradi.

$\beta_2$ -adrenozeptorlarni rag'batlanrilishi hujayradan kaliy ( $K^+$ ) ionlarini chiqarilishini kuchayishi bilan kechadi va gipokaliyemiyaga olib kelishi mumkin.

Terapevtik samarasini vena ichiga yuborilganda deyarli shu ondayoq rivojlanadi (ta'siri davomiyligi – 1-2 minut), teri ostiga yuborilganda 5-10 minutdan keyin (maksimal samarasini – 20 minutdan keyin), mushak ichiga yuborilganda – samarasini boshlanish vaqtini o'zgarib turadi.

### Qo'llanilishi

- Asistoliya (shu jumladan III darajali atrioventrakulyar blokadani o'tkir rivojlanishi fonida);
- O'rnini bosuvchi suyuqliklarni adekvat hajmlarini yuborish bilan bartaraf qilinmayotgan arterial gipotensiya (shu jumladan shok, bakteriyemiyasi, ochiq yurakdagi operatsiya, buyrak yetishmovchiligi);
- To'liq atrioventrikulyar blokada epizodlari (sinkopal holat (Morgani-Adams-Stoks sindromi) rivojlanishi bilan);

### Qo'llash usuli va dozalari

Teri ostiga, mushak ichiga, vena ichiga tomchilab yuboriladi.

**Asistoliyada:** yurak ichiga 0,5 mg (natriy xloridining 0,9% 10 ml eritmasi yoki boshqa erituvchida suyultiriladi); reanimatsion choralar vaqtida – 0,5-1 mg dan (suyultirilgan holda) vena ichiga har 3-5 minutda yuboriladi. Agar bemor intubatsiyalangan bo'lsa, endotraxeal instillyatsiyani amalga oshirish mumkin – dozalar vena ichiga dozalardan 2-2,5 marta yuqori bo'lishi kerak.

**Arterial gipotensiyyada:** vena ichiga tomchilab minutiga 1 mkg yuboriladi, yuborish tezligini

minutiga 2-10 mkg gacha oshirish mumkin.

**Bolalar amaliyotida qo'llanilishi:**

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar (asistoliya): vena ichiga, 10-30 mkg/kg har 3-5 minutda, sekin yuboriladi. Endotraxeal yuborishni qo'llash mumkin.

**Mahsus ko'rsatmalar**

Epinefrini behosdan vena ichiga yuborish arterial bosimni haddan tashqari oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Preparat yuborilganda arterial bosimni oshishi stenokardiya xurujlarini chaqirishi mumkin. Epinefrin buyrak kapillyarlarini konstriksiyasini chaqirishi mumkin, bu diurezni kamayishiga olib keladi. Infuziyani amalga oshirishda infuziya tezligini boshqarish maqsadida o'lchov moslamasi bo'lgan asbobdan foydalanish kerak. Infuziyani yirik (yaxshisi markazi) venaga amalga oshirish kerak. Agar boshqa usullarni qo'llash mumkin bo'limasa, yurak ichiga asistoliyada yuboriladi, chunki yurak tamponadasi va pnevmotoraks xavfi mavjud.

Davolash davrida qon zardobida kaliy ionlari (K<sup>+</sup>) konsentratsiyasini aniqlash, arterial bosimni o'lchash, diurez, qon aylanishini minutlik hajmi, elektrokardiogramma, markaziy venoz bosimi, o'pka arteriyasidagi bosim va o'pka kapillyarlarida qon aylanmaydigan bosimni tekshirish tavsya etiladi.

Haddan tashqari yuqori dozalari miokard infarktida miokardni kislorodga bo'lgan ehtiyojini oshirib, ishemiyani kuchaytirishi mumkin.

Endotraxeal yuborilganda so'riliши va plazmada preparatning yakuniy konsentrasiyasi o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

**Chiqarilish shakli:** Inyeksiya uchun eritma 0.1%-1 ml. 1 mg/ml dan ampulada.

**ATROPIN (Atropinum).**

Tibbiyotda atropin sulfat (Atropini sulfas) ishlataliladi.

**Farmakoterapevtik guruhি:** M-xolinoblokator.



[Atropin]

**Atropin** (lot. Atropinum) — antixolinergik (m-xolinolitik), Nespesifik xolinoblokator, m-xolinoreseptorlarga ta'sir qilish xususiyati yuqori, o'simlik alkaloidi. Ximiyaviy jihatdan tropin D-efiri va L-tropat (Ester) kislota dan iborat fasemitrik aralashma hisoblanadi. Atropin – ituzumdoshlар oilasiga mansub o'simliklar: belladonna (Atropa belladonna), mingdevona (Hyoscyamus niger), bangldevonaning ba'zi turlaritura stramonium) tarkibida mavjud bo'lgan o'simliklar alkaloididir.

**Farmakologik xususiyatlari**

M-xolinoreseptorlarning blokatori, bir xil darajada muskarin reseptorlarining m1-, m2-, va m3-kichik turlari bilan bog'lanadi. Ham markaziy, ham periferik M-

xolinoreseptorlarga ta'sir qiladi. Shuningdek n-xolinoreseptorlarga ham (garchi ahamiyatli kuchsizroq bo'lsa ham) ta'sir qiladi. Asetilxolinning rag'batlanitiruvchi ta'siriga to'sqinlik qiladi; so'lak, me'da, bronxial, ko'zyoshi, ter bezlarining, me'da osti bezining sekretsiyasini kamaytiradi. O'rtacha terapevtik dozalarda MNT ga rag'batlanitiruvchi ta'sir va kechiktirilgan, lekin davomli sedativ ta'sir ko'rsatadi; nafasni qo'zg'atadi (yuqori dozalari – nafas falajligi). Bosh miya po'stlog'ini qo'zg'atadi (yuqori dozalarda), toksik dozalarda qo'zg'alash, ajitasiya, gallyutsinasiyalar, komatoz holatni chaqiradi. Adashgan nervning tonusini kamaytiradi, bu YuQTT ni (AB ni ahamiyatsiz o'zgarishida) oshishiga va Gis tutamida o'tkazuvchanlikni biroz oshishiga olib keladi. Adashgan nervining dastlabki yuqori tonusida ta'siri kuchliroq ifodalangan. Vena ichiga yuborilganidan keyin maksimal samarasi 2-4 minut o'tgach, peroral qabul qilinganidan keyin (tomchilar ko'rinishida) – 30 minut o'tgach namoyon bo'ladi.

### **YuQTT ga ta'siri**

Vagus nervidan keladigan impulslarni yurakga ta'sirini kamaytiradi. Atrioventrikulyar o'tkazuvchanligini oshiradi; O'YuR vaqtin turg'un asistoliya va elektromexanik dissoziatsiya (holsiz yurak) holatlarda qo'llaniladi. Atropin – vagolitik preparat bo'lib, atrioventrikulyar tugunda o'tkazuvchanlikni kuchaytirib yurak qisqarishlar sonini oshiradi. Asistoliya vaqtin preparatni qo'llash tavsiya qilinmaydi.

### **Qo'llash usuli va dozalari**

Reanimatsiyada bradicardiyan yo'qotish uchun – vena ichiga 0,5–1 mg dan, zarurati bo'lganida 5 minut o'tgach yuborishni takrorlash mumkin. Bolalarga preparat 0,01 mg/kg dozada yuboriladi.

### **Exiyotkorlik bilan ishlatalidi**

Gipertermiya, arterial gipertensiya. Gipertireoz, 40 yoshdan oshganlar (tashxis qilinmagan glaukoma ko'rinishlarining xavfi).

### **Mahsus ko'rsatmalar**

#### ***Homiladorlik va emizish davrida qo'llanishi***

Atropin yo'ldosh to'sig'i orqali o'tadi. Homiladorlik vaqtida atropinni qo'llash xavfsizligi bo'yicha nazoratli klinik tadqiqotlar o'tkazilmagan. Homiladorlik vaqtida yoki bevosita tug'ruqdan oldin preparat vena ichiga yuborilganda homilada taxikardiya rivojlanishi mumkin. Gestoz bilan asoratlangan homiladorlik vaqtida buyurilmaydi, chunki arterial bosimni oshishiga olib kelishi mumkin. Preparatni emizish davrida qo'llash mumkin emas.

### ***Dozani oshirib yuborilishi***

*Sимптомлари.* Og'iz bo'shilig'i va burun-halqum shilliq qavatining quruqligi, yutish va nutqni buzilishi, teri qoplamalarining quruqligi, gipertermiya, midriaz va hokazo («Nojo'ya ta'sirlari» bo'limiga qarang); harakat va nutq qo'zg'alishi, xotirani buzilishi, gallyutsinasiyalar, psixoz.

### ***Chiqarilish shakli***

Dori shakli inyeksiya uchun 0,1% - 1 ml.li eritma shisha ampulalarda.

### **Tarkibi:**

- 1 ml eritma quyidagilarni saqlaydi:

- faol modda: atropin sulfati – 1 mg;
- yordamchi moddalar: xlorid kislotasi, inyeksiya uchun suv.

### LIDOKAIN (Lidocaine).

Lidokain — mahalliy og'riqsizlantiruvchi vosita hisoblanadi, lekin yurakka depressantlik ta'siri tufayli antiaritmik vosita sifatida ham ishlataladi.



#### [Lidokain]

Lidokain eng muhim 1b klassga kiruvchi antiaritmik dori hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich uchun lidokainni qorinchalar aritmiysi vaqtini amidoronni yuborishga qarshi ko'rsatmalar bo'lsa vena ichiga bir laxzada yuborish mumkin. Lidokainni qon aylanish to'xtagan holatlarda defibrillyasiyadan oldin vena ichiga yuborib O'YuR o'tkaziladi va vazopressorlar kiritiladi. 2010 yil Yevropa renimatologlar kengashi xulosasiga ko'ra O'YuR vaqtini atropin qilinishi tavsiya qilinmaydi.

#### Farmakologik xususiyatlari

Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vosita. Shuningdek, yaqqol antiaritmik ta'sirga ega. Asosan natriy oqimining kamayishi va kaliy oqimini ko'payishi natijasida spontan diastolik depolyarizasiya tezligining kamayishi preparatning antiaritmik ta'sir mexanizmida muhim rol o'yynaydi.

Purkinye tolalari va yurak qorinchalar mushaklarida (I B antiaritmik vositalar sinfi) preparat samarali refrakter davrini va ta'sir potensiali davomiyligini qisqartiradi. Shuningdek, preparat qorinchalar fibrillyasiyasi pog'onasini oshiradi. EKG da Q-T masofa qisqarganligi ko'rindi. Miokardni qisqarishi pasaymaydi yoki juda kam darajada pasayadi. Avtonom nerv tizimiga ta'sir etmaydi.

#### Q'o'llanilishi

Antiaritmik vosita sifatida lidokain mono-va politop qorinchalar ekstrasistoliysi va taxikardiyanı davolashda ishlataladi, shu jumladan miokard infarktini o'tkir davrida qorinchalar fibrillyasiyasini to'xtatish uchun va qo'shimcha vosita sifatida yurak defibrillyasiyasida, yurak kateterizasiyasi va angiolardiografiyasida va boshqa shu kabi tashxis muolajalarda ishlataladi.

#### Q'o'llash usuli va dozalari

Antiaritmik vosita sifatida preparat vena ichiga yuboriladi: avval oqimli (3-4 minut davomida) o'rta hisobda 80 mg dozada (4 ml 2% li eritma), so'ngra yuborish to'mchilab davom ettiriladi: minutiga o'rta hisobda 2 mg dan 1 ml da 2 mg saqlovchi eritmadan.

Odatda bunday eritmani olish uchun 6 ml 2% li eritmani natriy xloridining steril fiziologik eritmasi bilan 60 ml ga yetkaziladi. Holatga qarab infuziya 24-30

minut davom etishi mumkin. Bir sutkada yuboriladigan 2 mg/ml li eritmaning umumiy miqdori 1200 ml dan oshmasligi kerak.

Yuborilish to'xtatilganidan so'ng preparatning ta'siri 1/2-1 saat davom etadi.

Shuningdek, avval qon tomir ichiga oqim bilan (sekin, 3-4 minut davomida) 80 mg (4 ml 2% li eritma) yuboriladi va bir vaqtning o'zida mushak ichiga (dumba yoki deltasimon mushak) 400 mg (4 ml 10% li eritma) yuboriladi; so'ngra har 3 soatda mushak ichiga 200-400 mg dan (2-4 ml 10% li eritma) yuborilib turiladi.

**10% li eritma faqat mushak orasiga yuboriladi!**

#### Mahsus ko'rsatmalar

Kuzatilishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarini oldini olish maqsadida, parenteral yuborishga mo'ljallangan qisqa ta'sir etuvchi barbituratlar, tirishish, klonik-tonik tirishishlarni oldini olish uchun benzodiazepin qatori trankvilizatorlari; gipotoniya rivojlangan holda qon vena ichiga yuborish uchun simpatomimetik vositalar; bradikardiyyada vena ichiga yuborish uchun atropin (0,5-1,0 mg) tayyor holda bo'lishi kerak. Doza oshirib yuborilishi hollarida yuqorida qayd etilgan simptomlardan tashqari kollaps va MNT ning susayishi rivojlanishi mumkin. Bunday holatlarda yuqorida sanab o'tilgan preparatlardan tashqari o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi yoki reanimatsiyaning boshqa tadbirlarini o'tkazish kerak bo'ladi.

Sinusli bradikardiya va to'liq bo'lмаган yurak blokadasi bo'lgan bemorlarda preparatni qo'llashdan oldin atropin, izoproterenol yoki elektrik ritmni yurituvchi yordamida yurak ritmini tezlashtirish kerak. Aks holda og'ir aritmiya va to'liq blokada bo'lib qolishi mumkin.

#### Chiqarilish shakli

1% li 5 ml, 10 ml;

2% li 2,5 ml, 10 ml;

10% li 2 ml eritma ampulalarda.


#### Tarkibi:

Fao modda: lidokain gidroxloridi.

Yordamchi moddalar: natriy xloridi, ishqoriy natriy 1 mol/l eritmasi, inyeksiya uchun suv.

Read more <https://medu.uz/instruksiya/lidokain-2/>

## KALSIY XLORID (Calcii chloridum)



[Xlorid kalsiy]

**Klinik-farmakologik guruh:** organizmdagi kalsiy yetishmovchiligini qoplaydigan dori.

**Farmakoterapeutik guruhi:** Kalsiy-fosfor almashinuvini regulyatori

**Ta'siri**

Kalsiy barqaror yurak faoliyatini, nerv impulslarini uzatish jarayonlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan makroelementdir. Mushak distrofiyasi, miyasteniyada mushaklarning qisqarishini yaxshilaydi, qon tomirlarining o'tkazuvchanligini yaxshilaydi va antiallergik ta'sirga ega. Vena ichiga yuborilganda kalsiy simpatik asab tizimining qo'zg'alishiga va buyrak usti bezlari tomonidan adrenalinning ko'payishiga olib keladi; diuretik ta'sirga ham ega. Preparat giperkalemiya, gipermagnezemiya, gipokalsemiya va kalsiy kanali blokatorlari dozasini oshirib yuborish holatlarda tavsiya etiladi. Hujayra ichidagi kalsiy konsentrasiyasi odadtagidan yuqori bo'lgan bemorlar uchun kalsiy zararli bo'lishi mumkin. Gemodializ vaqtida bemorlarda yurak to'xtashi giperkalemiya natijasida yuzaga keladi, shuning uchun qonda kalyi miqdorini aniqlash imkon bo'lmaganda kalsiyini yuborish tavsiya qilinadi. Kalsiyini ehtiyojkorlik bilan qo'llash lozim, chunki u yurak glikozidlarning toksikligini oshiradi, bu yurakni to'xtatishga olib kelishi mumkin.

### **Farmakokinetikasi**

Qonda kalsiy ionlangan va bog'langan holatda bo'ladi. Plazmada kalsiying taxminan 45% oqsillar bilan birikkan bo'ladi. Fiziologik faollikni ionlashtirilgan kalsiylar amalga oshiradi. Kalsiy suyak to'qimasida to'planadi. Taxminan 20% buyraklar, qolganlari (80%) - ichak orqali chiqariladi. Filtratsiya orqali chiqariladigan kalsiying 95% Genle halqasining ko'tariluvchi segmentida, shuningdek proksimal va distal buyrak kanalchalarida rezorbsiyaga uchraydi.

### **Ko'rsatmalari**

Mushaklarning qisqarishi mexanizmlarini ta'minlash. Shuningdek, u nerv impulsining sinaptik uzatilishidagi asosiy bo'g'inlardan biridir. Yuqori dozalarda u reanimatsiyadan keyin BMning tiklanishini buzilishi va miokard ishemiyasini keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun ko'rsatmalari quyidagilar:

- Gipokalsemiya (shu jumladan gipokalsemik talvasalarda, gipoparatireoz holatlari), giperkalemiya, magniy ionining qonda oshishida (kompleks terapiyaning bir qismi sifatida).
- Kalsiy kanali blokatorlarining dozasining haddan tashqari oshirganda.

### **Qo'llash usuli va dozalari**

Vena ichiga (v/i) buyuriladi (kalsiy xlорidining 100 mg/ml eritmasi 5-10-15 ml dan). Vena ichiga oqim bilan asta-sekin yuboring! (5 ml 100 mg/ml eritma, 3-5 minut davomida). Preparatning 5-10 ml 100 mg/ml eritmasi 100-200 ml natriy xlорidining izotonik yoki 5% li glyukoza eritmasida suyultirib, venaga tomchilab minutiga 6 tomchidan yuboriladi.

### **Noj'o ya ta'sirlari**

V/i yuborilganida bradikardiya, tez yuborilganda yurak qorinchalarini fibrillyatsiyasi paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, dastlab og'iz bo'shilg'ida, so'ngra butun tanada qizish hissi paydo bo'ladi.

### **Qo'llash mumkin bo'limgan holatlar**

Trombozlarga moyillik, yaqqol namoyon bo'lgan ateroskleroz, qonda kalsiy miqdorini yuqoriligi, hamda teri osti (t/o) yoki mushak ichiga (m/i) yuborish (chunki u to'qimalarning kuchli qo'zg'alishiga va nekroziga olib keladi).

Preparat komponentlariga yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

**Dorilarning o'zaro ta'siri**

Bitta shpristda boshqa dori vositalari bilan yuborilmasini!

**Mahsus ko'rsatmalar**

M/o ya T/o yuborish aslo mumkin emas. Kalsiy xlorid teri ostiga yoki mushak to'qimalariga tushganda, to'qimalarda nekroz chaqiradi. Agar inyeksiya joyida og'riq yoki giperemiya paydo bo'lsa, preparatni yuborishni to'xtatish va teri ostiga tushgan eritmani neytrallash tadbirini bajarish kerak. Davolash qondagi kalsiy konsentrasiyasi nazorati ostida amalga oshiriladi.

**Chiqarilish shakli**

Ampulalarda 10% -10 ml, 100 mg/ml eritma, 5-10 ml dan

Tarkibi: *faol modda*: kalsiy xloridi – 100 mg;

*yordamchi moddalar*: 0,1 M xlorid kislotosi eritmasi, inyeksiya uchun suv.

---

**NATRIY GIDROKARBONAT (Natrii hydrocorbonas)**

Hozirda, agar yurak to'xtashi giperkalemiya, og'ir metabolik atsidoz tufayli yuzaga kelsa, natriy bikarbonat tavsiya etilmaydi. Natriy gidrokarbonat, SNO fonida agar yurak to'xtashi ( $> 10$  minut) dan oshgan bo'lsa, tavsija etiladi. Natriy bikarbonat qo'llanilganda, infuzyadan oldin va har 50 mEkv dozadan keyin (bolalar uchun 1-2 mEkv / kg) qon zardobidagi bikarbonat konsentrasiyasini yoki asosning yetishmasligini nazorat qilib borish lozim.



[Natriya bikarbonat]

**Preparatning savdo nomi:** Natriy hidrokarbonat

**Farmakoterapevtik guruhi:** tuzli eritmalar.

**Farmakologik xususiyatlari**

Nonni ishqoriy holatini tiklash va metabolik atsidozni korreksiya qiluvchi vosita. Natriy hidrokarbonati dissoziatsiyaga uchraganda hidrokarbonat-ion ajralib chiqadi, u vodorod bilan bikirib, karbonat kislotosasini hosil qiladi, so'ngra karbonat kislotosi suv va nafas bilan chiqariluvchi karbon angidridi gaziga parchalanadi. Natijada qondagi rN ishqoriy tomonga siljiydi, qonning buferli hajmi oshadi.

Preparat shuningdek natriy va xlor ionlarini organizmdan chiqarilishini oshiradi, osmotik diurezni kuchaytiradi, siydikni ishqoriylashtirib, siydik chiqarish tizimida siydik kislotosasini cho'kmaga tushib qolishini oldini oladi. Hidrokarbonat ionlari hujayralar ichiga o'tmaydi.

### **Qo'llanilishi**

Turli etiologiyali intoksikasiyalar, operatsiyadan keyingi davrni og'ir kechishi, katta bo'lgan kuyishlar, shok, diabetik koma, uzoq davom etuvchi diareya, to'xtovsiz quşish, o'tkir ko'p qon yo'qotishlar, jigar va buyraklarning og'ir shikastlanishi, davomli isitmali holatlar, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning og'ir gipoksiya kabi turli kasallikklardagi kompensatsiyalarinmagan metabolik atsidoz. Qonning pH 7,2 dan pasayishi (norma 7,37-7,42) mutloq ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Uzoq davom etgan O'YuR dan keyin, metabolik atsidoz yaqqol kuzatilganda (pH 7,1 dan tushganda), giperkalemiya kuzatilganda qo'llaniladi.

### **Qo'llash usuli va dozalari**

Yuborishdan oldin eritmani 36-38°C gacha isitiladi. Kattalarga vena ichiga (v/i) yoki rektal tomchilab yuborish buyuriladi. Atsidoz holatining darajasiga qarab, preparat suyultirilmasdan yoki 5% li glyukoza eritmasi bilan (1:1 nisbatda) suyultirib buyuriladi. Kattalarga v/i minutiga taxminan 60 tomchi tezlikda sutkada 200 ml gacha ikki marta qabul qilishga bo'lib yoki tomchili ho'qna ko'rinishida 50-100 ml yuboriladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga v/i tana vazniga 4-5 ml/kg dozada, boshqa yoshdag'i bolalarga tana vazniga- 5-7 ml/kg dozada yuboriladi. Kattalar uchun preparatni yuqori dozasi ~ sutkada 315 ml ni tashkil qiladi.

### **Nojo'ya ta'sirlari**

Ko'ngil aynishi, quşish, anoreksiya, qorin og'rig'i, bosh og'rig'i, bezovtalik, arterial gipertensiya.

### **Qo'llash mumkin bo'lмаган holatlar**

Metabolik yoki respirator alkaloz, gipokaliyemiya, gipernatriyemiyada qo'llash mumkin emas.

### **Dorilarning o'zaro ta'siri**

Natriy gidrokarbonati eritmasida kislotali moddalarni (askorbin, nikotin va boshqa kislotalarni), alkoloidlarni (atropin, apomorfin, kofein, teobromin, papaverin va b.), yurak glikozidlari, kalsiy, magniy, og'ir metal (temir, mis, rux) tuzlarida eritish mumkin emas, chunki cho'kma tushishi yoki organik birikmalarning gidrolizi yuz berishi mumkin. Fosfat saqlovchi eritmalar bilan ham aralashtirish mumkin emas. Rezerpinning antigipertenziv samarasini kuchaytirishi mumkin.

### **Mahsus ko'rsatmalar**

Qonning kislota-ishqor holatini nazorat qilish kerak. Yurak yoki buyraklarning yondosh kasalliklari bo'lgan bemorlarda yurak yetishmovchiligi va shishlar rivojlanishi mumkin. Preparatni bolalar ololmaydigan joyda saqlansin va yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasini.

### **Chiqarilish shakli**

Infuziya uchun 4% li eritma, shisha butilkalarda yoki polietilen flakonlarda 100 ml, 200 ml, 250 ml, 400 ml yoki 500 ml dan.

### **Tarkibi: 100 ml eritma quyidagilarni saqlaydi:**

*faol modda:* natriy gidrokarbonati – 4 g;

*yordamchi moddalar:* etilendiamintetrasirka kislotasining dinatriyli tuzi, inyeksiya uchun suv.

**Ta'rifi:** tiniq, rangsiz suyuqlik.

## O'MROV OSTI VENASINI KATESTERLASH


**Yuqori vena kava kateterizasiyasi.** *vena cava superior* ni-



"o'mrov osti"  
orqali amalga oshiriladi.




yoki "o'mrov usti"



*"Vena cava superior"*

aniq topografik va anatomik belgilari bilan doimiy joylashuvi bilan ajralib turadi. Vena, mushaklar va **fassiya** bilan yaqin aloqasi tufayli, doimiy tonusga ega va hatto og'ir gipovolemiya holatida ham puchchayib qolmaydi. Katta yoshdagilarda tomirning diametri 12-25 mm. ga tengdir. Bu tomirdagi qon oqimining tezligi trombozning ham oldini oladi.

## SELLINGER USULIDA O'MROV OSTI VENASINI KATESTERLASH



### Ko'rsatmalar:

- MVB ni o'lhash va monitoring qilish.
- Parenteral oziqlantirish.
- Dori preparatlarini uzoq infuziya qilishlarda.
- Endokardial **elektrokardiostimulyasiya** qilish vaqtida.
- Periferik tomirlarni punksiya qilishda qiyinchiliklarda.

### Qarshi ko'rsatmalar:


- Venalar **trombozi**.
- Qon ivuvchanligini buzilishlarida.

- Punksiya joyida teri va teri osti to'qimalarining yiringli infeksiyasida.

**Anesteziya:**

Ko'pincha 0,5% novokain eritmasi bilan teri anesteziya qilinadi. Bolalarda bu usul umumiy og'riqsizlantrish (narkoz) ostida amalga oshiriladi. Niqobli florotan narkozi bolalarda ko'proq qo'llaniladi.

**Asbob-uskunalar:**




Rasm 1. Kateterlashda ishlataladigan barcha asbob-uskunalar.

1-kateter, 2-yo'naltirgich, 3-skalpel, 4-punksiyalovchi igna, 5-kengaytirgich. 6-shprist,

- 18-20 sm uzunlikdagi tashqi diametri 0,6 mm; 1,0 mm; 1,4 mm gacha bo'lgan bir martalik plastik kateterlar to'plami. Kateterda kanyulya "(konyula)"

**Канюла**



**Инекцион игна**



va tiqin "(zaglushka)"



bo'lishi kerak;

Kateterning ichki diametriga mos bo'lgan 50 sm uzunlikdagi va qalinlikdagi pollamiddan



ishlangan kapron yo'naltirgich ip (**leska provodnik**)  
ignalar 12-15 sm uzunlikda, ichki diametri kateterning tashqi diametriga teng, **igna**



uchi  $35^{\circ}$  burchak ostida o'tkir, xanjar shaklida kesilgan. Kesilgan yuza igna uchida  $10-15^{\circ}$  yanada o'tkir kesilgan bo'ladi. Bu shakldagi ignalar terini, bog'lamlarni, tomirni osonlik bilan tesha oladi va igna ichiga yog' va boshqa

Punksion

to'qimalarni kirib qolishini oldini oladi. Igna kanyulasida ignaning kesma yuzasini punksiya qilish vaqtidaga holatini bilish uchun ignada belgi (**nasechka**)



bo'lishi kerak. Igna shprist bilan **germetik** ulanish uchun kanyulga ega bo'lishi kerak;

- Dilatator;
- Mahkamlagich (fiksator);
- Luyer Lok tizinlari;
- 10 ml hajmli shprist;
- Teri inyeksiyasi uchun inyeksiya ignalari;
- O'tkir skalpel, qaychi, igna ushlagichi, pinset, jarrohlik ignalari, ipak ip, yopishtiruvchi plaster. Barcha materiallar va asboblar steril bo'lishi kerak.

#### Holati:



Rasm 2. Bemorning to'g'ri holati.

Trendelenburg holatida chalqancha yotish. Kuraklar orasiga ko'krak umurtqasining proyeksiyasida bo'ylab 2-rasmda ko'rsatilganidek, 10 sm balandlikda valik qo'yiladi. Boshi punksiyaga qarama-qarshi tomonga burilgan bo'lishi kerak. Havo **emboliyasining** oldini olish uchun stolning oyoq uchini 15-20° burchak ostida ko'tariladi.


#### Texnikasi:

Muolaja shifokor tomonidan barcha aseptika qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Qo'llarni tozalab, niqob, steril qo'lqop kiyish lozim. Punksiya joyidagi teriga yodning spirtli eritmasi bilan keng ishlov beriladi, soha steril sochiq bilan qoplanadi.

O'mrov osti venasi kateterizasiyasi ikki bosqichdan iborat: venani punksiya qilish va vena ichiga kateter kiritish. O'mrov osti venasini (v. Subclavia) ikki usulda o'mrov ostidan va o'mrov suyagi ustidan punksiya qilish mumkin. Amaliyotda o'ng tomonдан o'mrov ostidan venani punsiya qilish maqsadga muvofiqdir, chunki chap tomonдан venani punksiya qilishda v. jugularis interna bilan v. Subclavia larining qo'shilish joyida venoz burchakka oqib o'tadigan **ko'krak limfa yo'lining**



shikastlab qo'yish xavfi mayjuddir. Bemorlarning ko'krak qafasi tuzilishiga va yoshiga qarab punsiyani o'mrov osti sohasini turli nuqtalardan amalga oshirish mumkin: — Giles; — Aubaniac; — Wilson nuqtalari (Rasm 3). Aubaniaka nuqtasi o'mrovning ichki va o'rta uchligining birlashgan nuqtasidan o'mrovdan 1 sm pastda joylashgan. Vilson nuqtasi o'mrov suyagining o'rta uchligining o'rtasidan o'mrov suyagidan 1 sm pastda. Giles nuqtasi o'mrov suyagining ichki uchligining o'rtasidan o'mrov suyagidan 1 sm pastda. Ko'pincha o'mrov osti venasi Aubaniak nuqtasidan punksiya qilinib kateter qo'yiladi. Semiz bemorlarda Aubaniak nuqtasi eng qulay hisoblanadi. Kichkina bolalarda Wilson nuqtasidan punksiya qilish maqsadga muvofiqdir.



Rasm 3. O'mrov osti venasining punksiya qilish nuqtalari. Punsiya qilish nuqtalarining anatomik yo'nalishlari: 1 — Giles; 2 - Aubaniac; 3 - Wilson.

1-Qadam. Punksiya nuqtasini belgilab oling (yuqoriga qarang).



Rasm 4. Punksiya nuqtasini paypaslab topish.

**2-Qadam.** Teri va teri osti to'qimasini 1% lidokain eritmasi bilan infiltratsiyali anesteziya qiling. Anesteziyadan to'liq ta'sir qilgach shpristga punksiya ignasini o'matib unga novokainli eritmani torting. Punksiya joyini avval skalpel uchi yoki punksiya ignasi bilan teshib oling.



Rasm 5. Punksiya sohasini mahalliy anesteziya qilish.

**3-Qadam.** Shpristning porshenini sekin tortib, qon kelguncha punksiya ignasini kiritib boring. Igna uchini yuqoriga (iyak tomonga) va ichkariga qaratib, uchini o'mrov suyagining orqa yuzasi bo'ylab siljtitib boring. Ignani oldinga siljtitib, shpristning porshenini biroz tortib-itarib boring. (ignada to'qima qoldiqlari qolmasligi uchun). Shpristda qonning ko'rinishi igna venaga tushganligidan darak beradi.



Rasm 6. Venani punksiya qilish.

**4-Qadam.** Venadan qon shpristga erkin oqib chiqsa boshlagandan so'ng, shpristni ignadan ajratib oling. Ignani shpristga ulanadigan joyidan barmoq bilan bosib turib tomirni Seldinger usuli bo'yicha kateterlashni o'tkazing.



Rasm 7. Kateter kiritishning boshlang'ich bosqichi.

**5-Qadam.** Yo'naltiruvchi yumshoq leskani igna orqali kiriting. Buning uchun igna ichidan leskani kiritish lozimdir. Leskani kiritish vaqtqi qiyinchilik paydo bo'lsa ignani o'z o'qi atrofida biroz aylantirib yo'nalishini o'zgartiring. Leskani majburan kiritish mumkin emas.



Rasm 8. Ignaga orqali leska yo'naltirgich kiritish.

**6-Qadam.** Leska igna ichidan yetarlicha o'tgach leskani ushlab turib ignani chiqarib oling. Ignaga chiqarilib olingach vena ichida leska qoladi.



Rasm 9. Leska yo'naltirgichni venada qoldirish.


**7-Qadam.** Leska atrofidan terida skalpel uchi bilan biroz tiling.



Rasm 10. Terini (tilish) kengaytirish.

**8-Qadam.** Leska orqali kateter yo'lini kengaytirish maqsadida mahsus «kengaytirgich»ni

(dilatator) kiritting.



Rasm 11. Punksiya joyini kengaytirish.

**9-Qadam.** Teri va teri osti to'qimasida «tunel» hosil qilingach leskani ushlab turib «kengaytirgich»ni olib tashlang.



Rasm 12. Dilatatorni chiqarib olish.

**10-Qadam.** Markaziy venoz kateterni yo'naltiruvchi leska orqali kiriting. Leskani ushlab turgan holda kateterni aylanma harakatlari bilan vena ichiga 10-15 sm. uzunlikda kiritib boring.




Rasm 13. Kateterni yo'naltirgich (leska) orqali kiritish.

**11-Qadam.** Leskani chiqarib olib tashlang. Kateterning to'g'ri joylashishini tekshiring, unga shpristni ulab porshenini sekinlik bilan tortib ko'ring. Kateter to'g'ri venada bo'lsa, qon shpristga erkin kiradi.



Rasm 14. Yo'naltirgichni kateterdan chiqarib olish.

**12-Qadam.** Kateterning barcha kanallaridan qonni yuvib tashlang.



Rasm 15. Kateterni tozalash.


**13-Qadam.** Kateterning barcha kanallarini steril fiziologik eritma bilan yuvib tashlang va ignani vintli tinqin

bilan yoping. Kateterni geparinli eritmasi bilan to'ldiring - 5 ml izotonik natriy xlorid eritmasi uchun 1000 YeD hisobidan geparin qo'shilib tayyorlanadi. Kateter tigin bilan yopiladi.



Rasm 16. Kateterni geparinli eritma bilan to'ldirish.

**14-Qadam.** Oq va ko'k rangli teri fiksatori teriga tikib qo'ying. Kateter tomirda qoldiriladi va teriga tikish bilan mahkamlanadi.



Rasm 17. Kateterni teriga mahkamlash.

#### Asoratlari va ularni bartaraf etish:

- Arteriyani teshib qo'yishlarda:

1. Darhol ignani olib tashlang va barmog'ingiz bilan 5 daqiqa davomida punksiya sohasini bosib turing.

2. Gemotoraksni istisno qilish uchun gemodinamikani va o'pkani eshitib ko'ring.

- Havo emboliyasida:

1. Kateter orqali havoni aspiratsiya qilib olib tashlashga harakat qiling.

2. Gemodinamikada o'zgarishlar paydo bo'lsa (yurak to'xtashi) darhol reanimatsiyani boshlang va maslahat uchun torakal jarrohni chaqiring.

3. Gemodinamikasi barqaror bo'lgan taqdirda bemorni chap tomonga og'dirib, o'ng qorinchada havoni "tutib turish" uchun Trendelenburg holatiga o'tkazing. Ushbu holatda ko'krak qafasining rentgenologik tekshiruvida havoni to'planganini ko'rish mumkin.

4. Havo asta-sekin so'rilib ketadi.

- Pnevmotoraksda:

1. Dekompressiya uchun o'rta o'mrov chizig'idan ikkinchi qovurg'alararo bo'shlidjan yo'g'on 16 kalibrli igna kiritib havoni chiqarib tashlang.

2. Agar pnevmotoraks < 10% bo'lsa, 100% kislород ingalatsiyasi va har 4 soatda rentgenologik nazorat.

3. Agar pnevmotoraks > 10% bo'lsa, plevra bo'shlig'ini drenaj qiling.

- Kateterning noto'g'ri joylashishi:

1. O'ng bo'lmaчhaga tushishi (O'B) yoki o'ng qorinchada (O'Q) vena devoriga tiralib qolganda - kateterni biroz torting.

- Yurak ritmining buzilishi:

1. Bo'lmaчhalar yoki qorincha aritmiyalari odatda kateterning chuqurroq kiritilganda kuzatiladi, kateterni biroz tortilganda bu holat bartaraf bo'ladi.

2. Aritmiyalar davom etaversa medikamentoz davolanishni talab qiladi.

## DORI VOSITALARINI SUYAK ICHIGA KIRITISH USULI

Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda dori va infuzion terapiyani o'tkazish intensiv terapiyaning ajralmas qismi bo'lib zudlik bilan shoshilinch yordamni amalga oshirish kishini taqdirlini belgilaydi.

Biroq, amaliyotda shuni ko'rsatdiki tez yordam brigadalari, ambulatoriya va tuman shifokorlari uchun an'anaviy periferik tomir ichiga dori vositalarini kiritish ko'pincha qiyin yoki hatto texnik jihatdan imkonsiz bo'lishi mumkin, (ayniqsqa klinik o'llim, shok, talvasa sindromlarida, og'ir kuyishlar va bolalarda).

Dori preparatlarni periferik tomirlar orqali kiritish kattalar uchun 10 daqiqadan ko'proq vaqt talab qiladi. Pediatriya amaliyotda esa periferik tomirlar punksiyasi yanada qiyinroqdir.

Markaziy venalarni kateterizasiya qilish reanimatolog mutaxassisini bo'lgan brigadalarininga vakolati bo'lib hisoblanadi.

Shoshilinch tibbiyotda markaziy va periferik venalar kateterizasiyasiga muqobil usul bo'lib suyaklar ichi punksiyasi va kateterizasiyasiga qabul qilingan. Bu usulni amalga oshirish uchun 1 daqiqagina vaqtini talab etadi.

### Ko'rsatmalar:

- Chaqaloqlar va yosh bolalarda kritik holatlarda.
- Katta yoshli bemorlarda va vena ichiga kateter o'rnatishda qiyinchilik tug'ilganda, tomir ichiga dori yuborishda **kateterizasiyaga** o'rinishdan oldin yoki parallel ravishda (**qaysi kateterni birinchi**) tamoyiliga muvofiq qo'llaniladi.
- Bemorlarni va jabrlanganlarni ommaviy qabul qilish vaqtida, shuningdek, tabby ofatlar, terroristik hujumlar holatlarda.
- Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining o'tkir yetishmovchiliklarida.
- Dori-darmonlarni yuborish uchun periferik kateter o'rnatishga bo'lgan ko'plab urinishlarning samarasizligida.
- Zudlik bilan traxeyani intubatsiya qilish lozim bo'lganda **sedatsiya** maqsadida.
- Favqulodda vaziyatlarda.

### Qarshi ko'rsatmalar:


- Punksiya qilishga mo'ljallangan suyakning sinishi. (boshqa oyoqda qo'llang).
- **Osteogenet** jarayoni tugallanmagan yoshidagi bemorlar, og'ir osteoporoz, selliyulit yoki ineksiya joyida infeksiya belgilarini bo'lishi (boshqa oyoqqa qo'llang).
- Qo'l-oyoqlarning tug'ma nuqsonlarida.
- Jabrlanuvchiga shokka qarshi **pnevmatik kostyum** kiydirilgan hollarda.
- Inyeksiya joyida yallig'lanish jarayoni bo'lganda.
- Punksiya joyida haddan tashqari yog' to'qimalari ko'pligida.

### Holati:



### Suyak ichi anatomiysi.

Suyak iligining bo'shligi markaziq qon aylanishi bilan yuzlab mayda tomirlar orqali bog'langan. Shuni hisobga olgan holda har qanday dori va infuzion terapiya preparatlarini suyak ichiga kiritish mumkin. Dori preparatlarining miqdori, dozasi, konsentrasiyasi vena ichi usuli bilan bir xildir.



Rasm 1. Trabekula-1. Kompakt modda-2. Osteon-3. Periostoma-4. Gavers kanali-5. Folkman-kanali-6.

### Asboblar:


1. Bone Injection Gun (**B.I.G.**) — ignani (konyula) prujina yordamida suyakka otib kiritadigan uskuna.
2. EZ-IO — ignani (konyula) elektr drel yordamida parmalab kiritadigan uskuna.



Rasm 2. BIG Troakori (qo'l yordamida ishlatalidi). Troakorlar orasidagi yagona farqlari ularning uzunligida va rangidadir.



Rasm 3. EZ- IO parmalagichi (drel).



Rasm 4. EZ- IO punktsion ignalar to'plami.

Kattalar uchun ignalar o'Ichami - 15 G .

Punksiya joyi	Ignani kiritish chuqurligi (sm)
Katta boldir suyagi	2,5
Yelka suyagi	2,5
Bilak suyagi	1,5

Bolalar uchun ignalar o'Ichami - 18 G



Punksiya joyi- Katta boldir suyagi

Bolaning yoshi (yil)	Ignani kiritish chuqurligi (sm)
0-3	0,5-0,7
3-6	1,0-1,5
6-12	1,5

### TANANING PUNKSIYA NUQTALARI

#### KATTALARDA SUYAK ICHI INFUZIYASI USULI



(A) punksiya nuqtasini topish (90% dan ko'p hollarda katta boldir suyagi)



Rasm 5. Katta boldir suyagi bo'trig'idan 2 sm ichkariga (medial) va 1 sm yuqoriga.

#### BOLALARDA SUYAK ICHI INFUZIYASI USULI



(B) punksiya nuqtasini topish (katta boldir suyagida)



Rasm 6. Katta boldir suyagi bo'trig'idan 1-2 sm ichkariga (medial) va 1-2 sm pastga.

### KATTALARDA (BIG) Troakori yordamida suyak ichi infuziyasi texnikasi.

(S) punksiya nuqtasini topish (yelka suyagi boshchasiда)



Rasm 7. Qo'l tirsakdan bukilgan, tirsagi biroz orqaga, kafti qorin qismiga qo'yilgan. Akromion va kurakning tumshuqsimon o'simtasi orasidagi chiziqning o'rtasidan pastga 2 barmoq va old tomondan bir barmoq.

### KATTALARDA (BIG) Troakori yordamida suyak ichi infuziyasi texnikasi.


(D) punksiya nuqtasini topish (bilak suyagi)



Rasm 8. Pulsni aniqlaydigan nuqtadan qarama-qarshi tomoni.


#### Texnikasi:

**1- Qadam.** Punksiya qilishga tayyorgarlik. (terini antisepzik bilan ishlov berish, troakarni suyakka mahkam bosib, himoya tizinini tortib oling)




Rasm 1. Punksiya qilishga tayyorgarlik bosqichi.

**2- Qadam.** Punksiya qilish (troakar ni suyakka mahkam bosib ushlab, orqa qismidan bosing, so'ng ignani suyakda qoldirib, ehtiyyotkorlik bilan troakarni chiqarib oling).




Rasm 2. Punksiya qilish bosqichi.


**3- Qadam.** Infuziya uchun troakar



ignasini tayyorlash uchun igna mandren




ini olib tashlang, ignani teriga mahsus fiksatori bilan mahkamlang.




Rasm 3. Ignani fiksasiya qilish bosqichi.

**4- Qadam.** Ignaning to'g'ri turganligini tekshirish uchun bo'sh shprist yordamida, oz miqdorda suyak iligini aspiratsiya qiling, so'ngra boshqa shprist yordamida 10-20 ml fiziologik eritma yuboring.



Rasm 4. Ignaning to'g'ri turganligini tekshirish.

**5- Qadam.** Dori vositalarini yuborish (yoki tomir ichiga infuzion sistema orali yoki shprist bilan odatdag'i vena ichiga dori yuborishdek kiriting).



Rasm 5. Infuziya o'tkazish.

**Diqqat!** Kattalarda bosim ostida (shpristda) suyak ichiga infuziyani o'tkazishda 100 ml / min. tezlikda; Bolalarda 200 ml / min gacha yuboring.

#### **Kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar (~ 1%)**

##### **Erta asoratlar**

- Suyakning teshib o'tishi, suyakni sinishi;
- Infuzion paytida troakor ignasining siljishi;
- Dorilarning teri ostiga yoki suyak pardaga orasiga ketishi, gematoma, kompartment sindromi;

- Epifiz tog'ayi shikastlanishi;
- Infeksiya tushishi (kamroq 0,6%);
- Emboliya

##### **Periferik vena yo'llarini asoratlari:**

##### **Kechki asoratlar**

- Tromboflebit
- Sellyulit

## PERIFERIK VENALAR KATETERIZATSIYASI

**Periferik venalarni kateterlash** – uzoq vaqt davomida infuzin-transfuzion terapiya va h.k. o'tkazish maqsadida vena tomirlarga mahsus kateterni kiritish usulidir.

Infuzion konyulalarning (kateter) keng qo'llanilishi, oddiy metall igna yordamida infuzion terapiyaning odatiy usuliga nisbatan afzallikkleri bilan izohlanadi - kateter tomirdan chiqib ketmaydi va uni teshib qo'ymaydi, bu infiltrasiya yoki gematomaning oldini oladi.

### **Periferik venoz kateterni (PVK) o'rnatish uchun ko'rsatmalar.**

- Davolash va diagnostik maqsadlarda dori vositalari yoki eritmalarni ko'p martalab qo'llash;

- Uzoq vaqt infuzion terapiya o'tkazish;
- Qon tarkibiy qismlarini quyish;
- Favqulodda vaziyatlarda tomirlarga ehtiyojni ta'minlash;
- Suv va elektrolitlar muvozanatini tiklash.
- Dori-darmonlarni og'iz orqali yuborish mumkin bo'limgan hollarda tomir ichiga yuborish.
- Regidratatsiya o'tkazish.
- Parenteral oziqlantirish.
- Klinik tekshirishlar uchun qon tahlillarini qayta-qayta olishlarda.
- Invaziv qon bosimi monitoringi o'tkazishlarda.
- Anesteziologik jarayonda (narkoz, regionar anesteziya).

### **Qo'llash mumkin bo'limgan holatlар:**

Periferik venoz kateterizasiyaga qarshi ko'rsatmalar yo'q.

Kateterizasiya mumkin, lekin markaziy venalar kateterizasiyasi uchun ko'rsatmalar:


- qon tomir devorining ta'sirlovchi xususiyati ega eritmalar va preparatlarni kiritish (masalan, yuqori osmolyarlikka ega eritmalar);
- katta hajmdagi qon va uning tarkibiy qismlarini quyish;
- tez infuziyaga ehtiyoj (200 ml / min. dan yuqori tezlikda);
- paypaslaganda vena kattik, zich bulsa, vena trombozlangan yoki sklerozlangan holatlarda;
- venalar avval kateterlangan holatlarda;

### **2. Periferik venani kateterizasiya qilish uchun boshqa joy tanlashni talab qiluvchi ko'rsatmalar:**

- qo'lning venasi jgut qo'llanilgandan keyin ham ko'rinnmaydi va paypaslanmaganda;
- tavsiya etilgan joyida to'qimalarning yallig'lanish holatlardida.

### **Anatomiya.**


**Qo'l** venalari: kubital chuqurchaning venalaridan ko'proq punksiya qilinadiganlariga - medial, lateral va o'tish (ular orasida), shuningdek, qo'l, bilak tomirlari kiradi. Ushbu tomirlar vizual aniq ko'rindi va paypaslanadi.



Rasm 1. Bilakning vena punksiyasi uchun mumkin bo’lgan venalar.

#### Kaft tomirlari:

- Barmoqlarning tashqi yuza tomirlari.
- Metakarpal tomirlar.
- Barmoqlarning tashqi yuza venoz chigali.



Rasm 2. Kaftning vena punksiyasi uchun mumkin bo’lgan venalar.

Oyoq tomirlarining punksiya va kateterizasiyasini asosan qo’lning venalari noanik holatlarda, markaziy venalarni kateterizasiya qilishning imkonii bo’lmaganda yagona tanlov usuli sifatida qo’llaniladi.

†Chaqaloqlarda asosan boshning yuzaki ko’rinarli tomirlarini punksiya va kateterizasiya qilinadi.

#### Punksiya joyini tanlash.

Kateterizasiya joyini tanlashda bemor venalarini anatomik xususiyatlarini hisobga olgan holda punksiya uchun qulay va tomirning kateterizasiya uchun mosligini hisobga olish kerak.

Kateterni o’rnatish uchun eng mos tomirlar va zonalar (qo’l kaftining orqa tomoni, bilakning ichki yuzasi).

#### Punksiya uchun tomirni tanlashdagи xususiyatlar va takliflar:

- Yaxshi ko’rinadigan va kollaterallari yaxshi rivojlangan venalar.
- Qulay bo’lgan qo’l (o’naqaylar uchun – chap qo’l, chapaqaylar uchun – o’ng qo’l).
- Avval distal tomirlardan foydalaning.

- Yumshoq va elastik tomirlardan foydalaning.
- Jarrohlilik muolajasidan qarama-qarshi tomondagi tomirlar foydalaning.
- Diametri katta tomirlardan foydalaning.
- Kateter diametriga mos keladigan venadan foydalaning.

**Quyidagi tomirlar kateterlash uchun yaroqsiz deb hisoblanadi:**


- Oyoqlarning vena tomirlari.
- Oyoq-ko'llarining egilish joylaridagi venalar.
- Ilgari kateterlangan vena tomirlari.
- Arteriyalarga yaqin tomirlar.
- Qo'shiluvchi tirsak venasi (Vena mediana cubiti).
- Qo'llarning kaft yuzasining tomirlari.
- Jarohati bor qo'l venalari.
- Mo'rt va sklerozga uchragan tomirlar.
- Terining shikastlangan joyidagi venalar.
- Chuqur joylashgan tomirlar.

**Kateterning turi va o'lchamini tanlash.**

Kateterni tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozim:

- tomirning diametri,
- eritmaning yuborish tezligi,
- venada kateterning uzoq turish vaqtisi.
- infuzion eritmaning xossalari.

Esingizda tursin kateter hyech qachon venani to'liq egallamasligi kerak.



**TO'G'RI                            NOTO'G'RI**

Rasm 3. Kateterning venada turishi.

**Asbob-uskunalar:**

Periferik venalarni kateterizasiya qilish uchun standart to'plam:



Rasm 4. Kateterlash uchun asbob-uskunalar to'plami.

1. Bir necha o'lchamdag'i periferik kateterlar;
2. Jgut (rezinali bog'ich);
3. Qo'l tagiga qo'yish uchun yostiqcha;
4. Yopishqoq tibbiy plastir (leykoplastir);
5. Steril qo'lqoplar;
6. Steril paxta salfetkalar;
7. Steril idish (lotok);
8. Yopishqoq fiksator;
9. Qo'llarni ishlovi uchun antiseptik;
  - Bir martali ishlatiladigan sochiq (jgut ostiga);
  - 10 ml geparinlangan eritma bilan shprist (1:100);
  - Chiqindilar uchun idish.

**Periferik venoz kateter orqali infuzion terapiya o'tkazishning afzalliklari:**

- ishonchli usul,
- tibbiyot xodimlarining vaqtini tejash,
- foydalanish qulayligi,
- 3-4 kun davomida infuzion terapiya o'tkazish mumkinligi.

**Kateterlar (konyulalar) quyidagicha farqlanadi:**

- Rangi bilan.
- O'lchamlari bilan.
- Suyuklikning o'tkazishi bilan.
- Foydalanish sohasi bilan.

**Quyidagi kateter turlari majud:**

- Qo'shimcha porti bo'limgan stilet ignasiga kiydirilgan kateterlar. Kateter venaga tushgach stiletdan kateterni (siljitiб) ajratib venaga kiritiladi.
- Qo'shimcha portga ega bo'lgan kateterlar, qo'shimcha portlar uni ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi, parvarish qilishni osonlashtiradi va shuning uchun uni ishlatish muddatini uzaytiradi.

**Qo'shimcha portli kateter.** A - portli periferik vena ichiga kateter.



**Portsiz kateter.** B - portsiz periferik tomir kateteri.



Rasm 5. Standart vena ichiga yuboriladigan periferik kateter quyidagilardan iborat:

(1) - metall igna trubkasiga kiydirilgan polimer naycha. (2) – konyulaga ulangan - polimer tiqin. (3)- qo'shimcha port.

**" SoftCathe " turdag'i kateter o'lchamlarining rangli kodlanishi**

Kateter raqami, (G)	Kateterning tashqi diametri (mm.) TD ±0,1	Kateterning ichki diametri ID ±0,1	Rangli kod	Uzunligi (mm.)	Oqim tezligi (ml./min.) ±10%
<b>14 G</b>	<b>2.0</b>	<b>1.7</b>	<b>to'q sariq</b>	<b>45</b>	<b>305</b>
<b>16 G</b>	<b>1.7</b>	<b>1.3</b>	<b>kulrang</b>	<b>45</b>	<b>200</b>
<b>17 G</b>	<b>1.5</b>	<b>1.1</b>	<b>oq</b>	<b>45</b>	<b>142</b>
<b>18 G</b>	<b>1.3</b>	<b>0,9</b>	<b>yashil</b>	<b>45</b>	<b>95</b>
<b>20 G</b>	<b>1.1</b>	<b>0,8</b>	<b>pushti</b>	<b>32</b>	<b>65</b>
<b>22 G</b>	<b>0,9</b>	<b>0,6</b>	<b>havo rang</b>	<b>25</b>	<b>36</b>
<b>24 G</b>	<b>0,7</b>	<b>0,5</b>	<b>sariq</b>	<b>19</b>	<b>23</b>

- G- kateter o'lchami .

± - Bir oz boshqacha qiymatlar ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin!

**TAYYORGARLIK BOSQICHI.** (hushida bo'lgan bemorlarda):

- bemor bilan muloqat o'rnatish, muolajaning mohiyatini tushuntiring;
- bemorni o'tirgan yoki yotgan holatga keltiring (holatni tanlash bemorning ahvoliga bog'liq);
  - yetarli yoritishni ta'minlang;
  - bemorning qo'lli yoki tirsak ostiga yostiqcha qo'ying;
  - qo'llaringizga gigiyenik ishlov bering, steril bo'limgan qo'lqoplarni klying;
  - mo'ljallangan joyidan 10-15 sm balandlikdan jgut qo'yib venani bo'rtishini tekshirib ko'ring;
    - qo'l venalari to'lganligiga ishonch hosil qiling.
    - jgutni olib tashlang;
    - jarrohlik qaychi yoki dezinfeksiyalangan qaychi bilan sohasidagi soch tolalarini holi qiling;



Rasm 6. Punksiya maydonini tozalash.

**ASLO SOQOL OLGICH (USTARA) BILAN QIRTISHLAMANG!**

Steril patnisni aseptika qoidalariga rioxqa qilgan holda, oching va joylashtiring:

- kateterizasiya uchun standart to'plamlarni yig'ing;
- kateterni qadoqlashning yaxlitligini va uskunaning yaroqlilik muddatini tekshiring;
- kateterni oching,

- steril salfetkani xlorgeksidinning 0,5% spirtli eritmasi bilan namlab oling;



Rasm 7. Steril jihozlarni tayyorlash.

**Texnikasi:**

**1 - Qadam.**

Qo'llarni gigiyenik ishlovdan o'tkazing;  
Bir martalik steril bo'lмаган qo'lqoplarni kiying;  
Punksiya maydonini ikki marta 0,5% spirtli xlorgeksidin eritmasi bilan  
tozalang.



Rasm 8. Qo'llarni gigiyenik ishlov bosqichi.

**Esda tuting!**

Kateterini o'matishni boshlashdan avval antiseptikning terida to'liq qurishini  
kutish kerak. Ho'l terini artmang yoki tegmang!

**VENANI QAYTATDAN PAYPASLAMANG!**

**2 - Qadam.**

Kateterizasiya maydonidan 10-15 sm balandlikdan **jgut bilan qising**;  
Venalarni burttirib chiqishi uchun bemordan barmoqlarini siqish va ochishni  
so'rang;

Paypaslab venani toping;  
Antiseptik yordamida qo'llaringizni qayta ishlov berib qaytadan tibbiy qo'lqop  
kiying;

Kateterizasiya joyini teri antiseptiki bilan ishlov bering va terini qurishini kuting;



Rasm 9. Punksiya uchun venani topish bosqichi.

Venani ko'zdan qochirmsligi uchun barmog'ingiz bilan ushlab turing;

**3 - Qadam.**

Tanlangan diametrдаги катетерни



олинг. Катетернинг igna kesmasi yuqoriga



yo'naltirilganligiga ishonch hosil qiling;


Bosh barmog'ingiz bilan punksiya joyiga tegmasdan turib terini tortib venani fiksatsiya qiling;

Kateterni himoya qalpog'ini yeching va qo'lingizga **qulay holda ushlang**.



Rasm 10. Kateterni tayyorlash bosqichi.

**4 - Qadam.** Kateterni tomirga parallel ravishda ushlang. Kateterni teriga nisbatan  $10^{\circ}$ - $45^{\circ}$  burchak ostida yo'naltirib boring, **indikator kamerasida** qon ko'rinishini kuzating, qon paydo bo'lganda kateterni burchak yo'nalishini teriga nisbatan kamaytiring; Agar indikator kamerasida qon paydo bo'lsa, ignaning siljishini to'xtating.



Rasm 11. Venani punksiya qilish bosqichi.

**5 - Qadam.** Stilet (yo'naltirgich) ignasini ushlab turib kateterni venaga asta-  
sakin oxirigacha kiriting (stillet ignasi kateterdan hali to'liq chiqarilmaydi); Vena

ichiga o'tkazgich ignasidan kateterni 2-3 mm oldinga siljiting; Yo'naltirgich ignasini 2-3 mm orqaga torting. O'tkazgich ignasi va kateter devori orasidagi qonning ko'rinishi kateterning venaga to'g'ri joylashishini tasdiqlaydi;



Rasm 12. Kateterni venada turganligini aniqlash bosqichi.

**Esda tuting!**

**KATETER VENAGA TUSHGACH YO'NALTIRUVCHI INGASINI ZINHOR QIMIRLATMANG (BU kateterni kesib, kateter parchasi bilan emboliyaga olib kelishi mumkin)!**

**6 - Qadam.** O'ng qo'lingiz bilan jgutni olib tashlang; Venani chap qo'lning barmog'i bilan kateterning uchi ustiga bosing va kateterni tomir ichiga to'liq oldinga siljiting, uni o'tkazgich ignasidan olib tashlang;



Rasm 13. Kateterdan yo'naltirgich ignani chiqarish bosqichi.


**7 - Qadam.** Kateterning yo'naltiruvchi ignasini chiqarilgach mahsus idishga tashlab yuboring;

Kateterni o'ng qo'lingiz bilan bilan yopib turib tiqin bilan mahkamlang;



Rasm 14. Kateterni portini bekitish bosqichi.

**8 - Qadam.** Kateterni ishlayotganligini tekshirish uchun qo'shimcha porti orqali steril 0,9% natriy xlorid eritmasini yuborib ko'ring;



Rasm 15. Kateterni tekshirish bosqichi.

**9 - Qadam.** Kateterni mahsus steril **yopishqoq plaster** (leykoplastır) bilan mahkamlang (kateterni mahkamlash uchun steril bo'lмаган plastirni ishlitmang); Kateterni o'rnatilgan sanasini plasterga yozib qo'ying;



Rasm 16. Kateterni fiksasiyalash bosqichi.

#### PVK mahkamlash.

- PVKn mahkamlash uchun steril yopishtiruvchi shaffof plasterdan foydalaning;
  - yallig'lanish belgilari bo'lmasa, **har 72 soatda plasterni almashtiring**;
  - plaster ifloslangan yoki namlangan bo'lsa, darhol almashtiring. Plasterni almashtirish vaqtida punksiya joyini aseptik qoidalariiga muvofiq antiseptik bilan ishlov bering.

#### Kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlар va xavflar.

Kateterizasiyaninig afzalliklaridan tashqari uning asoratlari ham mavjuddir, bularga:

- — erta va kechki;
- — mahalliy va umumiy.

#### Mahalliy asoratlarga kiradi:

- — teri osti gematomasi — qon quyilishlar;
- — flebit — venaning yallig'lanishi;
- — asab tolasining shikastlanishi;
- — to'qimalarning yallig'lanishi.


#### Umumiy asoratlarga kiradi:

- — septisemiya;
- — havo emboliyasi.

*Erta asoratlarga* gematoma va hushdan ketish (obmorok/kollaps) kiradi.  
Kechki asoratlarga sepsis kiradi.


**Esda tuting!** Himoyalanish choralariga amal qilinmaganda gepatit va OITS-infeksiysi yuqtirishingiz yoki yuqtirib olishingiz mumkin.

**1. Emboliya** - tromboemboliya, havo emboliyasi, kateter emboliyasi asosan trombning ko'chishida, PVK parchasi yoki havo pufakchasi qon oqimi bilan yurak yoki o'pka qon aylanish tizimiga o'tganda rivojlanadi.



a.

Rasm 17. Tromboemboliyaning sxematik ko'rinishi.



b.

Rasm 18. Havo emboliyasining sxematik ko'rinishi.

#### Qanday qilib oldini olish kerak?

- Kateterlash vaqtiga bermor «Trendelenburg» holatda bosh qismi 15—30° ga tanadan pastga tushirish va oyoqlarni tizzadan bukib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Kateterdan igna stiletini olish vaqtiga va kateterni tiqin bilan bekitish vaqtiga bermorga chuqur nafas chiqarib ushlab turishni buyurgan ma'quldir.
- Barcha kateter qismlaridan havoni ehtiyojkorlik bilan olib tashlang,
- 2. **Flebit** - tomir devorining yallig'lanishi, tomirlarning kimyoviy, mexanik ta'sirlanishi yoki tromb shakllanishi bilan paydo bo'lgan infeksiya tufayli yuzaga kelishi mumkin.



Rasm 19. Flebitning sxematik ko'rinishi.



#### Qanday qilib oldini olish kerak?

- Kateterizasiya texnikasini to'g'ri bajarish.
- Aseptika qoidalariga rioxqa qilish.
- Kateterizasiya joyini to'g'ri tanlash.
- Kateter o'lchamini to'g'ri tanlash.

- Dori-darmonlarni yetarli darajada eritib yuborish va ularni tavsiya etilgan tezlikda kiritish;
  - Kateterni to'g'ri parvarishlash.
- 3. Ekstravazasiya** – infuzion suyuqliklarni tomirlar atrofi to'qimalar orasiga tushishi.




Rasm 20. Ekstravazasiyaning sxematik ko'rinishi.

**Qanday qilib oldini olish kerak?**

- Kateterizasiya texnikasini to'g'ri bajarish.
- Kateterni to'g'ri mahkamlash.
- Kateterizasiya joyini kuzatib borish.

**4. Gematoma** - teri ostiga qon quyilishi.



Rasm 21. Gematomaning sxematik ko'rinishi.

**Qanday qilib oldini olish kerak?**

- Kateterizasiya texnikasini to'g'ri bajarish.
- Kateterni to'g'ri mahkamlash.

## SAVOLLARGA JAVOBLAR

**1. KATETERNI VENADA QANCHА QOLDIRISH MUMKИН.**

Kateterni venada 72 soatdan ortiq qoldirish maqsadga muvofiq emas. Infuzion terapiyani davom ettirish lozim bo'lsa kateter olib tashlanib boshqa venadan kateterizasiya qilinishi lozim. Istisno sifatida boshqa venalarda muammolar bo'lsa kateterni biroz vaqtida qoldirish mumkin.

**2. MUOLAJANI TO'G'RI BAJARGANLIGINGIZNI QANDAY BILISH MUMKИН.**

Odatda muammolar darhol yoki birinchi daqiqalarda paydo bo'ladi. Agar tomir normal ko'rinishda bo'lsa, suyuqlik standart tezlikda ketayotgan bo'lsa va bemor noqulaylikdan shikoyat qilmasa, unda muolaja to'g'ri bajarganligidan darak beradi.

**3. QANDAY BELGILAR KATETERIZASИYADA MUAMMODAN DARAK BERADI:**

- tomirning shishishi, teri ostida shish paydo bo'lishi;

- ko'karishlar yoki qontalashlar;
- punksiya joyida qichish va og'riq;
- infuzion sistemada suyuqlikning sekin ketishi yoki umuman to'xtab qolishi.

#### **4. "VENASI YO'Q" NIMA DEGANI.**

"Tomirlari yo'q" tushunchasi shartli. Har bir insonning qon tomirlari bor, lekin ba'zi hollarda tomir ichiga kateterni kiritishda malakani yetishmasligi yoki venalardagi patologiyalar tufayli murakkablashadi.

Bunday hollar qanday paydo bo'ladi:

- keksa yoshdagilarning qon tomirlarining ingichka bo'ladi (yoshga bog'liq o'zgarishlar, metabolizmning buzilishlari bilan bog'liq xususiyat);
  - ba'zi kasalliklarda qon tomirlarining mo'rtlashishi, masalan, skleroderma, gemorragik vaskulit, tizimli qizil yuguruk;
  - giyohvand moddalarini muntazam tomir orqali yuborganda (uzoq vaqt davomida giyohvand moddalarini qabul qildigan odamlarda tomirlar aslida «kuyib ketadi» va izlarga o'xshab qoladi);
  - infuzion terapiyaning uzoq vaqt olishlarda.

#### **5. AGAR VENAGA HAVO KETSA NIMA BO'LADI.**

Ko'pchilik agar **venaga havo ketsa** bemor o'lishi mumkin degan asossiz fikrga kelishadi. Haqiqatda esa 20 sm<sup>3</sup> dan ziyot havo katta arteriyaga tushgandagina o'llim sodir bo'lishi mumkin. Bundan tashqari havo arteriyaning to'liq qoplab olishi lozim.

Aslida venaga tushgan havo pufakchalari qonda tezlik bilan erib ketadi. Havo venaga tushganda ham vaqtida yordam berilsa xech qanday nojo'ya holatlар kuzatilmaydi. Lekin 3 ml havoning tezlik bilan kirishi hayotga havf solishi mumkin.

# V-BOB

---

## QON AYLANISH TIZIMINING PATOLOGIYASINI DIAGNOSTIKASI

---

### 1. Elektrokardiografiya

## QON AYLANISH TIZIMINING PATOLOGIYASINI DIAGNOSTIKASI

Elektrokardiografiya - yurak tekshiruvining ajralmas qismi bo'lgan yurakning elektr faolligini qayd etish usuli.

Elektrokardiografiya yoki kardiomonitoring «monitor» uskunalarini orqali tekshirilib boriladi.

### Monitorlarning vazifalari va imkoniyatlari.

Monitorlarning turlari uning ko'rsatkichlari va imkoniyatlarga bog'liqdir.

Jumladan **bir va ko'p kanalli uskunalar** mavjuddir. Ko'p kanalli uskunaning imkoniyatlaridan kelib chiqib bu turdag'i uskunalar hozirda keng ko'lma ishlataladi. Umuman monitorlarning quyidagi qo'shimcha vazifalari bor:



Ris 1. Kardiomonitoring.

- elektrokardiograf



(EKG tishchalarini holatini, ST-segmenti, YuUS);

- tonometr (Qon bosimni invaziv va noinvaziv ko'rsatkichlari);
- pulsoksimetr (puls soni, arterial qonni kislorodga to'yinishi);
- termometr (tana haroratini o'chaydi);
- spirograf (nafas ko'rsatkichlarini, nafas to'lqinli chizig'i, nafas soni).

**Anesteziya, intensiv terapiya va reanimatsiya paytida elektrokardiogrammani qayd etish texnikasi.** Bemorga EKG apparatini ulashda quyidagilar zarur:

**1-Qadam.** Bemorni elektr travmasidan himoya qilish uchun qurulmadagi ortiqcha tokni yerga o'tib ketishini ta'minlaydigan **yerga ulash simlarini (zazemleniye)**




yerga yaxshilab ulang. (uskunada yig'ilib qolgan ortiqcha tok bemorga emas yerga o'tib ketadi). Bemorga boshqa uskunalar (sun'iy nafas berish uskunasi, elektr so'rg'ich va h.k) ulangan bo'lsa elektr travma xavfi yanada ortadi.

**2-Qadam.** "Bemor terisi - EKG elektrodi" sohasida elektr qarshiligining maksimal pasayishini ta'minlash lozimdir. Buning uchun elektrod qo'llaniladigan joyda-terida yog'sizlantrish uchun spirit bilan ishlab beriladi.



ko'krakda tuklar bo'lsa olib tashlanadi yoki namlanadi, teriga elektrolit pastasi yoki nartiy xloring izotonik eritmasi shimdirlilgan 4-6 qavatlari doka parchasi qo'yildi, elektrodlar teriga mahsus qistirgich yoki rezinali bint bilan mahkamlanadi, elektrodlar teriga mahsus qistirgich yoki rezinali bint bilan mahkamlanadi.

**3-Qadam.** Uskunaning elektrodlarini belgilangan rang belgilariga



muvofiq ishondoshli ulanishini ta'minlang (1-jadval).

*1-jadval*


**Uskuna simlarini rangli belgilari va ularning kodirovkasi**

Monitor simlari	ANA bo'yicha ranglar	ANA bo'yicha belgilanishi	IEC bo'yicha ranglar	IEC bo'yicha belgilanishi
R (o'ng qo'l)	oq	RA	qizil	R
L (chap qo'l)	qora	LA	jigar rang	L
N (o'ng oyoq)	yashil	RL	qora	N
F (chap oyoq)	qizil	LL	yashil	F

*Eslatma.* ANA - Amerika kardiologlar assosiatsiyasi; IEC - Xalqaro elektrotexnika komissiyasi.

- Agar elektrodlarni qo'llash qoidalariga rioya qilinmasa, qurilma noto'g'ri ko'rsatkichlarni qayd etadi, EKG tishlarining noto'g'ri amplitudasi natijasida EKG ni o'qib bo'lmaydi.

Anesteziologik amaliyotda ko'pincha standart yoki klassik deb ataladigan bipolar oyoq-qo'llar ulanish (I, II, III) qo'llaniladi. Ingliz adabiyotida ular L-1, L-2, L-3




(limb – оюз) yoki I, 2, 3 deb nomlanadi.

Standart elektrodlardan to'liq ma'lumot olish uchun I va III ulanishlardagi (otvedeniy) EKG yozuvni olinishi yetarli, chunki II ulanish (otvedeniya) birinchi va ikkinchi ulanishlarning natijasidir. Ma'lumki I standart ulanish sinus tugunidan keladigan impulsarning yurak old devoridan keladigan impulslar xususiyatlarini qayd etadi, III standart ulanish yurak orqa devorining potensiallarini aks ettiradi.


Standart ulanishlarda EKG ni yozish uchun 4 ta elektrod qo'llaniladi. Birinchi va ikkinchi - o'ng va chap bilakning pastki uchligidan (qizil va sariq simlar); uchinchi va to'rtinchi - o'ng va chap pastki oyoqlarning pastki uchligidan (qora va yashil sim).

- Zamonaviy polifunktional monitorlarda uch (Rasm 2-3) va besh elektrodlidir.




(Rasm 4) uskunalar bilan EKG qilish imkoniyati mayjud. Qog'ozda yozish tezligi 50 mm/s. da yozilgan EKG ni o'qish maqsadga muvofiqidir. Bu usul yozuvida 1 mm EKG da 0,02 soniyaga, 25 mm/s. da yozilganda esa 0,04 soniyaga teng bo'ladi.



Кискич рани	Белгиси	Маъноси
Кора	N	Нейтрал
Ок	REF	Умумий харола
Сарик	CH 1	Канал 1
Кирил	CH 2	Канал 2
Янил	CH 3	Канал 3



Rasm 2. Elektrodlarning ANA bo'yicha ulanishi:



**RA — оқ; LA — qora; LL — qizil.**





Rasm 3. Elektrodlarning IEC bo'yicha ulanishi:

**R — qizil; L — sariq; F — yashil.**



Rasm 4. Elektrodlarning IEC bo'yicha ulanishi::

**R — qizil; L — sariq; S1 — oq; N — qora; F — yashil.**

*EKG ni IT va operatsiya vaqtiga tekshirishning o'ziga xos tomonlari.*

Ko'p holatlarda faqatgina standart ulanishlarni nostandard elektrodlarni ularsh bilan EKG yozib olishga harakat qilinadi, bu o'z navbatida EKG ni noto'g'ri talqin qillinishiga va noto'g'ri tashxis (diagnoz) qo'yilishiga olib keladi.

- To'g'ri ulangan va to'g'ri o'qilgan EKG natijalari, vaqtida bemorga to'g'ri tashxis qo'yilishi va profilaktik chora-tadbirlarni olib borilishiga yoki IT ninig effektivligini to'g'ri baholanishiga turki bo'ladi.

Elektrodlarning tana bo'ylab ulanishining [internet] yengillashtirish maqsadida turli xil tez eslash usullari mavjuddir. Masalan (Bu usullar rus tilidagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan, **Krasniy, Jyoltiy, Zelyoniy, Chyorniy**):

- Kajdaya Jenshina Zleye Chyorta, yoki
- Krolik Juyet Zelyoniy Chesnok, yoki
- Svetofor — Krasniy, Jyoltiy, Zelyoniy ... Chernota.

# VI-БОБ

## DEFIBRILLYATSIYA / KARDIOVERSİYA


### 1. Defibrillyatsiya o'tkazish metodikasi

## DEFIBRILLYATSIYA / KARDIOVERSIYA

**Fibrillyatsiya**— bu miokard [miofibrillalarini] nomutanosib qisqarishi. Bunda [yurakning] [nasos] funksiyasi buziladi. Qorincha fibrillyatsiyasida asosiy samarali usul [defibrillyatsiyadir] (DF). Tashqi defibrillyatsiya ko’krak qafasining oldi qismidan o’tkaziladi. Avtomatik defibrillyatsiya —[defibrillator - AND] uskunasoriqlari amalga oshiriladi (AND) (*automated external defibrillator*— AED). Uskuna bemorga ulangach yurak ritmini avtomatik tarzda tahlil qilib defibrillyatsiya o’tkazish kerakmi, yo’qmi tovush orqali axborot beradi.

**Defibrillyatsiya**-yurak faoliyatini yagona doimiy elektr impuls vositasida tiklash usulidir.

Qon aylanishining to’xtash mexanizmida qorinchalar titrashi va pulssiz qorinchalar taxikardiyasi asosiy rol o’ynaydi. Defibrillyatsiya o’tkazishda AED uskunasining elektrodlarini joylashishiga ko’ra turli ko’rinishlari mavjud bo’lib quyida standart bir xil usulini ko’rib chiqamiz.



Defibrillyatsiya o’tkazishda elektrodlarning joylashish nuqtalari.

#### Ko’rsatmalari:


##### 1. Defibrillatsiya uchun:

- Qorincha fibrillyatsiyasi (KF)
- Qorinchalar taxikardiyasi (KT).

##### 2. Kardioversiya uchun:

○ KF yoki pulssiz KTdan tashqari har qanday gemodinamik jihatdan beqaror taxiaritmiyalar (masalan, xilpillovchi aritmiya, titroq aritmiysi va boshqa supraventikulyar taxikardiyalar)


Qorinchalar ritminig buzilish turlari.




A. Monomorfli qorinchalar taxikardiyasi.



B. Qorinchalar titrashi.



V. Polimorfli qorinchalar taxikardiyasi.



G. Pulssiz qorinchalar fibrillyatsiyasi.

**Qarshi ko'rsatmalari – yo'q.**

**Anesteziya:**

Agarda vaqt chegaralanmagan bo'lsa, hamda bermor AB turg'un bo'lib turgan hollarda sedativ vositalardan (**diazepam**, **midazolam**, **ketamin**) qo'llash mumkin. Analgetiklardan (**fentanil**, **morfin**) qo'llash ham mumkin. (unchalik shart emas).

**Asoratlari:**

Elektrodlar joylashgan joyda terining kuyishlari.

**Asbob-uskunalar:**

**1.**



1. Elektrod gelii.

**2.**



2. Defibrillyator.

**3.**



3. Elektrokardiograf uskunasi (EKG).

**Bemorning holati:**



Chalqancha yotish. (Suv yoki metal yuzalar bilan aloqa qilish ta'qiqlanadi. Ko'krak qafasini to'liq oching, har qanday transdermal dorilardan holi qiling).

**Texnikasi:**

Ko'krak sohasini tozalang. Elektrod gelini defibrillyator elektrodi (dastagi) yuzasiga surkang, yoki mahsus **yopishuvchi elektrodnii**




ishlating.



Rasm 1,2. Tanani tozalash va elektrodlarga elektr tokini o’tkazuvchi gel surkash.

Defibrillyatorni ishga tushiring. QF yoki QT ni bartaraf etish uchun uskunani defibrillyatsiya (asinxron) rejimiga o’tkazing.



Rasm 3. Defibrillyatordagi 1-uskunani yoqish tugmachasi, 2- sinxron va asinxron rejimiga o’tkazish tugmachasi.

Boshlang’ich zaryad miqdorini belgilang: birlamchi defibrillyatsiya uchun -200 Dj, kardioversiya uchun 50-100 Dj qilib oling.

Jadval 1. Defibrillyatsiya va kardioversiya uchun tok kuchi qiymatlari


Электро-конверсия	Дефибрилляция	Кардиоверсия
Режим	асинхрон	синхрон
Аритмия	КТ или КФ	бошқа нотурғун аритмиялар
1- импульс	200 Дж	50 ёки 100 Дж
2- импульс	300 Дж	200 Дж
3- импульс	360 Дж	300 ёки 360 Дж

**1 -Qadam.** Elektrodlarni (dastak) ko’krak qafasiga o’rnating. Elektrodlarni ikki xil o’rnatish usuli mavjud:

- Birinchi elektrod o’ng tomondan o’mrov osti sohasiga, ikkinchisi chap tomondan yurak cho’qqisi sohasiga.
- Birinchi elektrod to’shning chap tomondan oldinga, ikkinchisi orqa tomondan chap kurak sohasiga qo’yiladi.



Rasm 4. DF dastaklarini tanaga o’rnatish turlari.



Rasm 5. Tanadan tok o’tishning sxematik ko’rinishlari.

**2 -Qadam.** Elektrodlarni (dastak) bemor badaniga mahkam, o’ttacha 10-11 kg kuch bilan bosing. Atrofdagilarga defibrillyatsiya o’tkazilayotganligi to’g’risida baland tovush bilan ogohlantiring.



Rasm 6. DF dastaklarini tanaga mahkam bosib ushlash bosqichi.

**3 -Qadam.** Atrofdagilarni bemorga yoki bemor yotgan krovatga tegmayotganligiga ishonch hosil qiling.



Rasm 7. Atrofdagilarni ogohlantirish bosqichi.

**4 -Qadam.** DF elektrodidagi tugmachani bosib zaryad bering. Agarda xar elektrodda ham tugmacha bo’lsa birdaniga bosing.



Rasm 8. Tok yo`naltirish bosqichi.

- Agarda natija bermagan taqdirda tok kuchini oshiring.

#### Asoratlari va ularni bartaraf etish:

##### 1. *Atrofdagilarning elektr tokidan zararlanishi.*

- Ba’zida qisqa vaqtli diskomfort bilan o’tib ketadi.
- Yaxshi usuli - oldini olishdir (profilaktika).

##### 2. *Uskunani noto’g’ri ishlashi natijasida yurak ritmining buzilishlari.*

- Reanimatsiya tadbirlarini samarali natija bilan yakunlangach DF uskusinasini almashtirish mumkin.

- Agar lozim bo’lsa vaqtinchalik transvenoz kardiostimulyatsiya o’tkazish mumkin.

##### 3. *Badan terisini kuyishlari.*

- Kuyishlar odatda I darajali bo’lib mahsus chora-tadbirlar talab qilinmaydi.
- Kuyishlar chuqurroq (og’irroq) bo’lgan taqdirda kuyish darajasiga qarab davo choralar o’tkaziladi.

# VII-БОБ

## INTENSIVE CARE – INTENSIV TERAPIYA

1. Markaziy vena bosimini o'lchash texnikasi
2. Oshqozonni yo'g'on zond orqali yuvish
3. Og'iz orqali oshqozonni yuvish texnikasi
4. Siyidik pufagini kateterizasiyalash
  - a. Erkaklarda siyidik pufagini kateterlash texnikasi
  - b. Ayollarda siyidik pufagini kateterlash texnikasi
5. Burun kateteri yordamida kislorodli terapiyani o'tkazish
6. Lyumbal punksiya texnikasi

## MARKAZIY VENA BOSIMINI O'LCHASH

Tibbiyotda markaziy venoz bosim (MVB) yurakning o'ng bo'l machasidagi bosim nazarda tutiladi. Bu ko'satskich yurak-qon tomir kasalliklari va o'pka patologiyalarini to'g'ri tashxislash uchun juda muhimdir.

### Bu ko'satskich nima va uning normasi qancha?

Quyidagi ikki muhim gemodinamik omil markaziy venoz bosim darajasini belgilaydi:

- yurakka qaytayotgan venoz qon miqdori;
- diastola vaqtida yurakning qonga to'lishi (sistola orasidagi bo'shashish oralig'i).

Nazariy jihatdan venoz bosim 0 mm.sim.ust. ga yaqin. Ammo bu kichik ko'satgichlarni aniqlash ancha mushkuldir, shuning uchun bu bosimni suv ustunida millimetrr yoki santimetrda o'lhash qabul qilingan.

### Normada venoz bosim:

- bolalarda - 60 dan 120 mm. suv. ust;
- kattalarda -30 dan 120 mm gacha suv ust. tashkil qiladi.

### Monitoring uchun ko'satmalar:

MVB aylanayotgan qon hajmini va miokardning qisqarish qobiliyatini to'g'ri baholashga yordam beradi. Shuningdek, infuzion terapiya vaqtida ko'p suyuqlik kiritilishini nazorat qilishga yordam beradi.

Quyidagi patologiyalarda jiddiy gemodinamik buzilishlar natijasida MVB o'zgaradi:

- o'tkir qon aylanish yetishmovchiligi;
- massiv qon quyish sindromi;
- surunkali yurak yetishmovchiligi;
- og'ir sepsis tufayli shok sharoitlarini rivojlanishida;
- yurak tamponadasining rivojlanishida;
- qorin bo'shlig'ida jarrohlik operatsiyasidan so'ngi holatlarda.


### O'lchov qanday amalga oshiriladi?

MVB ni o'lhash uchun bir nechta usullardan foydalanish mumkin:

- lineyka yoki v/i tomizgich sistemasi bilan o'lhash;
- Medifiks sistemasi orqali;
- Swan-Ganz kateteri yordamida to'g'ridan-to'g'ri manometriya usuli ;
- noinvaziv usullar, masalan, tananing turli holatlariida bo'yin yoki qo'llarda shishgan tomirlarni tekshirish orqali.

MVB ni aniqlashning eng keng tarqalgan usuli Valdmann apparati (flebotonometr ) hisoblanadi.


### Valdman apparati yordamida MVB ni aniqlash uchun jihozlar:



1. kateter;
2. flebotonometr (o'lchash shkalasi mavjud bo'lgan shisha naycha);
3. natriy xlordining izotonik eritmasi.


**Holati:**

Bosimni o'lchash paytida bemor yotgan holatda bo'lishi kerak. Tekshirishni ertalab och qoringa, bemor butunlay tinchlangandan keyin amalga oshiriladi.




**Flebotonometr yordamida MVB ni o'lchash texnikasi:**

**1 - Qadam.** Sistemadagi barcha havo pufakchalarini chiqarib so'ngra naychani fiz. eritma bilan yuvib olinadi.




Rasm 1. Dastlabki bosqich. Jarayonga tayyorgarlik.

**2 - Qadam.** Naychadagi «0» belgisini ni o'ng bo'lmachaga paralel holatda to'g'rilib olinadi.



Rasm 2. Asosiy bosqich. Vena bosimini o'lchash.

**3 - Qadam.** O'lchash vaqtি bemor yotgan holda bo'lishi lozim. Bemorning to'sh qismidan krovatgacha bo'lgan masofa o'lchab olinadi. Olingen balandlik uch qismiga bo'linadi va 2/3 bo'lagiga uskunaning nol belgisi to'g'rilanadi.




Rasm 3. Sistemadagi nol belgisini bemorga

to'g'rilash.

**4 - Qadam.** Flebotonometri infuzion sistemaga adapter va qisqich «troynik».




yoki biriktiruvchi trubka yordamida ulanadi.



Rasm 4. Flebotonometri infuzion sistemaga ulash.


**5 - Qadam.** Sistema yig'ilgach flebotonometr shishi naychasi fiz. eritma bilan to'ldirilib so'ngra eritma oqib ketmasligi uchun (troynik) uchlik yopib qo'yiladi.



Rasm 5. Flebotonometr naychasi fiz. eritma bilan


to'ldirish.

**6 - Qadam.** Keyinchalik, sistema bo'yinturuq yoki o'mrov osti venasiga ulanadi.




Rasm 6. Sistemani markaziy venaga ulash.

**7 - Qadam.** Troynik (uchlik) ni «bemor-uskuna» yo'nalishida ochiladi va suyuqlik uskunaga qarab oqa boshlaydi.



Rasm 7. Vena bosimini o'lchash.

**8 - Qadam.** Eritma shisha naycha bo'ylab ko'tarilishi to'xtagach bo'llimlar shkalasidagi ko'rsatkich belgilanadi va MVB ko'rsatkichi intensiv xaritaga yozib qo'yiladi.



Rasm 8. Jarayonni yakunlash.

#### Asoratlari:

Quyidagi asoratlar ko'pincha MVB ni invaziv usulda aniqlashda kuzatiladi:

- pnevmotoraks;
- arteriyaning shikastlanishi;
- infeksiya tushishi.

Bundan tashqari, kamroq kuzatiladigan, ammo jiddiy oqibatlari bo'lgan asoratlар:

- gidrotoraks;
- havo (yoki kateter) emboliyasi;
- tromboz;
- yuqori kovak venani yoki o'ng bo'l machani kateter bilan teshib qo'yish,

keyin **gidromediastinum** yoki **gidroperikardit** rivojlanishlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, usulni bajarish texnikasining barcha qoidalariiga rioya qilinganda, asoratlар ehtimoli minimallashadi. Shuni ta'kidlash kerakki, usulni bajarish texnikasining barcha qoidalariiga rioya qilinganda, asoratlар ehtimoli minimallashadi.

### OSHQOZONNI YO'G'ON ZOND ORQALI YUVISH

Oshqozonni yuvish asosan oshqozondan toksik moddalarni chiqarish, ba'zi diagnostik tayyorgarlik ko'rish uchun amalga oshiriladi. Bu usul oshqozonga tushgan toksinlar va zaharlardan organizmni tozalash usuli bo'lib, ko'pincha o'tkir zaharlanishda qo'llaniladi.

#### Oshqozonni yuvish usullari:

1. Og'iz orqali.
2. Burun orqali.
  - Zondsiz yuvish usuli.
  - Yo'g'on zond orqali yuvish.
  - Ingichka zond orqali yuvish

#### Oshqozonni yuvishga bo'lgan ko'rsatmalar:

1. Og'iz orqali qabul qilingan turli zaharlar bilan zaharlanishlarda;
2. Oziq-ovqatdan zaharlanishlar, spirtli ichimliklar, qo'ziqorinlar, dorilar bilan o'tkir zaharlanishda;
3. Ko'plab shilliq hosil bo'lgan gastritlarda;
4. Pilorik sfinkter torayishida;
5. Oshqozon yoki o'n ikki barmoq ichak mushak devori tonusining pasayishida;
6. Ichak tutilishida;
7. Oshqozonga qondagi toksik moddalarning chiqishi. Masalan: surunkali buyrak yetishmovchiligidagi **mochevinan** chiqishi;
8. Kam hollarda - **uremiyada** (oshqozon shilliq qavati orqali azotli birikmalarning chiqishi),
9. Oshqozonning o'tkir nekrozi, ovqotminig oshqozonda uzoq turib qolishida.

#### Qarshi ko'rsatmalari:

1. Qizilo'ngach divertikulasi va qizilo'ngachning sezilarli torayishida;
2. Kuchli kislotalar va ishqorlar bilan zaharlanishdan so'ngi davr (6-8 soatdan ortiq, qizilo'ngach devorining teshilishi ehtimolligi tufayli);
3. Qizilo'ngach yoki oshqozondan o'tkir qon ketishlarda;

4. Kislota va ishqorlar bilan halqum, qizilo'ngach, oshqozonning kuchli kuyishlari;

5. Yo'tal refleksining bo'lmasligida;

6. Talvasa vaqtlarida.

**Esda tuting:**

• Komadagi bemorlarni oshqozonni yuvishdan oldin «manjetli intubatsiya naychasi» bilan traxeyani oldindan intubatsiya qilish lozim.

• Yuvish uchun suyuqlik issiq bo'lmasligi (so'rilib kuchayadi) va sovuq bo'lmasligi kerak (spazmga olib kelishi mumkin).

**Bemor holati:**

Hushida bo'lganda:



Rasm 1. Hushida bo'lgan bemorlarda o'tirgan holat.

Koma holatlarda:



Rasm 2. Hushida bo'lmagan bemorlarda yotgan holat.

**Oshqozonni yuvish uchun asbob-uskunalar:**



Rasm 3. Oshqozonni yuvish uchun asosiy asbob-uskunalar to'plami.

1. Yo'g'on steril me'da zondi,
2. 0,5-1 litrli shisha voronka,
3. Esmarx krujkasi,
4. Xona haroratida qaynatilgan suv idishi bilan,
5. Sochiq, salfetkalar,
6. Steril probirkalar (idishlar),
7. Yuvindi suvini to'kish uchun idish,
8. Tibbiy qo'lqop,
9. Suv o'tkazmaydigan fartuk - 2 dona,
10. Steril vazelin moyi yoki glitserin.

## OG'IZ ORQALI OSHQOZONNI YUVISH TEXNIKASI

Tayyorgarlik bosqichi.

### 1 - Qadam.

1. Bemorning o'ng yonida turing.
2. Bemorga og'zini ochishni aiting, boshini biroz orqaga buring. Yosh bolacha bo'lsa onasiga aytib mahkam ushlating.
3. Bemorga fartuk kiydiring. Fartukning pastini yuvindi suv tushish uchun idishga tushiring.

4. Zond uchini suv yoki glitserin bilan namlang.

**Zond uzunligini o'lhash.** O'lhashning bir necha usullari mavjud.



1. **Og'iz orqali zondlashda:** Og'iz burchagidan kindikgacha bo'lgan masofa va kaftining kengligini qo'shib o'lchanadi.
2. **Burun orqali zondlashda:** Burun qanotidan quloq yumshog'igacha va to'shning Hanjarsimon o'simtagacha o'lchanadi.
3. Bemorning bo'y uzunligidan 100 sm ni olib tashlasangiz qolgan uzunlik zond uzunligidir.

**2 - Qadam.** Ipak ip bilan og'iz burchagidan kindikgacha bo'lgan masofa va kaftining kengligini qo'shib o'lchab oling.




Rasm 4. Zond uzunligini o'lhash.

**3 - Qadam.** O'lcagan uzunlikni zonddagi nishonga belgilab qo'ying.





Rasm 5. Zondga belgi ko'yish.

**4 - Qadam.** Zondning uchidan 10 sm. laridan xuddi «ruchka ushlagandek» qilib ushlang.



Rasm 6. Zondni tayyorlash.

**5 - Qadam.** Zond uchini glitserin yoki suv bilan namlang.



Rasm 7. Zondni kiritishga tayyorlash.

**6 - Qadam.** Zondni tilning ildiziga qo'ying, bemordan zondni **yutishini** so'rang.




Rasm 8. Zondni yutishga tayyorlash.

**7 - Qadam.** Yutingan vaqtida zondni sekinlik bilan kirgizib boring. Belgilangan nishonga yetgach to'xtating va bemordan burun orqali chuqr nafas olishini so'rang.



Rasm 9. Zondni yuttirish.

**8 - Qadam.** Oshqozondagi zondning to'g'ri turganligiga ishonch hosil qiling. "Havo sinamasи" bilan tekshirib ko'ring. **Jane**



Rasm 10. Zondni oshqozonda turganligini tekshirish.

**9 - Qadam.** Zondga voronkani ulab oshqozon proyeksiyasidan pastgacha tushiring.



Rasm 11. Zondga voronka o'rnatish.

**10- Qadam.** Voronkani suv bilan to'ldiring. Bolalar uchun suvning miqdori 15 ml/kg tana massasiga olinadi.



Rasm 12. Voronkani suv bilan to'ldirish.

**11 - Qadam.** Voronkani sekinlik bilan oshqozondan teparoqda ushlab turing, suvning oshqozonga o'tishini kuzating.



Rasm 13. Oshqozonga suvni kiritish.

**12 - Qadam.** Voronkadagi suv to'liq bo'shagach idishni pastga tushiring, voronka



suv aralash oshqozon mahsulotlari bilan to'ladi. Lozim bo'lsa harakatni bir necha bor qaytaring.



Rasm 14. Oshqozondan suvni chiqarish.

**13 - Qadam.** Voronkani zonddan ajrating, so'ngra dezinfeksiyalovchi suyuqlik surkalgan salfetka bilan ushlab zondni olib tashlang.



Rasm 15. Zondni olib tashlash.

#### **Oshqozonni yuvishda uchraydigan xatoliklar:**

- Bemorning o'tirgan holati yuborilgan suyuqlikning bosim kuchi ta'sirida ichakka suyuqlikning o'tishiga sharoit yaratadi;
- Suyuqlikning katta hajmda yuborilishi pilorik sfinkterning ochilishiga va suyuqlikning oshqozondagi zahar bilan birga ingichka ichakka o'tishiga sabab bo'ladi.
- Kiritilgan va chiqarilgan suyuqlik miqdorini nazorat qilmaslik, suvning oshqozonida ko'p miqdorda qolishi, "suvdan zaharlanishi" (gipotonik gipergidratisiyaga) ga olib keladi.

- Oshqozonni yuvish uchun kaly permanganat eritmalaridan foydalanish asosli emas va hatto xavfli. Kaly permanganatning tuzli kristallari oshqozon shilliq pardalariga yopishib kimyoviy kuyishiga olib keladi.

## **SIYDIK PUFAGINI KATETERIZATSİYALASH**

Siydik pufagini kateterizasiya qilish urologiyada keng tarqalgan muolaja hisoblanadi. Kateterizasiya terapevtik yoki diagnostik maqsadlarda uretraga kateterni (naychani) kiritish orqali amalga oshiriladi.

### **Ko'rsatmalar:**

#### **Davolash maqsadida:**

1. Siydik tutilishida.
2. Siydik chiqarishni dinamik kuzatishda.
3. Siydik pufagidan qon laxtalarini olib tashlash.
4. Intravezikal kimyoterapiya maqsadida.
5. Operatsiyadan keyingi davrda siydik yo'llarining o'tuvchanligini tiklash (bujerlash).

#### **Diagnostik maqsadda:**

1. Siydik tarkiblarini tekshirish.
2. Kontrast moddalarni retrograd kiritish ([sistouretrografiya](#)).
3. Urodinamik tadqiqotlar.

#### **Qarshi ko'rsatmalar:**

1. O'tkir prostatit.
2. Turli xil travmalari natijasida uretraning yorilishlariga shubha bo'lganda.
3. Uretradan qon kelishlarda.
4. [Gemoskrotum](#).
5. Oralinqing jarohatlarda.
6. Prostata bezi palpatsiya qilish imkonii bo'limganda.
7. Uretraning yaqqol [strukturasida](#).

#### **Anesteziya:**

- 2% lidokainli gel.


#### **Axbob-uskunalar:**

1. Kateterizasiya uchun to'plamlar ([Foley kateteri](#)).
2. [Povidon-yod](#) eritmasi.
3. Moyli gel vositasi.
4. Shprist 10 ml.
5. Tibbiy qo'lqop.
6. Steril salfetkalar va siydik to'plash uchun idish).
7. Erkaklar uchun 18 kalibrli [Foley kateteri](#) va ayollar uchun 16 kalibrli kateter.

#### **Siydik kateterlari.**

1. Kateterlarning turlari: yumshoq, yarim qattiq va qattiq (metall).
2. Kateterlar erkaklar va ayollar uchun hamda bolalar uchun turli xil bo'ladi.

3. Kateterlarning tuzilishiga ko'ra kateterlar to'g'ri va bukilgan turlari mavjud.
4. Erkaklar uchun yarim qattiq va metall kateterlar uchi biroz bukilgan bo'ladi.




Rasm 1. a - yumshoq; b - metall erkaklar uchun;  
c - metall ayollar uchun; g - manjetkali yumshoq.

#### Holati:

Erkaklar chalqancha yotgan holatda, ayollar "qurbaqa pozasi" holatida (tizzalari bukilgan, oyoqlari yoyilgan).

### ERKAKLARDA KATETERLASH TEHNİKASI:

**1 - Qadam.** Jinsiy olatni steril salfetkalar bilan o'rang.



Rasm 2. Aseptik sharoitlarni yaratish.

**2 - Qadam.** Jinsiy olat boshchasi terisini torting (agar mavjud bo'lsa). Olatni chap qo'lingiz bilan ushlab yuqoriga qorin tomonga qaratib tortib ko'taring.




3-Rasm Jinsiy olatni to'g'ri holatga keltirish.

**3 - Qadam.** Jinsiy olatni boshchasiga povidon-iod





eritmasidan surting. Jarayon davomida aseptikaga to'liq rioya qiling.




Rasm 4. Antiseptika bosqichi.

**4 - Qadam.** Kateterni kiritishdan oldin siyidik yo'liga 10 ml 2% lidokain gelini yuboring.




Rasm 5. Yuzaki anesteziya bosqichi.

**5 - Qadam.** Kateterni moylash moddalari bilan yog'lang va uni chap qo'lingiz bilan ushlang.




Rasm 6. Kateterni anestetik gel bilan moylash.

**5 - Qadam.** Kateterning uchi siyidik pufagiga yetib borguncha va siyidik paydo bo'lguncha sekinlik bilan kateterni siyidik yo'li bo'ylab kiritib boring. Kateter manjetini 10 ml natriy xlorning izotonik eritmasi bilan to'ldiring.




7-Rasm Kateterni uretraga kiritish.

**7 - Qadam.** Agar siyidik paydo bo'lmasa, manjetni to'ldirishdan oldin kateterni to'g'ri joylashishni aniqlash uchun kateter orqali eritma yuborib ko'ring.



8-Rasm Kateterning o'tkazuvchanligini tekshirish..

**8 - Qadam.** Sunnat terisini joyiga qo'ying. Kateterni siyidik yig'ish idishiga ulang.




9-Rasm Kateterning siyidik to'plagichga ulanishi.

## AYOLLARDA SIYDIK PUFAGINI KATETERLASH TEXNIKASI

**1 - Qadam.** Bemorni yotgan holatda oyoqlarini bir-biridan ajratib qo'ying (qurbaqa oyog'i holati").




Biroq, sonlarini yoya olmaydigan ayollar uchun tizzalarini ko'tarib bukishning o'zi siyidik yo'liga kateterning oson kirishni ta'minlaydi.



Rasm 10. Bemorga holat berish.

**2 - Qadam.** O'zingizni va bemorni himoya qilish maqsadida ayol jinsiy a'zolarini (oraliqni) steril material bilan yoping.



Rasm 11. Aseptik sharoitlarni yaratish.

**3 - Qadam.** Chap qo'lingizdan bilan kichik jinsiy lablarni yoying.




Rasm 12. Uretra vizualizatsiyasi.

**4 - Qadam.** O'ng qo'lingiz





bilan uretraga kirish maydonini antiseptik eritma bilan ishlov bering



Rasm 13. Oraliqni asseptik ishlov bosqichi.

**5 - Qadam.** Sterillikni buzmagan holda bo'sh qo'lingiz bilan moylangan 16 kalibrli kateterni ushlab va siyidik yo'liga taxminan 10 sm yoki siyidik paydo bo'lguncha kiriting





Rasm 14. Uretraga kateterni kiritish.

**6 - Qadam.** Kateter balonini (manjetka) 10 ml izotonik fiziologik eritma




bilan to'ldiring.



Rasm 15. Kateterni fiksatsiyalash.

## 7 - Qadam. Kateterni siydiq yig'ish



Rasm 16. Kateterning siydiq kanaliga ulanishi.

### Asoratlар va ularни бартароф этиш:

#### a. Uretraning teshilishiga shubha bo'lganda:


- Sistoskopiya bilan aniqlash maqsadga muvofiqdir.
- Kateterizasiya qilishni to'xtating va urolog bilan maslahatlashing.

#### O'tkir siydiq tutilishini davolash:

- siydiq pufagi drenajlash odatda to'liq naf beradi. Obstruksiya bartaraf etilgandan so'ng siydiq chiqarishni kuzatib boring. Agar keyingi bir necha soat ichida diurez soatiga 200 ml dan kam bo'lsa yoki bemorda boshqa kasalliklar mavjud bo'lса, kasalxonaga yotqizishni muhokama qiling.

#### b. Arterial gipotensiya:

- Erta gipotensiya odatda X juft adashgan nerv refleksi natijasida tomirlar kengayishi tufayli siydiq pufagi atoniyasi tufayli sodir bo'ladi.



- Travmatik urinishlar tufayli kech gipotensiya rivojlanishi mumkin.

c. Gematuriya:

- Kateterning travmatik kiritilishi yoki shilliq qavatning yengil shikastlanishi tufayli paydo bo'ladi. Vena ichiga suyuqliklar yuborish (infuzion terapiya), kateterni yuvish va kuzatish bilan davolanadi.

d. Parafimoz:

- Mahalliy davo choralar.
- Antibiotiklar.

### BURUN KATETERI YORDAMIDA KISLORODLI TERAPIYANI O'TKAZISH

Kislородли терапия - кислород юрдамда касалликларни даволаш усулі. "Кислород терапияси" атаси лотинча "оксигенум" (кислород) ва "терапия" (даволаш) со'зларидан келиб чиқсан. Маqsад - то'qimalarga ko'proq kislород yetkazib berishdir.


**Kislородли терапияга ко'rsatmalar:**

- Nafas olish yetishmovchiliklari (o'tkir yoki surunkali), **gipoksiya**.
- Taxipnoe**, nafas olish tezligining normadan 15% dan ko'pga oshishi.
- Atmasfera havosidan nafas olganda gemoglobinning **saturatsiyasi** 93% dan tushib ketishi.
- Vizul tekshiruv vaqtida **sianoz** (ko'karish) va hansirash mavjudligi.
- Gipoksemiya, arterial qonda kislороднинг **partsial bosimining** 80 mm.sim.ust. dan pasayishida.
- Zaharlanishlardan keyingi rehabilitatsiya davrida (masalan, is gazi, spirtli ichimliklar va boshqalardan zaharlanishlar).
- Surunkali obstruktiv o'pka kasalligida.
- O'pka shishida.
- Yurak astmasida.

**Qo'llash mumkin bo'lмаган holatlar:**

- Nafas yo'llarining o'tkazuvchanligining buzilishlarda.
- O'pka qon ketishlarda.
- Autizmda**.
- Miya distrofiyasida.

**Asbob-uskunalar:**



- Kislород манбалари (kislород концентратори ва/yoki kislород baloni );
- Rotametr;**

3. Bobrov uskunasi;
4. Yuz niqobi yoki burun kateterlari;
  - o Kislorod terapiya samaradorligini nazorat qilish vositalari (pulsoksimetr).
    - o vazelin moyi;
    - o tibbiy qo'lqoplar;
    - o leykoplaster.

**Kislorod terapiyasini o'tkazishda qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak?**

Kislorod yog'li va yonuvchan gaz, rangsiz va hidsiz. Binoda kislorod mayjudligi yong'in xavfini oshirishi mumkin. Kislorodning o'zi yonuvchan emas, lekin u yonishni quvvatlashi va tezlashtirishi va moddalarining osongina alanganishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uya kislorodli terapiyadan foydalanganda siz quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishingiz kerak:

1. Kislorod uskunasini olov yonida ishlatmang.
2. Kislorodni bino ichida ishlatganda, chekmang.
3. Kislorod uskunasi bilan bir xonada aerozollar yoki sochlarni fen bilan quritmang.
4. Kislorod uskuna qismlarini moylash uchun moydan foydalanmang va uskunani yog'li qo'llar bilan ushlamang. Kislorod uskunasidan foydalanganda qo'llaringizni toza va quruq bo'lsin.
5. Kislorodli uskunalaridan foydalanilganda uskunalar elektr jihozlaridan 1,5 m masofada uzoqda bo'lishi kerak.
6. Kislorod ballonlarini isitgichlar, radiatorlar va quyosh nurlaridan uzoqroq joyda saqlash kerak.
7. Kislorod ballonlarini bo'yoq, benzin, kerosin yoki boshqa yonuvchan materiallar bilan bir joyda saqlamang.

---

**Kislorodga bo'lgan ehtiyoj:**

1. Namlangan.
2. Isitilgan.
3. Konsentrasiyaga ega bo'lishi lozim.

---

**Bosqichlar**

**I. Boshlang'ich.** Muolajaga tayyorgarlik.

**II. Asosiy.** Kislorod terapiyaini o'tkazish.

**III. Yakuniy.** Harakatlarni yakunlash.

---

**Texnikasi:**


**1 - Qadam.** Qo'lingizni yuving, qo'lqop kiying. Bobrov apparatini ishlashishga tayyorlang; toza shisha idishga hajmining 2/3 qismigacha, 30°C - 40°C haroratda distillangan suv quying, *tiqinini* oxirigacha burab mahkamlang. Qurilmani tekshiring

- faqat bitta kislород kiradigan shisha naycha suvgaga botiriladi. Ikkinchи naycha suyuqlik sathidan 5-6 sm balandlikda bo'lishi lozim.




Rasm 1. Bobrov apparatini tayyorlash.

- 2 - Qadam.** Bobrov uskusasining adapter trubkasiga (suvga botirilgan) polivinilxloridli naychani ulang va uni markazlashgan kislород reduktoriga ulang.




Rasm 2. Bobrov apparatining yig'ilishi.

- 3 - Qadam.** Bobrov uskusasining ikkinchi shisha trubasiga (suv ustida joylashgan) burun konyulasi uchini ulang.



Rasm 3. Bobrov apparatining yig'ilishi.

- 4 - Qadam.** Rotametrдagi kislород ta'minoti burgichni (vintelini) oching va kislород berish tezligini (**4-5 litr/min**) qilib sozlang. Kislорodning oqim tezligini nazorat qilish uchun konyula uchini kaftingiza yo'naltirib uning oqim tezligini me'yorida ekanligiga ishonch hosil qiling.




Rasm 4. Kislorod bilan ta'minlash tezligini sozlash.

#### 5 - Qadam. Bemorning burun daxliziga burun konyulani



uchini kiriting.



Rasm 5. Bemor burniga konyulani kiritish.

Bemordan to'g'ri nafas olishni so'rang: burun orqali nafas oling, og'iz orqali nafas chiqaring (agar u konyula orqali nafas olayotgan bo'lsa). Bemorning ahvolini 5 daqiqa davomida kuzatib turing. Muolajani 40-60 daqiqa davomida olib boring.

#### Mumkin bo'lgan asoratlar:

- Og'iz va burun shilliq qavatining qurishi va yallig'lanishi.
- **Kislorodli intoksikasiya.**
- Nafas olish ritmini va yurak faoliyatining buzishlari.

### LYUMBAL PUNKSIYA

Lyumbal punksiya (orqa miya punksiyasi) - bel umurtqalar orasidan orqa miya kanaliga (subaraxnoidal bo'shlig'iga) mahsus igna kiritilishidir. Bu muolaja orqa miya suyuqligi, tarkibini diagnostika qilish, shuningdek davolash yoki anesteziya o'tkazish maqsadlarda amalga oshiriladi.

*Hozirgi paytda tibbiyotda neyrovizual usullarning keng joriy etilishi (kompyuter tomografiysi, magnit-rezonans tomografiya)* diagnostik lyumbal punksiyalarni sonini keskin kamayishiga olib keldi.

Umurtqa pog'onasining anatomik tuzilishi. Umurtqa pog'onasi 33 ta: 7 ta bo'yin, 12 kukrak, 5 bel, 5 dumg'aza va 4-5 dum umurtqa suyaklaridan iborat. Orqa miya punksiyasi bel umurtqalari sohasida amalga oshiriladi.

**Ko'rsatmalar:**

**Tashxis qo'yish maqsadida:**

a. Diagnostik maqsadda orqa miya suyuqligi olish.

- Neyroinfeksiyaga shubha qilingan taqdirda (**meningit**, ensefalit, neyrosifilis) va turli xil etiologiyali markaziy asab tizimining boshqa infeksiyalari).

• Subaraxnoidal qon quyilishlarda.

• O'smalarga shubha bo'lganda.

**Davolash maqsadlarida:**

a. Orqa miyani drenajlash.

• **Gidrosefaliya**

• Miyaning yolg'on o'smalari (**pseudotumor**).

b. Orqa miya kanaliga kontrast moddalar yoki dorilarni kiritish.

• **Rentgenokontrastlar**.

• Antibiotiklar.

• O'smagga qarshi ximioterapiya.

**Qo'llash mumkin bo'limgan holatlar:**

Agar miya dislokasiyasiga shubha bo'lsa lyumbal punksiya qat'yan man etiladi, chunki bosh miya bosimi oshgan vaqtin punksiya qilinsa orqa miya bosimini keskin kamayishi natijasidi uzunchoq miyaning katta teshikka (Foramen occipitale magnum) **tiqilishiga** va o'llimga olib keladi.


- Aloqalanmagan **gidrosefaliya**.
- Miyada hajmli jarayonga shubha qilinganda (o'sma, abscess, gematoma).
- Koagulopatiya yoki trombositlar soni  $<50 \times 10^3 / \text{mkl}$ .
- Punksiya joyida yallig'lanish jarayoni bo'lsa.
- **To'liq orqa miya bloki**.
- Ko'z nervi diskning shishishi.

**Anesteziya:**

Mahalliy. (0.5% novokain).


**Asbob-uskunalar:**

1. Steril qo'lqoplar;
2. **Xlorgeksidinning** 0,5% spirtli eritmasi;
3. 5 ml hajmli shprist va ular uchun ignalar;
4. Punksiya joyini anesteziya qilish uchun 0,5% novokain eritmasi;
5. Mahsus mandrenli (**Kvinke**) steril ignalar;
6. Orqa miya suyuqligini yig'ish uchun steril naychalar;
7. Leykoplastr, steril salfetkalar;




**Holati:**

- a. Bosh miya bosimini aniqlash uchun bemor yotgan holatda boshini oldinga ~~qo'sib~~, tizzalarini ko'krigiga olib borishi kerak.



Rasm 1. Yotgan holat.

b. Semiz bemorlarda yoki ko'p miqdorda likvor chiqarish lozim bo'lsa, o'tirgan holati afzalroqdir.




Rasm 2. O'tirgan holat.

---

#### Texnikasi:

1 - Qadam. Antiseptik eritma bilan punksiya sohasiga ishlov bering.



Rasm 3. Punksiya sohasini antiseptik bilan ishlov berish.

---

2 - Qadam. Yonbosh suyagining




yuqori qirralarini birlashtiruvchi chiziqni topping va o'rta chiziq bo'ylab L3-L4 yoki L4- L5 bel umurtqalarining o'tkir o'simtalarini paypaslab topping.




Rasm 4. Punksiya nuqtasini paypaslab topish.

**3 - Qadam.** Muolaja maydonini steril salfetkalar bilan yoping.



Rasm 5. Punksiya sohasini steril mato bilan chegaralash.

**4 - Qadam.** 1 ml 0,5% novokainni L 4 ning umurtqa pog'onasi ostiga bir barmoq kengligigacha (L4- L5 bo'shilg'i) teri ostiga yuboring. Keyin 3 ml 1% novokainni bir oz kranial yo'nalishda umurtqalararo bo'shliqqa ignani chuqur kiritib anestetikni yuboring.



Rasm 6. Punksiya sohasini mahalliy anesteziya qilish.

**5 - Qadam.** Terini anesteziya qilingan joyidan punkcion igna bilan tesling.  
*Igna uchining kesmasi*



yuqoriga qaratilgan bo'lishi lozim.




Rasm 7. Subaraxnoidal bo'shilq punksiyasi.

**6 - Qadam.** Ignani chuqurroq, hayolan qat'iy ravishda o'tkir o'simtalarga paralell ravishda (taxminan 15 ° burchak ostida)




kranal yo'nalishda kiritib boring. Igna yengil qarshilikni yengib o'tadi. Ignaning sariq bog'lama orqali subaraxnoidal bo'shilg'iga kirishi o'ziga xos sirpanib kirishi yoki ba'zan harakterli tovush bilan ham kuzatiladi.



Rasm 8. Punksiya ignasining tanaga nisbatan to'g'ri turishi.


**7 - Qadam.** Igna orqa miya kanaliga tushgandan so'ng, mandrenni olib tashlang va suyuqlik chiqishini kuzating. (Agar qon aralashmasi paydo bo'lsa, suyuqlikning keyingi chiqishini kuzatib boring, chunki likvorda qonning paydo bo'lishi travmatik punksiyadan darak beradi).



Rasm 9. Punksiya ignasining orqa miya kanaliga tushganligini tekshirish.

---


**8 - Qadam.** Chiqayotgan likvordan to'rtta probirkaga namuna olib laboratoriyaga tahlil qilish uchun yuboring.



Rasm 10. Orqa miya suyuqligini tahlillarga olish.


---

**9 - Qadam.** Mandrenni ignaga qayta qo'yib so'ngra ignani olib tashlang.



Rasm 11. Ignani qayta olish tartibi.

**10 - Qadam.** Punksiya joyini steril salfetka bilan yoping. Bemorni es-hushi, hayotiy funksiyalarini, ko'z qorachiqlar holati va ularning reaksiyalarini diqqat bilan nazorat qiling.



Rasm 12. Muolajani yakunlash.

#### Asoratlar va ularni bartaraf etish:

Agar texnika jarayoni buzilsa, punksiyadan keyingi orqa miya **xolesteatoma** rivojlanishi mumkin (lot. sholesteatoma medullae spinalis post punctionem), bu igna bilan epiteliali hujayralarining orqa miya bo'shlig'iغا tushishi tufayli yuzaga keladi.

##### a. Miyaning tiqilishi (dislokasiya)

Ko'z qorachig'inинг kengayishi, hushning buzilishi, Cushing triadasi (gipertoniya, bradikardiya, nafas olishining pasayishi) sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

- Darhol ignani olib tashlang va bosh qismini ko'taring.
- Diuretiklardan yuboring (laziks, mannitol).
- Havo yo'llarining o'tkazuvchanligini nazorat qilish, agar kerak bo'lsa – giperventilyatsiya o'tkazing.
- Neyroxirurgni shoshilinch maslahatini tashkillashtiring.

##### b. Nerv ildizining shikastlanishida (oyoqdan pastga tarqaladigan o'tkir og'riq)

- Darhol ignani olib tashlang.
- Agar og'riq doimiy bo'lsa, har 6 soatda 4 mg deksametazon bering. Dozani kamaytirib borib 4 - kun ichida bekor qiling.
- Agar og'riq bir necha kun davom etsa, elektromiografiya (EMG) ni qo'llashni ko'rib chiqing.

##### c. Bosh og'rig'ida

- Uzoq muddatlari yotoq tartibini tayinlang.
- Odatda og'riq bir necha soat ichida yo'qoladi, lekin bir necha kun davom etishi ham mumkin.

##### d. Aorta / arterianing teshilishida

- Ignani zudlik bilan chiqarib oling va gemodinamik nazorati ostida 4-6 soat dam bering.

# VIII - БОБ

## ANESTEZIOLOGIYA

1. Mahalliy anesteziya
2. Mahalliy anestetiklar
3. Terminal anesteziya
4. Infiltrasiyalovchi anesteziya
5. O'tkazuvchi anesteziya
6. Futlyar blokada
7. Epidural anesteziya
8. Spinal anesteziya

## MAHALLIY ANESTETIKALAR

Mahalliy anesteziya-markaziy asab tizimiga ta'sir qilmasdan, og'riq nervlari bo'ylab impulsrlarning uzatilishini bloklash orqali muolaja o'tkaziladigan sohasidagi og'riqni yo'q qilish usulidir.

Og'riqni yo'qotish uchun qanday usul va qanday anestetik modda qo'llanilishidan qat'iy nazar, har doim ikkita asosiy talabga javob berishi kerak:

- organizmga zararsiz va
- qaytar jarayon bo'lishi lozim.

### Og'riq qoldiruvchi vositalar.

Mahalliy anesteziya uchun asab to'qimalariga aniq selektiv, tanlab ta'sir ko'rsatadigan, uning funksiyasini vaqtinchalik buzadigan va og'riqni yo'q qilishga olib keladigan kimyoviy moddalar qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida bir necha o'nlab turli xil kimyoviy moddalar sintez qilingan. Anestetiklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Benzoy kislotaning murakkab efirlari (kokain).
2. Para-aminobenzoy kislotaning murakkab efirlari (novokain).
3. Aminobenzoy va benzoy kislotaning murakkab efirlari (dikain).
4. Aromatik aminlarning aminlari – anilidlar (lidokain).
5. Geterosiklik va aromatik kislotalarning amidlari (sovkain).

a) **Benzoy kislotasining efirlari.** Ushbu guruhga quyidagi asosiy muhim dorilar kiradi:



intubatsiyada qo'llaniladi. Oftalmologiyada 2-5% eritmasi, boshqa sohalarda esa 5-10% eritmasi ishlataladi. Novokain bilan solishtirganda (barcha mahalliy og'riqsizlantiruvchi moddalar novokain bilan ularning ta'siri, organizmnинг унга chidamliligi, toksikligi va boshqalar bilan taqqoslanadi) 2-3 barobar kuchliroqdir. Uning toksik dozası 0,04-0,08 ni tashkil qiladi.



**Procain** (синонимы: Novocain, Allocain, Atocain, Ethocain, Kerocain, Merocain, Neocain, Planocain, Polocain, Scurocain, Sevicain, Syncain ва бошкалар). Novokain suvda oson eriydi. Qayta sterilizasiya qilinganda uning ta'siri susayadi. U shilliq pardalarni ta'sir qilmaydi, ammo infiltrasiyalı mahalliy anesteziya uchun eng samarali va eng zaharsiz dori hisoblanadi va shuning uchun butun dunyoda jarrohlik amaliyotida keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda novokain

ham asetilkolinolitik, va simpatikolitik ta'sirga ega ekanligi ma'lum bo'ldi va shuning uchun u "blokator" sifatida ham qo'llaniladi. Novokainning tomirlarni kengaytiruvchi ta'siri borligi sababli, odatda vazokonstriktorlar bilan birlgilikda qo'llaniladi. Jigarda tez parchalanadi, tomir ichiga yuborilgach 1 soatdan so'ng parchalanib ketadi. Infiltrasiyali anesteziya uchun 0,25-0,5% eritmalar 400-200 ml dozada qo'llaniladi, bu 1 g ga teng. O'tkazuvchan anesteziya uchun 100-50-25 ml 1-2-4% li konsentrasiyali eritmalar ishlataladi. Anesteziya 5-10 daqqa ichida sodir bo'ladi. Konsentrasiyasiga va turiga qarab anesteziya o'rtacha bir soat davom etadi.

**b) Anilid hosilari.** Bu nisbatan yangi anestetik moddalar bo'lib, ulardan eng muhimlari:

**Lidocain** (sinonimi Xuocain). Bu kislotalar, ishqorlar yoki qaynatilganda ham o'z xususiyatlarini yo'qotmaydigan eng barqaror anestetik moddalardan biridir.

Uning gidroxloridi suvda oson eriydi. Novokain bilan solishtirganda, u 4 baravar kuchli va ayni paytda ikki barobar zaharlidir. Infiltrasiyali anesteziya uchun 0,25% eritmasi ishlataladi, oftalmologiya amaliyotda 2%, shilliq qavatlarni anesteziya qilish uchun 5-10% eritmalar ishlataladi. Uning ta'siri tez boshlanib 3-5 soatgacha davom etadi.



#### Mahalliy anesteziyaning klinik qo'llanilishi.

Mahalliy anesteziya shubhasiz afzallikkleri tufayli juda mashhur va keng tarqalgan. Hozirgacha jarrohlarning ba'zi bo'limlarida aksariyat mahalliy anesteziya ostida operatsiyalarni bajarilmoqda. Bu borada eng katta xizmat A.V. Vishnevskiy mifiktabiga tegishlidir. Mahalliy anesteziyaning afzallikkleri quyidagilardan iborat:

1. Bajarilishning oddiyligi, qulayligi va ishonchliligi;
2. Minimal toksiklikligi;
3. Qimmatbaho asboblar va jihozlar talab qilmaydi, mahsus o'qitilgan anesteziolarning yordami kerak emas;
4. Hamma joyda va har qanday sharoitda ham amalga oshirish mumkin: kasalxonada, ambulatoriyada, voqeа sodir bo'lган joyda, jang maydonida va hokazo.

#### Tabiiyki, mahalliy anesteziyaning ham kamchiliklari bor, ulardan shamiyatlari:

1. Anesteziya vaqtı bemorming hushi o'zida bo'lganligi tufayli psixik travmalarning kelib chiqishi;
2. Anesteziya sekin ta'sir qilganligi tufayli operatsiya davomiyligini sezilarli darajada uzaytiradi;
3. Ko'krak qafasida, to'sh ortida, yurak va yirik tomirlarda operatsiya vaqtı vujudga kelish mumkin bo'lgan shok holatlarda narkoz komponentlari qo'llanilmaganligi tufayli zudlik bilan gemodinamik buzilishlarini bartaraf etishning imkonи bo'lmaydi.

Mahalliy anesteziyaning ham o'ziga xos bir qator asoratlari ham bor, ularning eng muhimlari: dozani oshirib yuborish natijasida zaharlanish, eritmaning kutilmagan

tarzda tomir ichiga tushishi natijasida anestetik moddaning organizmga tarqalib toksik ta'sir qilishi. Anestetikka vazokonstriktorlarning qo'shilishi natijasida qon bosimining oshishi, buqoq kasalligi bilan og'igan bemorlarda taxikardiyaga olib kelishi mumkin; organizmning allergik va boshqa yuqori sezuvchanlik reaksiyalar paydo bo'lishi mumkin.

**Bemorlarni anesteziyaga tayyorlash.** Ko'pincha mahalliy anesteziyaga tayyorgarlik yuzaki yoki olib borilmaydi. Bu juda noto'g'ri. Bemorni anesteziyaga tayyorlashda ruhiy tayyorgarlik bilan bir qatorda, operatsiyadan oldingi premedikasiya ham muhim rol o'yynaydi. Umumiy narkozdagidek, bu yerda ham quyidagi tayyorgarliklar mutlaqo zarurdil:

1. Psixik qo'zg'aluvchanlikni susaytirish;
2. Vagus reflekslarini bartaraf qilish;
3. Anestetik moddaning toksik ta'sirini oldini olish.

Medikamentoz tayyorgarlikda barbituratlar, narkotik analgetiklar va atropin qo'llaniladi:

- Operatsiyadan ikki-uch soat oldin Luminal 100-200 mg ichishga.
- Morfin – 10 mg+ Atropin 1mg m/o operatsiya boshlanishidan 15 daqiqal oldin.

So'nggi paytlarda nafas olish markazining bloklanishini oldini olish uchun ushbu birikmadagi morfinni dolantin bilan almashtirilmoqda. Mahalliy anesteziyada "**potensirlangan narkoz**" yaxshi usul bo'lib, uning yordamida nafaqat psixik qo'zg'aluvchanlikni balki "nervus vagus" reflekslarini bloklaydi va anestetik moddaning toksik ta'sirini (qo'zg'aluvchanlik, talvasa, kollaps va nafas susayishi) oldini oladi.

## **TERMINAL ANESTEZIYA**

### **Terminal (applikatsiyali, yuzaki) anesteziya.**

Texnik jihatdan, to'qimalarni mahalliy anesteziya qilishning eng oddiy usuli yuzaki yoki applikatsiyali anesteziya bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, to'qimalarga anestetikni surtish yoki purkash yo'li bilan mahalliy og'riqsizlantirish keltirib chiqariladi. Shu maqsadda anestetikning turli shakllari (**eritmalar, malhamalar, gellar yoki aerozollar**) qo'llaniladi.

**Kamchiliklari.** Biroq, afzalliklar bilan bir qatorda, applikatsiyali anesteziyaning ham o'ziga xos kamchiliklarga bordir. Asosiy kamchiliklardan asosiysi, mahalliy anestetikning **toksik ta'siridir**.

**Farmakologik ta'siri.** Emla kremi faqat teri va shilliq pardalarni mahalliy anesteziya qilish uchun mo'ljallangan.

### **Ko'rsatmalari:**


1. Inyeksiyadan oldin: tomir ichiga, mushak ichiga va teri ostiga;
2. Lazerli epilyatsiyadan oldin;
3. Zararsiz teri o'smalarini jarrohlik yo'li bilan olib tashlashda gemangiomalar, papillomalar, hollar, lipomalar;

4. Venadan qon namunasini olish uchun kateterni kiritishdan oldin;
5. Jinsiy organlarning yuzaki shilliq pardalarida jarrohlik operatsiyalari paytida;
6. Yiringni, fibrin va o'lik to'qimalarni tozalashdan oldin.

**Qarshi ko'rsatmalar:**

1. Anestetik moddalarga yuqori sezuvchanlikda.
2. Terining yaxlitligini buzilishida (tirnalgan yoki gerpes).
3. Chala tug'ilgan bolalarda (38 haftagacha).
  - o Emla kremini ko'z atrofida qo'llash taqiqlanadi.
  - o Kremni qavoq va og'iz sohasiga qo'llash tavsiya etilmaydi.
  - o Kremni quloqqa surkash tavsiya etilmaydi.
  - o Bolalarning anus va jinsiy a'zolariga qo'llash taqiqlanadi.

**Preparat**



Rasm 1. EMLA kremini.

**EMLA** - eutectic mixture of local anesthetics, mahalliy anestetikning evtektik aralashmasi.

**Texnikasi.**

**1 - Qadam.** Anestetik qopqog'ini oching, himoya membranasini qopqoqni orqa tonomi bilan teshing.



Rasm 2. Anesteziya sohasini tayyorlash.

**2 - Qadam.** Emla anestetikini tananing shilliq qavatiga yoki **terining kerakli joyiga** siqib chiqariladi. Teri yuzasining 10 sm<sup>2</sup> uchun 1 dan 2,5 g gacha anestetikni surkang. So'ngra surkalgan yuzani kamida 5-10 daqiqa davomida okklyuziyali bog'lam bilan yoping, kichik muolajalar uchun 60 daqiqa davomida, terida kengroq operatsiyalari uchun 120 daqiqa ushlab turing.





Rasm 3. Anestetikni teriga surkash.

**3 - Qadam.** Okklyuziyali bog'lamni olib tashlang. Bog'lam 1 soat (yoki undan ko'proq) qoldirilganda og'riqsizlantirilish 2 soat davom etadi.



Rasm 4. Terini muolajaga tayyorlash.

- Teriga anestetik surkalgandan bir soat o'tgach, teri 0,2 sm chuqurlikgacha anesteziya bo'ladi;
  - 2 soat o'tgach, 0,3 sm chuqurlikda joylashgan nerv oxirlarida sezgirlikni yo'qoladi;
  - Shilliq qavatlarda 10 minut o'tgach, to'liq sezgirlik yo'qoladi.

**Dikain** (tetrakain, ametokain, pontokain) kuchli mahalliy anestetik bo'lib, faolligi bo'yicha novokaindan sezilarli darajada ustundir, lekin juda zaharli (novokainindan 10 barobar ko'p), fagat yuzaki anesteziya uchun ishlatiladi. Anestetik shilliq qavat yuzasiga purkalgach 0,5-1,5 minutdan so'ng anesteziya boshlanib 15-20 daqiqa gacha davom etadi.



**Oftalmologik amaliyotda** ko'z ichi bosimini o'lchashda 0,1% eritmasi bir tomchidan 2 marta 1-2 daqiqlik interval bilan, yot jismlarni olib tashlash va jarrohlik aralashuvlarda - 0,25% -0,5%-1,0% eritmasidan 2-3 tomchi qo'llaniladi. Anesteziya odatda 1-2 daqiqa da rivojlanadi. Qorachiqlar kengaymaydi, ko'z ichi bosimi pasaymaydi, akkomodasiyaga ta'sir qilmaydi.

**Otorinolaringologik amaliyotda** Dikain shilliq qavatlarga 3,0 ml gacha 1,0% eritmani (ba'zan 0,25% - 0,5%) purkash orqali va ba'zida jarrohlik yondashuvlar (gaymorov bo'shlig'i punksiya qilish, poliplarni olib tashlash, konxotomiya, o'rta qulqoq jarrohligi) uchun ishlatiladi.



**Stomatologiyada:** og'iz shilliq pardalarning mahalliy anesteziya qilish uchun, og'iz bo'shlig'i jarrohligi (yuzaki absseslarni ochish, sut tishlarni olib tashlash, suyak bo'laklarini olib tashlash va shilliq pardalar jarohatlarini tikish), tish qoplamlari yoki ko'priklarini mahkamlash uchun **milklni anesteziyasida** ishlatiladi. Kattalardagi dikainning yuqori dozasi 0,09 g (3,0 ml 3,0% eritma).

### Nojo'ya ta'sirlari

Mahalliy reaksiyalar: ko'pincha - preparat qo'llangan joyda qizarish va shishishlar (yuzaki tomirlarga ta'siri tufayli); ba'zida - qichishish; kamdan-kam hollarda - gemorragik toshmalar yoki nuqtasimon qon quyilishlar, ayniqsa keng tarqalgan neyrodermatit bilan og'rigan bolalarda uzoq muddat applekasiya qo'llashdan keyin kuzatiladi. Ba'zida allergik reaksiyalar paydo bo'ladi (og'ir holatlarda - anafilaktik shok).

1. Agar anestetik ko'zga tushsa, darhol ularni iliq oqar suv bilan yuvish lozim va sezuvchanlik normallashishi uchun 1-1,5 soat kutish kerak.

2. Agar anestetikni teriga surtgandan keyin qizarish va qichish paydo bo'lsa, soha iliq suv bilan yuviladi va qizarishlar yo'qolguncha kutiladi.

## INFILTRATSIYALI ANESTEZIYA

Mahalliy **infiltrasiyalovchi** anesteziya tibbiyotda keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha nervlar blokadasidan (regionar anesteziya) bajarilishi jihatdan oddiyroq va oson usul hisoblanadi.

Infiltratsion anesteziya to'qimalarda nerv oxirlari va nerv tolalariga anestetik moddalarni singdirib anesteziya qilishdan iborat. Amaliyotda novokainning 0,25-0,5% eritmasi ishlatiladi.

### Ko'rsatmalar

1. Jarrohlilik yo'li bilan davolanadigan jarohatlar yoki boshqa tanadagi muolajalar.

2. Yot jismni tanadan olib tashlash.

3. Kesish va drenajlash.

### Qarshi ko'rsatmalar

#### Mutlaq

\* Anamnezdan shu preparatga allergiyasi **bo'lganda** (boshqa anestetikni tanlash lozim).

#### Nisbiy

\* Katta jarohatlar (ko'p miqdorda anestetik ishlatilishi zaharlanishga olib kelishi mumkin).

- Aniq anatomik nuqsonni tiklash talab qiladigan jarohatlar (masalan, lablarning kosmetik tiklashda), anestetik infiltrasiyasi natijasida topografiyaning buzilish.




Rasm 1. Asbob-uskunalar.

### **Asbob-uskunalar**

1. Steril bo'lмаган qo'lqoplar.
2. Ko'rsatmalarga muvofiq himoya vositalari (masalan, yuz niqobi, ko'zynak, qalpoq va xalat).
3. Antiseptik eritma (masalan, xlorgeksidin, povidon-yod, etanol spirti).
4. Anestetikni yuborish uchun shprist (masalan, 1 dan 10 ml gacha) va igna (masalan, 25 yoki 27 kalibrli).
5. Inyeksiyon mahalliy anestetik (masalan, 0,25-0,5% novokain eritmasi).

### **Anatomik ahamiyati**

- Anestetiklarni teri orasiga yuborish bemor uchun og'riqlidir. Og'riqni kamaytirish uchun avval anestetikni teri ostiga kiritish lozimdir.



Rasm 2. Ignaning to'g'ri yo'nalishi.

### **Anesteziya vaqtি bemorning holati**

- Bemorning holati vrach uchun qulay va soha yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak.



### Bosqichma-bosqich texnikasi

**1 - Qadam.** Qo'lqop kiying va tegishli himoya vositalaridan foydalaning.





Rasm 3. Xavfsizlik choralarini qo'llash.

**2 - Qadam.** Terini antiseptik eritma bilan markazdan periferiyaga qaratib doira ko'rinishida harakat qilib ishlov bering.




Rasm 4. Sohaga ishlov berish.

**3 - Qadam.** Anestetik solingen shpristni teriga bir oz burchak ostida ushlang.




Rasm 5. Ignanining to'g'ri yo'nalishi.

**4 - Qadam.** Ignani to'g'ridan-to'g'ri kesiladigan maydonga kiritib boring.




Rasm 6. Ignaning kesish sohasiga yo'nalishi.

**5 - Qadam.** Anestetikni tomirga tushmaganligiga ishonch hosil qilish uchun shprist porshenini biroz tortib so'ngra anestetikni yuboring.




Rasm 7. Aspiratsion proba o'tkazish.

**6 - Qadam.** Bitta igna bilan anesteziya hosil qilish uchun kiritilgan ignani terining anesteziya qilinmagan qismiga yo'naltiring. Kesish maydonini to'liq anestetik bilan shmdirishda davom eting.



Rasm 8. Kesma atrofiga anestetikni infiltrasiya qilish.

**7 - Qadam.** Anesteziya bir necha daqiqadan so'ng kuchga kiradi. Anestetikni to'qimalarga tarqalishiga yordam berish uchun siz inyeksiya joyidagi terini barmoq uchi bilan yumshoq massaj qilishingiz mumkin.



Rasm 9. Anestetikni massaj qilib tarqatish.

#### Asoratlari:

1. Anestetikning organizmga salbiy reaksiyalari.
2. Anestetikning dozasining oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlar (masalan, talvasalar, aritmiyalar) yoki adrenalin tufayli yuzaga kelgan simpatomimetik holatlar.
3. Anestetikning tomir ichiga tushishi.
4. Gematoma.
5. Igna infeksiyalangan joydan o'tganda infeksiyaning organizmga tarqalishi.

#### Maslahatlar va tavsiyalar:

1. Ignani to'g'ridan-to'g'ri jarohatning toza qismidan kiritib boring. Bu kamroq og'riqli va infeksiya tushish xavfini kamaytiradi.
2. Ignani jarohatning o'qi bo'ylab yo'naltiring, jarohatning har tomonida anestesiyanı ta'minlash uchun faqat bir marta inyeksiya (yoki minimal miqdordagi inyeksiya) qiling.
3. Anestesiya vaqtı jarohatni yuvish va tozalash mumkinligini hisobga oling, chunki bu muolajalar juda og'riqli bo'lishi mumkin.
4. Bemorda og'riqni minimal darajaga tushirish uchun anestetikni sekin-asta yuboring (masalan, 30-60 soniya) va anestetik eritmani tana haroratida isiting.

### O'TKAZUVCHI ANESTEZIYA

**Lukashevich—Oberst** usuli bilan barmoqlar anesteziyasi, o'tkazuvchi anesteziya turiga kiradi. Qo'l va oyoq barmoqlarining distal va o'rta barmoqlarida operatsiya vaqtı qo'llaniladi. Anestetikni to'g'ridan-to'g'ri jarrohlilik amaliyoti o'tkaziladigan sohaga tegishli ushbu sohani innervatsiya qiladigan nervlar yoniga yuboriladi.

#### Ko'rsatmalar:

1. Panaritsiya bo'lganda barmoqdagi operatsiyalarda.
2. Barmoqlardagi jarohatlarga ishlov berishlarda.

#### Qarshi ko'rsatma:

Barmoqlarning neyrovaskulyar tutamlarining shikastlanishlarda.

#### Anesteziya:

Mahalliy anestetik, lidokain 1-2% adrenalinsiz.

**Asbob-uskunalar:**




Rasm 1. Asboblar to'plami.

1. Steril bo'limgan qo'lqoplar.
2. Ko'rsatmalarga muvofiq himoya vositalari (masalan, yuz niqobi, ko'zynak, qalpoq va xalat).
3. Antiseptik eritma (masalan, xlorgeksidin, povidon-yod, etanol spirti).
4. Anestetikni yuborish uchun shprist (masalan, 1 dan 10 ml gacha) va igna (masalan, 25 yoki 27 kalibrli).
5. Inyeksion mahalliy anestetik (masalan, 0,25-0,5% novokain eritmasi).

**Anesteziya vaqtি bemorning holati**

Chalqancha, qo'l tanaga nisbatan to'g'ri burchak ostida yoyilgan.



Rasm 2. Bemorning holati.

**Texnikasi:**

**1-Qadam.** Barmoqning tagidan



jgut bilan qisiladi. Barmoq antiseptik eritma bilan ishlov beriladi.



Rasm 3. Barmoqqa ishlov berish bosqichi.

**2-Qadam.** Kaftning orqa tomonidan barmoq asosiga anestetikning qavatma-qavat infiltrat hosil qilinib kiritilib boriladi.




Rasm 4. Anesteziya bosqichi.

**3-Qadam.** Teri va teri osti to'qimalar anesteziyasidan so'ng, ignani barmoq yuzasiga perpendikulyar yo'nalishda kiritib ignaning tomirga tushmaganligiga ishonch hosil qilish uchun shpristda aspiratsiya qilib ko'ring. Barmoq nervlari yo'nalishlari bo'ylab to'qimalarga 1% lidokain eritmasini yuboring.



Rasm 5. O'tkazuvchi anesteziya bosqichi.

**4-Qadam.** Barmoqning yon tomoniga anestetikni kiritib bo'lgach xuddi shu tartibda ikkinchi tomoniga ham anestetikni kirititing. **Ikkala tomon** uchun odatda 4 ml 1% novokain yoki lidokain, trimekain (adrenalinsiz) eritmasi ishlataladi.



Rasm 6. Ikki tomonlama nerv blokadasi.

Shunday qilib, lidokain barmoqning lateral yuzasi bo'ylab joylashgan nervlariga yaqin joyga yuboriladi. Anesteziya davomida katta hajmdagi anestetik eritmani kiritmaslik lozim, jgutni uzoq vaqt ishlatmasligingiz kerak, chunki bu barmoqning qon bilan ta'minlanishini buzishi mumkin.

### Asoratlar va ularni bartaraf etish

Anestetikning tomir ichiga tushishi yoki dozasini oshirib yuborishda:

- Toksikozning dastlabki belgilari bosh aylanishi, holsizlik, paresteziya, mushaklarning titrashi; keyinchalik talvasalar va yurak-qon tomir yetishmovchiliklari, kollaps rivojlanishi mumkin.
- Muolajani to'xtating va 100% kislород bilan giperventilasiya qiling.
- Talvasa kuzatilganda tomir ichiga diazepamni (0,1-0,3 mg / kg) hisobidan yuboring.
- Agar kerak bo'lsa, reanimatsiya tadbirlarini o'tkazing. Anestetikning ta'siri vaqt o'tishi bilan susayib boradi.

### NOVOKAINLI G'ILOFLI (FUTLYAR) BLOKADA

A.V. Vishnevskiy ning futlyar novokain blokadasi qo'l-oyoqlardagi operatsiyalarda og'riqsizlantirishning asosi bo'lib, anestetikni infiltrasiya usuli yordamida kesma davomida qatlam bo'ylab kiritib amalga oshiriladi.

Qo'l-oyoqlarning novokainli futlyar blokadasi - tinchlik yoki urush davrida shuningdek, tabiiy ofatlar paytida ommaviy jarohatlanganlarda oyoq-qo'llarning jarohatlanishi natijasida travmatik shokning oldini olish va davolashning samarali usuli hisoblanadi.

#### Ko'rsatmalari:

1. Qo'l-oyoqlarning distal qismlarining o'tkir yallig'lanish jarayonlarida,
2. Zaharli ilon va chayon chaqishlarda,
3. Qo'l-oyoqlarning kuyishi va muzlashlarida,
4. Naysimon suyaklarning sinishi va chiqishlarda.
5. Fantom og'riqlarida,
6. Endarterit, sekin granulyatsiyalanuvchi yaralar va jarohatlar.

7. Travmatik amputatsiyalar.

**Qo'llash mumkin bo'limgan holatlar:**

1. Flegmonaning "yetishgandan" keyingi davrlarida;
2. Organizmda tizimli infeksiyasi bo'lsa - faol sil kasalligi va boshqalar;
3. Turg'un arterial gipertenziya (qon bosimining oshishi) da;
4. Homiladorlik va emizish davrlarida;
5. 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda;
6. Anestetikka allergiyasi bo'lganda.

**Asbob-uskunalar.**



Rasm 1. Asboblar to'plami.


1. Steril qo'lqoplar.
2. Ko'rsatmalarga muvofiq himoya vositalari (masalan, yuz niqobi, ko'zoynak, qalpoq va xalat).
3. Antiseptik eritma (masalan, xlorgeksidin, povidon-yod, etanol spirti).
4. Anestetikni yuborish uchun shprist (masalan, 1 dan 10 ml gacha) va igna (masalan, 25 yoki 27 kalibrli).
5. Inyeksion mahalliy anestetik (masalan, 0,25-0,5% novokain eritmasi).  
Futlyar novokain blokadasining texnikasi qanday a'zoning qaysi anatomiq qismidagiligiga (yelka, bilak, son yoki pastki oyoq) qarab o'zgaradi.

**Yelkaning novokainli futlyar blokadasi**


**1-Qadam.** Bemor orqa tomoniga yotqiziladi, oyoq-qo'l bo'g'imlari to'g'rilanadi va tanadan bir oz uzoqlashtiriladi.



Rasm 2. Bemorning holati.



**2-Qadam.** Shifokor muolajani barcha aseptik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirish lozim. Qo'llar tozalanadi, niqob va steril qo'lqop kiyiladi. Punksiya joyidagi teriga yodning spirtli eritmasi bilan keng ishlov beriladi.




Rasm 3. Muolaja maydoniga aseptik ishlov berish.

**3-Qadam.** Muolaja maydoni steril sochiq bilan qoplanadi.




Rasm 4. Punksiya joyini steril salfetka bilan yopish.

**4-Qadam.** Blokada shikastlanish joyidan yuqoriroqda amalga oshiriladi. Yelka blokadasida yelkaning old va orqa yuzalardagi ikki nuqtadan amalga oshiriladi. Novokain yelkaning oldingi yuzasida bukvuchi mushaklar qobiqlariga va orqa yozuvchi mushaklar qobiqlariga (100-120 ml 0,25% eritma) yuboriladi. Bilak tirsak bo'g'imida egilgan holda, anestetik eritma ingichka igna bilan yelkaning old yuzasiga, uning o'rta uchligidan, neyrovaskulyar to'plamming o'tish joyidan chetroqda, anestetik bilan «limon po'stlog'i» hosil qilinadi.




Rasm 5. Punksiya joyini og'riqsizlantirish.

**5-Qadam.** Uzun ignani ikki boshli yelka mushagidan o'tkazib suyakkacha kiritilib boriladi va oldingi mushak qobig'ini novokain bilan to'ldiring, to'liq infiltrat hosil qilinadi.




Rasm 6. Yelkaning oldingi mushak qobig'iga novokainni yuborish.

**6-Qadam.** So'ngra, qo'lni to'g'rilaqan holda, yelkaning uch boshli mushagi orqali orqa mushak qobig'iga novokain yuboriladi.



Rasm 7. Yelkaning orqa mushak qobig'iga novokainni yuborish.

**7-Qadam. Ikkala mushak qobig'iga**



100-120 ml gacha 0,25% novokain eritmasi yuboriladi.

Rasm 8. Novokainni yelkada taqsimlash sxemasi (kesim).

**8-Qadam.** Blokadadan so'ng, oyoq-qo'lni immobilizasiya qilish tavsiya etiladi.



Rasm 9. Oyoq-qo'lni bog'lash va immobilizasiya qilish.

Futlyar blokadada maksimal anestetik ta'sir 10-15 daqiqadan so'ng paydo bo'ladi. Bu holatda erishilgan anestetik darajasi ko'pincha jarrohlik yondashuvi uchun yetarli bo'lmaydi. Ekstremal holatlarda operatsiyalar paytida futlyar blokada anesteziyaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### Blokadan keyin qanday salbiy oqibatlar bo'lishi mumkin?

Asoratlari kam, faqat 0,5% holatlarda yuzaga keladi. Bu anestetikning nojuya ta'siri oqibatida bosh aylanishi, quisish yoki aritmiyalar kabi kutilmagan reaksiyalar paydo bo'lishi mumkin. Inyeksiya joyida qon tomirlarining shikastlanishi natijasida gematoma, infeksiya va qon ketishlar kuzatilishi ham mumkin.

## EPIDURAL ANESTEZIYA

**Epidural** (sinonimlari: peridural, ekstradural, paradural) **anesteziya** - bu usul regionlar anesteziyaning bir turi bo'lib, anestetikning epidural bo'shilqqa mahsus igna yoki kateter orqali (uzoq vaqlli anesteziya) kiritib, tananing ma'lum qismlarida inervatsiya qiluvchi nervlarning bloklash hisobiga anesteziya chaqirish usullaridan biridir. Muolaja og'riq hissini yo'qotish (og'riqsizlantirish), umumiyo sezuvchanlik (anesteziya) va mushaklarning bo'shashishi (miorelaksatsiya) bilan namoyon bo'ladi.

**Anatomik ahamiyati.** Orqa miya (lotincha "columna vertebralis", sinonimi – umurtqa pog'onasi) **33 umurtqa suyaklaridan iborat:** 7 bo'yin (C), 12 ko'krak (T), 5 bel, 5 sakral, 4-5 dumg'aza. Anesteziyani umurtqa pog'onasining barcha to'rt qismida ham amalga oshirilishi mumkin.

#### EA uchun ko'rsatmalar:

1. Ko'krak qafasi, qorin, chanoq a'zolari, oyoqlarda bajariladigan jarrohlik yondashuvlarda.

2. Surunkali og'riqni davolash maqsadida.

3. Tug'ruq vaqtı og'riqni bartaraf etish uchun.

4. Operatsiyadan keyingi davrda og'riqni bartaraf etish.

#### Orqa miya anesteziyasiga mutlaq qarshi ko'rsatmalar:


1. Bemorning ushbu tur anesteziyasidan bosh tortishi.

2. Anesteziya uchun shart-sharoitlarning yo'qligi (monitor va zarur dori-darmonlarning yo'qligi, xodimlarning malakasi yetarli emasligi).
3. Gipovolemiya (qon yo'qotish, suvsizlanish va boshqalar).
4. Koagulopatiya (qon ivishining buzilishi).
5. Antikoagulyantlar bilan davolanish davrida.
6. Sepsis.
7. Bakteremiya.
8. Punksiya joyida terining infeksiyasi.
9. Intrakranial bosimning oshishi.
10. Mahalliy anestetikga allergik reaksiyasi bo'lganda.
11. Bradikardiya, yurak ritmining buzilishi.
12. Distress, homila gipoksiyasi.
13. Markaziy asab tizimining kasallikkleri.

#### Anesteziya:

Mahalliy. (0,5% novokain eritmasi).


#### Asbob-uskunalar:



1. Steril tibbiy qo'lqoplar.
2. Ko'sratmalarga muvofiq himoya vositalari (yuz niqobi, ko'zoynak, qalpoq va xalat).
3. Terini asseptik ishlovi uchun **xlorgeksidin** eritmasi.
4. 5 ml hajmli 5 shprist va ular uchun ignalar.
5. 0,25% yoki 0,5% novokain eritmasi;
6. **Tuoxi** tipidagi **mandrenli** mahsus steril ignalar.
7. Leykoplaster, steril doka va qurutqichlar.

#### Holati:

- a. Bemor yonbosh yotgan holatida bo'lishi kerak.



Rasm 1. Yotgan holati.

- b. Semizligi bo'lgan bemorlarda o'tirgan holati afzalroqdir.




Rasm 2. O'tirgan holati.

### Texnikasi

**1 - Qadam.** Anesteziolog (qalpoq, niqob va steril qo'lqop kiygan) bemorning orqa tomonida (!) o'tiradi. Bemorning tanasi to'g'ri joylashgandan so'ng, punksiya joyi belgilanadi, bu orqa miya ildizlarini bloklash uchun tahmin qilingan umurtqa suyagi - o'simtalar aro




bo'shliqdir.



Rasm 3. Punksiya joyini aniqlash.

**2- Qadam.** Antiseptik eritma bilan punksiya joyidan kengroq maydonga ishlov bering, teri quriguncha kuting va aynan punksiya joyini qaytadan antiseptikdan qolgan izlarni butunlay tozalab tashlang. **Diqqat:** dezinfeksiyalovchining vositalarning epidural bo'shliqqa tushishi hayot uchun xavflidir.




Rasm 4. Punksiya joyini antiseptik bilan ishlov berish.

**3 - Qadam.** Punksiya maydonini va bel qismlarni steril salfetkalar bilan yoping. Qo'llaringizni antisептиклар bilan tozalang.



Rasm 5. Punksiya joyini sterilligini ta'minlash.


**4- Qadam.** Shpristga yuzaki anesteziya uchun anestetik eritmasini torting. Teridan boshlab qavatma-qavat 1 ml 0,5% novokainni umurtqa pog'onasi o'tkir o'simtalari orasiga kiritib boring. So'ngra 3 ml 1% novokainni bir oz markaz yo'nalishi bo'yicha o'tkir o'simtalari orasiga chuoqurroq yuboring .



Rasm 6. Punksiya joyi anesteziyasi.


**5- Qadam.** Mahsus mandrenli igna bilan terining anesteziya qilingan joyidan punksiya qiling.

 Igna uchi yuqoriga qaratilgan bo'lishi lozim. Punksion ignani kiritishdan oldin terini skalpel bilan kichik kesma qiling yoki ignani aylantirgan holda kiriting. Ignadan mandrenni olmang, o'tkir o'simtalar orasidan o'tguncha chiqarmang. (Igna o'tkir o'simtalar orasidan o'tishda o'ziga xos qarshilik va tovush sezildi).




Rasm 7. Mandrenli igna bilan punksiya qilish.

**6- Qadam.** Ignadan mandrinni olib tashlang, 10 ml li shpristni (0,9% natriy xlорid eritmasi bilan to'ldirilgan) ignaga ulang, ignani kiritishni davom ettiring, shu bilan birga shprist porshenini doimiy bosib turing (**mutlaq qarshilik!**; igna sariq bog'lamdan o'tgach, to'qimalarning qarshiligi keskin pasayadi, shprist porshenida qarshilik yo'qoladi - epidural bo'shliqqa tushdingiz.



Rasm 8. Izotonik eritma va havo pufakchasi bo'lgan shpristni ignaga biriktirish.

**7 - Qadam.** Igna epidural bo'shliqqa tushgach ignani oldinga siljitimni to'xtatib, shpristni ignadan ajratib, ignani mahkam ushlang. (Diqqat: igna uchi bilan orqa miya qattiq pardasi orasida bir necha millimetrr bor!)



Rasm 9. Havo pufagi yo'qolganidan keyin shpristni ajratish.

**8 - Qadam.** Kateterni punksion igna ichidan **epidural bo'shliqqa** kranial yo'nalişhda sekinlik bilan kriting (igna uchidan taxminan 3-4 sm uzunlikda; igna va kateterning mahsus uzunlik belgisiga e'tibor qiling); kateterni juda ko'p kirimang (diqqat: kateter yon tomonga og'ib, qattiq pardani teshib qo'yishi mumkin).



Rasm 10. Epidural kateterni kiritish.

**9 - Qadam.** Kateterni kiritib bo'lgandan so'ng, kateterni qoldirib ignani chiqarib oling. Kateter orqali anestetikning sinov dozasini kriting va natijalarni baholang, so'ngra anestetikning qolgan dozasini yuborib kateterni mahkamlang (fiksatsiyalang).




Rasm 11. Anestetikning sinov dozasini yuborish.

**10 - Qadam.** Kateterning teridan chiqish joyidan steril salfetka bilan yoping yoki mahsus sterill "ishtoncha" bilan asseptik fiksasiya qiling. Kateterni umurtqa pog'onasi bo'y lab joylashtirib, yelkadan chiqarib qo'ying, kateterning butun uzunligi bo'y lab yopishqoq lenta (lekoplastr) bilan mahkamlang. Kateterning



tashqi uchini tizin bilan yoping.



Rasm 12. Kateterni mahkamlash.

#### Asoratlarlar va samarasizliklar:

Epidural bo'shliqni kateterizasiya qilish texnikasiga xos bo'lgan natijasiz texnik urinishlar (epidural punksiya to'g'ri bajarilgan holda):

1. Kateterning epidural bo'shliqdan tashqariga chiqishi. Bunda kateterdan ignani chiqarib olish vaqtida kateterning epidural bo'shliqdan chiqib ketishi yoki kateterni epidural bo'shliqqa haddan tashqari chuqur (5 sm. dan ortiq) kiritilganda paydo bo'lishi mumkin;

2. Kateterning buralib qolishi. Bu ham kateterni haddan tashqari epidural bo'shliqqa chuqur kiritilganda sodir bo'ladi;

3. Kateterni intervertebral teshikdan o'tib ketishi (ep. bo'shliqqa tushmasligi). Klinik belgisi - shu tomondan nerv ildizining paresteziyasi, o'tkir og'riq sifatida seziladi;

4. Kateterning o'tkazuvchanligi buzilgan. Bunda – kateter uchi egilib qolganda yoki - qon laxtasi bilan kateterning tiqilib qolishida kuzatiladi;

*Bularning barchasi rentgen tekshiruvi paytida ko'rildi va aniqlanadi (kateter rentgen nurlarini o'tkazadi shuning uchun kateter orqali kontrast modda kiritilib tekshiriladi). Kateterning joylashishi va o'tkazuvchanligini uni qisman tortib va bir vaqtning o'zida anestetikni asta-sekin yuborish orqali tuzatilishi mumkin.*

1. Infeksiya tufayli asoratlар - epidurit, meningit, abscess. Bu asoratlар aseptika va antiseptika qoidalari buzilganda rivojlanadi.

2. Epidural gematomalar (qarshi ko'rsatmalar e'tiborga olinmaganda).

3. Epidural bo'shliqqa kiritilgan dorilarning toksik ta'siri. Aspiratsiya testi va anestetikning sinov dozasini yuborish orqali bartaraf etiladi.

4. Anestetikning orqa miyaga to'liq tushishi natijasidagi total spinal blok rivojlanishi. Organizmnинг hayotiy funksiyalarini zudlik bilan tiklash, nafas buzilishi va gemodinamikani tiklash lozim.

5. Nevrologik asoratlар (bosh og'rig'idan paraplegiyagacha). Ular nerv va tomirlarning igna yoki kateter bilan zararlanishi natijasida paydo bo'ladi yoki, yuboriladigan dori vositalari bilan nerv hujayralarining kimyoiy shikastlanishi va orqa miya arteriyasining spazmi natijasida rivojlanadi.

6. Siydkning tutilishi.

7. Qon bosimining pasayishi, bradikardiya.

### **ORQA MIYA ANESTEZYASI (LYUMBAL)**

Orqa miya anesteziyasi (lyumbal) - bel umurtqalar orasidan orqa miya kanaliga (subaraxnoidal bo'shlig'iغا) mahsus igna orqali anestetik kiritilishidir. Bu muolaja anesteziya o'tkazish maqsadlarda amalga oshiriladi.

Umurtqa pog'onasining anatomik tuzilishi. Umurtqa pog'onasi 33 ta: 7 ta bo'yin, 12 ko'krak, 5 bel, 5 dum'aza va 4-5 dum umurtqa suyaklaridan iborat. Orqa miya punksiyasi bel umurtqalari sohasida amalga oshiriladi.

#### **Ko'rsatmalar:**

#### **Operativ yondoshuvlarda:**

1. Oyoqlarning turli qismlarida.
2. Son-chanoq bo'g'imida.
3. Oralidqa.
4. Qorin bo'shlig'i yuqori qismlarida.
5. Umurtqaning bel qismlarida.

#### **Spinal anesteziyaga mutloq qarshi ko'rsatmalar:**

1. Bemor bu tur anesteziyaga norozi bo'lganda.


2. SA uchun sharoitlar bo'limganda (monitorlarning bo'lmasligi, kerakli dori vositalari, vrachning tajribasi yetishmaganda.)
3. Gipovolemiya (qon ketishlar, suvsizlanishlar)
4. Koagulopatiya (qon ivishining buzilish holatlari).
5. Antikoagulyantlar bilan davolayotganda.
6. Sepsis.
7. Bakteriyemiya.
8. Punksiya joyida infeksiya bo'lishi.
9. Bosh miya bosimining oshishlari.
10. Mahalliy anestetiklarga allergiya bo'lganda.
11. Bradikardiya, yurak ritmining buzilishlari.
12. MAT kasallikkleri.

**Anesteziya:**

Mahalliy. (0,5% novokain).

**Asbob-uskunalar:**

1. Steril qo'lqoplar;
2. Xlorgeksidinning 0,5% spirtli eritmasi;
3. 5 ml hajmli shprist va ular uchun ignalar;
4. Punksiya joyini anesteziya qilish uchun 0,5% novokain eritmasi;
5. Mahsus mandrenli (Kvinke) steril ignalar;
6. Leykoplastr, steril salfetkalar;



**Holati:**

- a. Bosh miya bosimini aniqlash uchun bemor yotgan holatda boshini oldinga egib, tizzalarini ko'kragiga olib borishi kerak.



Rasm 1. Yotgan holat.


- b. Semiz bemorlarda yoki ko'p miqdorda likvor chiqarish lozim bo'lsa, o'tirgan holati afzalroqdir.



Rasm 2. O'tirgan holat.


**Texnikasi:**

**1- Qadam.** Antiseptik eritma bilan punksiya sohasiga ishlov bering.



Rasm 3. Punksiya sohasini antiseptik bilan ishlov berish.

**2- Qadam. Yonbosh suyagining**




yuqori qirralarini birlashtiruvchi chiziqni toping va o'rta chiziq bo'ylab L3- L4 yoki L4- L5 bel umurtqalarining o'tkir o'simtalarini paypaslab toping.




Rasm 4. Punksiya nuqtasini paypaslab topish.

**3- Qadam.** Muolaja maydonini steril salfetkalar bilan yoping.



Rasm 5. Punksiya sohasini steril mato bilan chegaralash.

**4- Qadam.** 1 ml 0,5% novokainni L4 ning umurtqa pog'onasi ostiga bir barmoq kengligigacha (L4- L5 bo'shlig'i) teri ostiga yuboring. Keyin 3 ml 1% novokainni bir oz kranial yo'nalishda umurtqalararo bo'shliqqa ignani chuqr kiritib anestetikni yuboring.



Rasm 6. Punksiya sohasini mahalliy anesteziya qilish.


**5- Qadam.** Terini anesteziya qilingan joyidan punksion igna bilan tesling. Ignat uchinging kesmasi

yuqoriga qaratilgan bo'lishi lozim.




Rasm 7. Subaraxnoidal bo'shliq punksiyasi.

**6- Qadam.** Ignani chuqurroq, hayolan qat'iy ravishda o'tkir o'simtalarga paralell ravishda (taxminan  $15^{\circ}$  burchak ostida)





kranial yo'nalishda kiritib boring. Igna yengil qarshilikni yengib o'tadi. Ignaning sariq bog'lama orqali subaraxnoidal bo'shlig'iga kirishi o'ziga xos sirpanib kirishi yoki ba'zan xarakterli tovush bilan ham kuzatiladi.




Rasm 8. Punksiya ignasining tanaga nisbatan to'g'ri turishi.

**7- Qadam.** Igna orqa miya kanaliga tushgandan so'ng, mandrenni olib tashlang va suyuqlik chiqishini kuzating. (Agar qon aralashmasi paydo bo'lса, suyuqliknинг keyingi chiqishini kuzatib boring, chunki likvorda qonning paydo bo'lishi travmatik punksiyadan darak beradi).




Rasm 9. Punksiya ignasining orqa miya kanaliga tushganligini tekshirish.

**8- Qadam.** Ignaga shprist ulab subaraxnoidal bo'shliqqa avvaldan hisob qilingan anestetikni yuboring.




Rasm 10. Anestetikni subaraxnoidal bo'shliqqa yuborish.

**9- Qadam.** Mandrenni ignaga qayta qo'yib so'ngra ignani olib tashlang.



Rasm 11. Ignani qayta qo'yish tartibi.

**10- Qadam.** Punksiya joyini steril salfetka bilan yoping. Bemorni es-hushi, hayotiy funksiyalarini, ko'z qorachiqlar holati va ularning reaksiyalarini diqqat bilan nazorat qiling.



Rasm 12. Muolajani yakunlash.

**Asoratlar va ularni bartaraf etish:**

**I. Erta asoratlari:**

Ko'ngil aynishi va qayt qilish.

**Asoratlar va ularni bartaraf etish:**

1. Erta asoratlari:

a) ko'ngil aynishi va qayt qilish.

**Sababli:**

Dori vositalarining quşish markaziga bevosita ta'siri.

Miya perfuziyasining buzilishi (gipotensiya, bradikardiya).

**Davolash:** quşishga qarshi preparatlarni buyurish, gipotensiya va bradikardiya sababini bartaraf etish.

**Qon aylanishining buzilishi**

a) Arterial gipotensiya - qon bosimining 90 mm.sim.ust. dan past bo'lishi, miya ishemiyasi belgilarining kuchayishi.

**Davolash:** oksigenoterapiya 1 daqiqada 6 - 7 litrgacha ingalyasiya. Infuziya tezligini oshirish. Vazopressorni qo'lllash.

b) Bradikardiya - yurak urishining 1daqiqada 50 dan kam bo'lishi.

**Sababi:**

Yurakning efferent simpatik innervasiyasini blokadasi va kardio – kardial refleks.

Davolash: atropin, efedrin, kerak bo'lganda – adrenalinni qo'llash.

v) Vazovagal senkopa – bemorning emotsiyal labilligi tufayli hushidan ketish.

**Davolash:** yordamchi yoki sun'iy o'pka ventilyatsiyasi kislorod bilan, oyoqlarni ko'tarish, atropinni vazopressorlar bilan yuborish.

**Nafas olishning buzilishi**

a) Nafas olish markazining o'tkir ishemiyasi.

**Sababli:** qon aylanishining buzilishi

b) Nafas olish markazining narkotiklar ta'sirida depressiyasi.

**Sababli:** Qo'shimcha (ad'yuvant) vositalardan foydalanish bilan bog'liq, (morphin, fentanil).

v) Nafas olish markazining tinchlantruvchi preparatlarning qo'shimcha ta'siri tusayli izdan chiqishi.

d) "Yuqori blok" fonida gipoventilyatsiya.

**Sababli:** diafragmani innervatsiya qiladigan C3 - C5 nerv tugunlarini blokadasi.

**Klinikasi:** Qo'l-oyoqlarda holsizlik sezuvchanlikning buzilishi, ko'krak qafasi va qorin terisining sezuvchanligining buzilishi, nafas olishning qiyinlashishi, havo yetishmasligi, nafas to'xtashi, ko'z qorachig'inинг kengayishi kuzatiladi.

**Davolash:** O'pkani sun'iy ventilyatsiyasiga o'tkazish. Oksigenoterapiya 1daqiqada 5-7 litr kislorod berish bilan, atropin, vazopressor va kardiotonik terapiya. Reanimatsiya choralar. Mahalliy anestetikni qo'llashda kuzatiladigan anafilaktik reaksiyalar.

Klinikasi yuqori spinal blok ko'rinishiga o'xshaydi.

**Davolash:** Sindromli terapiya va reanimatsiya choralarini qo'llash.

### Izoxlar (Glossariy)

- EMLA. 1 g preparat 25 mg lidokain va 25 mg prilokainidan tashkil topgan. pH 9,0 lipofil xususiyatga ega preparat, bu esa hujayra membranasidan o'tishini yengillashtiradi. EMLA preparatining suvgaga boyligi terini tezda namlab preparatning absorbsiya jarayonini tezlashtiradi.
- G- Geydj shkalasi (Gauge, qisqacha G) bu shkala odatda turli xil ignalarning (inyeksiya uchun, biopsiya uchun) tashqi diametrini belgilashda ishlataladi. Geydj shkalasi qancha kichik bo'lsa ignaning tashqi diametri shunchalik kattaligini bildiradi. Bu shkalaning asosida 1 dyuym (2,54 sm) li trubka ichiga shu ignaning nechtaси joylashishi turadi.
- Wilson 1962 yilda o'mrov osti venasini o'mrov suyagi ustidan punksiya qilishni taklif qilgan.
- Y-simon uzatgich. Turli uskunalarini, jumladan shishali, rezinali, plastik trubkalarni bir-biriga ulyadigan asbob. Ulanish joylari tishchali bo'lib, trubkaga mahkam ulanadi va siljib ketmaydi.
- Yooffa 1965 yilda o'mrov osti venasini kateterlash uchun o'mrov osti punksiya nuqtasini amaliyotga tadbiq etgan.
- A. I. Lukashevich 1885 yilda o'tkazuvchi anesteziyani taklif qilgan. Keyinchalik bu usul bilan Oberst (1888) va Shleyxlar (1892) ham shug'ullanishganlar. Hozirda bu usul Lukashevich-Oberst usuli deb ataladi.
  - A.V. Vishnevskiy 23 avgust (4 sentyabr) 1874 y. Dog'istonda to'g'ilgan. 23 yanvar 2015 yil — novokain bilan oyoq-qo'llarni novokain bilan blokada qilish usullarini ishlab chiqgan.
  - Ambu qopchasi - vaqtinchalik qo'l yordamida o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi o'tkazish uchun qo'llaniladigan uskunadir. Uskunani og'izdan-og'izga sun'iy nafas oldirish bilan solishtirganda, og'izdan og'izga nafas berish gigiyenik jihatdan ustunligi va bundan tashqari kam kuch sarflanishi va eng asosiyasi og'izdan-og'izga nafas berilganda yordam beruvchining og'zidan chiqadigan havoda CO<sub>2</sub> ning yuqori bo'lismi bartaraf etadi. Ambu qopchasi bemorlarning yoshiga qarab turli xil o'lchamlari va tuzilishlari bilan farq qiladi.
  - Anestetik gel-pasta — Benzokain 20% asosan og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining mahalliy anesteziyasi uchun ishlatalidi. Bu preparat shilliq qavatlarga ineksiyadan oldin joyni anesteziyasi uchun, abseslarni ochish uchun, terini anesteziya qilish uchun qulay anestetik hisoblanadi. Anesteziyaning ta'siri 1-2

daqiqada sodir bo'ladi va 15 daqiqagacha davom etadi. «Disilan» preparati kattalar uchun ham, 5 yoshdan bolalar ham ishlatalishi mumkin.

- Apnoe (yunoncha. ἀπνοία - nafas olishning yo'qligi) - nafas olish harakatining to'xtashi.
- Artur Ernest Gvedel (Arthur Ernest Guedel, 13 sentyabr 1883 yil to'g'ilgan, amerikalik anesteziolog, anesteziya tasnifiga o'zgartirishlar kiritgan, orofaringeal havo o'tkazuvchi naychani yaratgan, bundan tashqari endotracheal naychani takomillashtirgan.
- Aspiratsiya (meditsina) (lat. aspiratio) — «so'rib olish» effekti, manfiy bosim orqali so'rish. Masalan, hushsiz bemorlarda ateletkaz va aspiratsion pnevmoniyanı oldini olish maqsadida nafas yo'llaridan qusuv massalarini so'rib olish.
- Atlánt (lot. atlas) — hayvonlarda va odamlarda birinchi bo'yin umurtqasi. Boshqa umurtqalardan farqi ensa suyagiga juda mustahkam birikkan va mustahkam tuzilishga ega.
- Atlanto-oksipital bo'g'im (lot. lat. Articulatio atlantooccipitalis) - oksipital (ensa) suyagini ikkita o'simtasi va birinchi bo'yin umurtqasining yuqori bo'g'im chuqurchasidan hosil bo'lgan bo'g'im.
- Autizm (bolalar autizmi deb ham ataladi) inglizcha: infantile autism), bolalik autizmi (childhood autism), Kanner sindromi yoki Kanner autizmi (Kanner's autism), - miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Autizm - bu kimdir bilan muloqot qilish istagi yo'q bo'lganda, odamning alohida holati.
- Bimanual — (lat. bi - ikkita + manus - qo'l (barmoq)) med: Ikki qo'l yoki barmoqlar yordamida usul qo'llash yoki davolash. (tekshirish).
- Bobrov apparati turli xil tibbiy muolajalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilma. Bu 0,5-1 litr hajmli shishadan yasalgan idish bo'lib, rezina tig'in bilan yopilgan, unga ikkita ichi bo'sh trubka kiritilgan: uzuni suyuqlik ichiga tushirilgan va qisqasi suyuqlik ustida joylashgan. Trubkalarga moslashuvchan tibbiy shlanglar (burun kateteri) ulanadi.
- Brayan Artur Sellik (1918 yil 13 iyun - 1996 yil 13 iyul) britaniyalik anesteziolog, u 1961 yilda uzuksimon tog'ayni bosish orqali regurgitatsiyani oldini olish mumkinligini e'lon qilgan. Hozirgi kungacha bu usul Sellik nomi bilan ataladi.

○ Bronxoskopiya (gregcha. βρόγχος — bronx va σκοπέω — ko'raman, tekshiraman, kuzataman) so'zlaridan olingan. Traxeobronxoskopiya — bu usul nafas yo'llarini shilliq qavati holatin tekshirish usuli bo'lib: traxeya va bronxlarni mahsus asbob — bronxofibroskop bilan tekshirishdir. Zamonaviy bronxofibroskop — bu murakkab uskuna bo'lib, egiluvchan uchi, buni harakatlantirish mumkin, yoritkich va foto- va videokamera bilan jihozlangan. Bu uskuna bilan biopsiya va yot jismlarni ham olish mumkin.

○ Bronxospazm (lot. bronchospasm) — kichik bronx va bronxiolalar devorining qisilishi (torayishi). Amaliyotda asosan nafas tizimi kasalliklaridan bronxit va bronxeal astma kasalliklarida ko'p uchraydi.

○ Bujerlash — bu moslashuvchan (sintetik material, kauchuk) yoki metall naycha ko'rinishidagi asbob yordamida uretrani diagnostika qilish va davolash usulidir. Bujerlash uchun tibbiy zondlar va naychalar hamda paxta-doka tamponlar ishlatalidi.

○ Burun konyulalari (burun kateterlari) kislorod terapiya uchun ishlatalidi. Burun konyulalari uchta o'lchamda mavjud: chaqaloqlar uchun, bolalar uchun va kattalar uchun. Burun teshiklari orasidagi masofaga diametri 1,9 mm; 3,0 mm va 5,0 mm. bo'ladi. Ushbu oraliqqa qarab konyulalar razmeri 5,0 mm, 8,0 mm va 10 mm. li bo'ladi. Yig'ilgan trubaning standart uzunligi 2,1 m, uzaytirilgan modeli 5 m ga yetadi.

○ Vidacare korporatsiyasi 2001 yilda EZ-IO qurilmasini 2004 yilda ishlab chiqib tibbiyotga taqdim qilgan.

○ Gastroezofagial reflyuks (GER; ingliz. gastroesophageal reflux; sinonimi oshqozon-qizilo'ngach reflyuksi) - oshqozon tarkibidagi mahsulotlarning qizilo'ngachning pastki sfinkteridan o'tib qizilo'ngachga chiqishidir. Birinchi marta nemis shifokori Geynrix Kvinke tomonidan 1879 yil fanga ma'lum qilingan.

○ Gematosele - bu tananing ma'lum qismida qon to'planishi. Gematosele qorin va boshqa tana bo'shiqlarida ham paydo bo'lishi mumkin. Yorg'oq gematoselisi gemoskrotumi (yoki ingliz tilida Hemoscrotum) deb ham ataladi. Gemoskrotum jarohatdan keyin paydo bo'lishi yoki jarrohlikning asorati bo'lishi mumkin.

○ Gemotóraks (grek. αἴμα — qon va θώραξ — ko'krak) — plevra bo'shlig'ida qon to'planishi.

○ Genri Djuda Xeymlix — amerikalik shifokor (ko'krak qafasi jarrohi) va jamoat arbobi, favqulotda holatlarda nafas yo'llariga yot jism tushganda diafragma ostidan ko'krakni qisish usuli ixtirochisi sifatida tanilgan. (Geymlix usuli (inglizcha:

Abdominal thrusts, 1974)), shuningdek, turli xil ixtiolar muallifi (jumladan, Geymlix klapani, 1963).

○ Genrix Ireneus Kvinke 1890 yil 11 dekabrda (Heinrich Irenaeus Quincke, 1842-1922) meningitdan o'layotgan bolani qutqarish uchun bolada bel sohasi punksiyasini amalga oshirdi. Kutilmaganda Kvinkening miya suyuqligidan namuna olish uchun orqa miya kanaliga kirishi diagnostikada katta ahamiyatga ega bo'ldi va anesteziologiyada orqa miya va epidural anesteziyaga asos bo'ldi.

○ Germetik - qattiq va mustahkam yopilgan degan ma'noni anglatadi. Masalan kateterni rezina tiziq bilan yopish.

○ Gidromediastinum - (yunoncha — «hydror» - suv, va lot- mediastinum ko'krak bo'shlig'i). Ko'krak bo'shlig'ida yig'ilgan suyuqlik.

○ Gidrotoraks - bu plevra bo'shlig'ida ortiqcha suyuqlik to'planishi bilan tavsiflangan patologik holatdir. «Gidrotoraks» atamasi ikkita yunoncha ildizdan iborat: «hydror» - suv, «thorax» - ko'krak, so'zma-so'z «ko'krak qafasidagi suv» degan ma'noni anglatadi.

○ Giperventilyatsiya (grer. οὐπέρ — yuqori, ventilatio — shamollatish) — intensiv nafas, organizmning kislorodga bo'lган ehtiyojini tezkor tiklash.

○ Giperkapniya (qadimgi yunoncha οὐπέρ — haddan tashqari καπνός — tutun) — qondagi CO<sub>2</sub> ning oshishi bilan kelib chiqadigan holat.

○ Gipoksemiya (qadimgi yunon tilidan ὄποι — zaiflashgan sifat ma'nosini bildiradi, oxygenium - kislorod va yunoncha αἷμα - qon) - turli sabablarga ko'ra qondagi kislorod miqdorining kamayishi, shu jumladan qon aylanishining buzilishi, to'qimalarning kislorodga bo'lган ehtiyojining oshishi, o'pka kasalliklarda o'pkada gaz almashinuvining susayishi, qondagi gemoglobin miqdorining kamayishi (masalan, anemiyada), havodagi kislorodning partsial bosimining kamayishi (tog' kasalligi) va boshqalar. Gipoksemyada arterial qondagi kislorodning partsial bosim ( $\text{RaO}_2$ ) 60 mm.sim.ust. dan kam bo'ladi. Saturatsiyasi 90% dan past bo'ladi. Gipoksemiya gipoksiyaning asosiy sabablaridan biridir.

○ Gipoksiya - hujayralar va organlarning normal ishlashi uchun yetarli bo'limgan kislorodning to'qimalardagi miqdori. Gipoksiya gipoksemyaning natijasidir. Gipoksemya - qonning kislorod bilan kam to'yinganligi (past saturatsiya).

○ Daun sindromi – tug'ma nuqson kasalligi bo'lib, bolalarning ham jismoniy, ham aqliy tarafdan turli darajada o'sishdan qolishi bilan xarakterlanadi. Daun sindromida suyak bo'g'implarning noto'g'ri rivojlanishi kuzatiladi.

- Diazepam (patentlangan nomi - Valium) - benzodiazepin guruhiga kiruvchi dori vositasi bo'lib, u tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladi. Preparat sedativ, gipnotik, talvasaga qarshi, mushaklarni bo'shashtiruvchi ta'sirga ega.
- Drenaj (inglizcha drain; quritish) tibbiyotda tibbiy drenaj asboblari (rezina maychalar, doka tamponlar va boshqalar) yordamida jarohatlar, tananing ichki bo'shlqlari va boshqalardan suyuqlik tarkibini doimiy ravishda olib tashlashdir. Bu'zi ichi bo'sh ichki a'zolardan (oshqozon, plevra bo'shlig'i, siyidik pufagi, ingichka lehak va boshqalar) suyuqlik va ekssudatlarni olib tashlash uchun drenajdan foydalanish ham mumkin, suyuqlikning normal ajralish jarayonlari har qanday shikastlanish yoki kasallik tufayli buzilishi mumkin.
- Jekson holati «klassik Jekson pozitsiyasi» deb ataladi (boshning oksipital qismi operatsiya stolining tekisligida joylashgan, bosh orqaga tashlanadi, pastki jag' oldinga suriladi); yuqori tishlar, halqum va traxeya o'qi bo'ylab to'g'ri chiziq hosil bo'ladi. Bu holda pastki jag'ning tortilishi tufayli siz boshni bura olmaysiz.
- Infiltratsiya (lot. in - "da" va filtratio, "filtrash") — to'qimalarning qandaydir moddalar bilan to'yintirish. Majoziy ma'noda, biror narsalarning y'ayrioddiy muhitga kirib borishi. Infiltratsiya (tibbiyotda) — to'qimalarga ularning normal tarkibiy qismi bo'limgan moddalar yoki zarrachalarning sun'iy ravishda kiritishdir.
- Infuzion-transfuzion terapiya (ITT) — organizmda gomeostazning buzilishlarida tomirlar ichiga turli xil suyuqliklarini yuborish amaliyotidir.
- Kava kateterizatsiyasi — (anat. vena cava - to'la vena) venalarga ta'lulqi bo'lib; bu terminoelement murakkab so'zlar qo'shilmasida qisqartirib -kavo- deb yozilishi mumkin. Kava kateterizatsiya-venalarga kateter o'rnatish degani.
- Kanyulya (fr. canule; lat. cannula; grech. kanoula) — konussimon trubka bo'lib (kateter, inyeksion ignalar va.h.k.), odatda tibbiyotda kalta tumtoq uchli metal trubkalar bo'lib kavak a'zolarni kateterlashda yoki biron asboblarni (troakar) kiritish maqsadida ishlatiladi.
- Kapnometr - CapnoQuant 9040® -portativ uskuna bo'lib, operatsiya xonalarida, intensiv terapiya bo'limlari va intensiv terapiya bo'limlaridagi intubatsiya qilingan va intubatsiya qilinmagan bemorlarda nafas chiqarishdagi havoda CO<sub>2</sub> konsentratsiyasining grafik ko'rsatkichini ko'rsatadigan uskunadir.
- Ketamin – tibbiyotda noingalyatsion anestetik sifatida ishlatiladi. NMDA (N-metil-D-aspartat (NMDA) reseptor) - antagonistidir. Og'riqsizlantirish va bronxospazmni davolash uchun ham qo'llaniladi.

- Kislorod konsentratorlari: Uskuna odatda 21% kislorod, 78% azot va 1% boshqa gazlarni o'z ichiga olgan atmosferani qayta ishlash natijasida kislorod ajratib oladigan qurilmadir. Konsentratorlar 95% kisloroddan iborat aralashma ishlab beradi.
- Kislorodli intoksikatsiya kislorodning toksikligi odatda kislorodning partsial bosimi 1,3-1,4 atmosfera bosimidan oshganda sodir bo'ladi.
- Koagulopatiya (lat. coagulum — «ivish» va.-grech. πάθος — «buzilish, azoblanish») — qon ivish tizimining buzilishi tufayli kelib chiqadigan organizmning patologik jarayoni.
- Kompartment-sindromi (KS) — bu patologik holat bo'lib, organizmdagi yopiq bo'shilqlarda bosimning ortib ketishi natijasida to'qima ishemiyasining kelib chiqishi.
- Qaysi kateter birinchi - favqulotda holatlarda dori-preparatlarini zudlik bilan kiritish lozim bo'lganda, yordam beruvchi xodim avval o'zi qanday usulni bilishi yoki qaysi usul kam vaqt olishini hisobga olgan holda bajarilishga aytildi.
- Qalqansimon va uzuksimon tog'aylar aro membrana qalinligi 1sm, ko'ndalang kesmasi 2-3 sm. ni tashkil qiladi.
- Laringal niqob (LM) - 1981 yilda doktor A. Brain (London) tomonidan yuz niqobiga muqobil sifatida ishlab chiqilgan bo'lib halqum ustiga kiritilib shishiriladigan manjetga ega bo'lgan egiluvchan naycha. Manjetkasi puflanganda traxeya atrofida germetiklik hosil bo'lib, aspiratsiyani oldi olinadi. LN bemorni nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklashga imkon beruvchi uskunadir.
- Lidokain – mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalar amid guruhiga mansub. Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalar qo'llash sohasida nerv impulslarini o'tkazilishini vaqtinchada natriy ionini membranadan o'tishini sekinlashtirish hisobiga og'riqni bloklaydi. Preparat propilenglikol saqlaydi, bu shilliq qavatlar va terini shikastlanishini chaqirishi mumkin.
- Mandren (frans. mandrin) — trubkasimon asboblarining ichki yuzasini yopish (to'ldirish) va uning qattiqligini kuchaytirish maqsadida ishlatiladi.
- Manjetka- niqob chetiga yopish tirilgan shishiriladigan rezina sharcha bo'lib intubatsiya naychasi yoki Laringeal niqob atrofida germetik zonasini hosil qiladi, bu esa o'pkaga yod suyuqliklarinig (qon, shilliq va x.z.) tushishini oldini oladi va bosim ostida sun'iy nafas berish imkoniyatini beradi.
- Manual terapiya (lat. manus «barmoq»; -grech. θεραπεία [therapeia] «davolash, sog'aytirish») — yoki alternativ medisina, tibbiy muolajaning bir tur.

Shifokorning qo'li yordamida bemor badanini ushlab yoki tekkizib tekshirish va davolashdan iborat usuldir. Bundan tashqari qo'l yordamida usul bajarish amaliyotidir.

- Mark Vaysman isroillik vrach 2000-yilda suyak ichini punksiya qilish uchun avtomatlashtirilgan qurilmani BIG Bone Injection Gun ishlab chiqdi. Bu parmalagich va ignalar to'plamidan iborat elektr uskunadir. Bemorlarning yoshi va vazniga qarab uch xil ignalar mavjud. Og'irligi 3-39 kg gacha bo'lgan bemorlar uchun alohida, 40 kg dan ortiq bo'lgan bemorlar uchun alohida ignalar ishlatiladi.
- Markaziy venoz bosim o'mrov osti venasi orqali flebotonometr Valzman uskunasi yordamida o'lchanadi. Yurak o'ng bo'l machasidagi bosimdir. Normada 60-120 mm.suv.ust. tengdir.
- Markaziy yoki periferik venalar kateterizatsiyasi - teri orqali mahsus plastik kateterlarni o'mrov osti venasiga, bo'yinturuq yoki son venalariga kiritish usuli bo'lib, infuzion, transfuzion va MVB ni o'lhash maqsadida ishlatiladi.
- Midazolam benzodiazepin qatoriga kiruvchi qisqa ta'sir qiluvchi dori bo'lib, o'tkir tutqanoqlarda, og'ir uyqusizlikni davolashda hamda tibbiy muolajalar oldidan sedativ va amneziyani keltirib chiqarish maqsadida qo'llaniladi. U kuchli anksiolitik, amnestik, uyqu chaqiruvchi, talvasaga qarshi, tinchlantiruvchi ta'sirga ega, shuningdek, skelet mushaklarini bo'shashtiradi.
- Miksion sistouretrografiya (MSUG) - siydik yo'llari va siydik pufagining rentgenologik tekshiruvi, bu siydik pufagi bo'shatilayotganda tasvirlarni olish uchun ishlatiladi. MSUG yordamida siz siydik pufagi hajmini, siydik va bo'shilqni ushlab turish qobiliyatini aniqlashingiz mumkin.
- Miorelaksantlar (lot. myorelaxantia; yunoncha . μῦς - mushak + relaxans, relaxantis - zaiflashtiruvchi, bo'shashtiruvchi) - skelet mushaklarining tonusini to'liq susaytiradigan va to'liq harakatsizlantiradigan dori vositalari guruhidir. Ta'sir mexanizmi: N-xolinoreseptor sinapslarida reseptorlardan keladigan nerv impulslarini skelet mushaklariga ta'sirini bloklaydi va mushaklar qisqarishini to'xtatadi.
- Miya dislokatsiyasi - bu ba'zi miya tuzilmalarining boshqalarga nisbatan siljishi. Miya va bosh suyagining ma'lum bir qismida bosimning oshishi (bo'shilq zonasining paydo bo'lishi) bo'lsa, subaraxnoidal bo'shilqda miya qismlarining yoki miyaning siljishi kuzatiladi.
- Monitor - foydalanuvchi va boshqaruv qurulmasi o'rta sidagi operativ vizual aloqa va klaviatura, sichqoncha yoki markaziy prosessordan uzatiladigan ma'lumotlarni ko'rsatish uchun qurilma.

- Morfin - narkotik analgetik, opiumning asosiy alkaloidi bo'lib, uning tarkibidagi opium o'rtacha 10% ni tashkil qiladi, bu boshqa alkaloidlarning tarkibidan ancha yuqori.
- Mochevina organizmda oqsillarni parchalanshidan hosil bo'ladigan oxirgi mahsulotdir. Oqsillar parchalanganda organizm uchun xavfli bo'lgan ammiak hosil bo'ladi. Ammiak jigaarda zararsizlantirilib (neytrallashtirilib) mochevinaga aylanadi va buyraklar orqali chiqariladi. Shunday qilib qondagi mochevinaning miqdori buyraklar, jigar va mushak to'qimalari ishiga to'liq bog'liqdir. Normada qonda: Bolalarda 14 yoshgacha 1,8—6,4 mmol/l. 60 yoshgacha 2,5—8,32. 60 yoshdan kattalarda 2,9—7,5/l. ga teng.
- Nafas yo'llari obstruksiyasi (lot. obstructio — to'siq) — nafas yo'llari bekilish sindromi. (obturatsiya) — kovak a'zolar ichining bekilishi jumladan bronxlar, qon tomirlari yoki limfa tomirlarining o'tkazuvchanligining buzilishidir. Bronxlar obturatsiyasiga sabab yot jismlar yoki balg'am bo'lishi mumkin.
- Nafas uskunalarini (konturlari) bir-biriga ulash uchun qo'llaniladigan asbob (trubka, niqob, filtrlar va h.k). Bu uskuna tizimda germetiklikni ta'minlaydi.
- Okklyuziya (ing. occlusion, lot. occlusio «berkilish») — terminini anglatadi. Bu termin odatda ochiq keyinchalik to'liq yopilib qolish kabi holatlarga ishlatiladi. Tibbiyotda bu termin biron bir o'tkazuvchanlikning buzilishida (obturatsiya)da ishlatiladi. O'tkazuvchanlik anatomik devorning zararlanishlari tufayli buziladi.
- Osteogenez (suyaklanish, suyaklashish - suyaklarning rivojlanishi, suyaklarning shakllanishi, suyaklarning hosil bo'lishi) — bu suyak to'kimasining shakllanish jarayonidir.
- P.Safar 1924 yil 12 aprelda Chexoslovakiyada tug'ilgan. 1954 yildan boshlab Baltimore City Hospital da bosh anesteziolog bo'lib ishlagan. Birinchi bor tez tibbiy yordam sharoitida Amerika standartini ishlab chiqgan. Reanimatsiya tadbirlarini ingliz alfabosi bilan 9 harfiga tadbirlirni bog'lab kiritgan. Hozirda Pittsburgh meditsina ilmiy tekshirish markazi P.Safar nomi bilan ataladi.
- Periferik venoz kateter (PVK) periferik venaga o'rnatilib qon oqimiga dorilar kiritishini ta'minlaydigan qurilma.
- Pnevmatik shina (kostyum) - ichi havo kirish uchun ikki qavatli, havo puflab shishiriladigan rezinadan yasaladigan shina. Shikastlangan qo'l-oyoq bu shinaga kiritilib puflab havo yuboriladi. Havo qisib turish natijasida qo'l-oyoq mahkam fiksatsiyada turadi. Bundan tashqari havo bosimi singan joyni qisib turib harakatsizlantiradi va natijada qon quyilish yoki og'riq kabi belgilari kuzatilmaydi.

- Pnevmotoraks (boshqa yunoncha pneūma - nafas, havo va thórál - ko'krak qafasi) - plevra bo'shlig'ida havo yoki gazlarning to'planishi. Surunkali o'pka kasalligi ('asosiy) bo'limgan odamlarda, shuningdek, o'pka kasalligi ('ikkilamchi') bo'lgan odamlarda o'z-o'zidan paydo bo'lishi ham mumkin.
- Povidon-yod (lotincha Povidonum-iodum, inglizcha Povidone-iodine) — dorivor vosita, mahalliy foydalanish uchun qo'llanadigan antiseprik. Kimyoviy jihatdan u yot va polivinilpirolidionning (PVP) murakkab birikmasidir. Chiqarish shakli, tashqi foydalanishlar uchun 10% li eritma shaklida chiqariladi. O'ziga xos hidli, quyuq jigarrang suyuqlikdir.
- Polivinilxlorid rangsiz, shaffof plastmassa bo'lib, vinilxloridning termoplastik polimeridir. Kimyoviy jihatdan ishqorlar, mineral moylar, ko'plab kislotalar va erituvchilarga chidamlidir. Uning yonmasligi unga qo'shilgan yong'inga chidamli qo'shimchalarga bog'liq.
- Port, kateterning tepasida joylashgan bo'ladi. Qo'shimcha port bir vaqtning o'zida ham infuzion terapiya ham dorilarni bolusli (tez) kiritish yoki kateterni geparin va fizioligik eritma bilan yuvish imkonini beradi. Oxirgi zamonaviy periferik kateterlarning hammasida qo'shimcha port mavjuddir. Sterillikni ta'minlash uchun portni plastik qopqoq bilan ochib yopish mumkin.
- Prolen (angl. Prolene) — sintetik monofilamentli (bir ipli) ip.
- Professor Robert Aubanisc (1913-2007). 1952- yilda birinchi bor umrov osti venasini punksiya qilgan olim.
- Psevdotumor (Pseudotumor) - yolg'on o'sma. Xuddi haqiqiy o'sma to'qimalaridek bir joyda yig'ilgan hujayralar majmuasi. M: drozofil pashshasi lichinkalarining atrosida gemosit to'qimalari yig'ilib so'ngra kapsulaga o'raladi va melanizatsiyaga uchraydi.
- Pulsoksimetr (inglizcha- pulse oximeter) - kapillyar qonning kislorodga to'yinganlik darajasini invaziv bo'limgan holda o'lchash uchun tibbiy nazorat va diagnostika qurilmasi (pulsoksimetriya). Usul ikkita hodisaga asoslanadi. Birinchidan, gemoglobinni (Hb) ikki xil to'lqin uzunlikdagi yorug'likning yutilishi uning kislorod bilan to'yinganligiga qarab o'zgaradi. Ikkinchidan, to'qimalardan o'tadigan yorug'lik signali yurak urishi tusayli pulsatsiyalanuvchi xususiyatga ega bo'ladi. Pulsoksimetrda ikkita to'lqin uzunlikdagi yorug'lik manbasini o'z ichiga olgan periferik sensor mavjud: 660 nm (qizil) va 940 nm (infracizil). Nurning yutilish darajasi qonda gemoglobinining kislorod bilan to'yinganligiga bog'liq (har bir Hb molekulasi maksimal 4 ta kislorod molekulasini biriktira oladi). Fotodetektor qon rangidagi o'zgarishlarni ushbu ko'rsatkichga qarab qayd qiladi. Normada bu ko'rsatkich 95-99% bo'ladi.

- $\text{PaO}_2$  - arterial qondagi kislorodning partsial bosimi. Normada, arterial qondagi kislorodning partsial bosimi 92-98 mm.sim.ust. ga teng.
- $\text{pCO}_2$  (mm.sim.ust.) - qondagi karbonat angidridning partsial bosimi bo'lib, KIM ning buzilishida nafas olish tizimining funksional holatini aks ettiruvchi yagona ko'rsatkichidir, (odatda arterial qonda 35-45 mm.sim.ust. ga teng bo'ladi).
- Regurgitatsiya ( lot. re - teskari harakat, + lat. gurgitare- toshib chiqish) - suyuqlik yoki gazlarning kavak mushak organlar devorining qisqarishi natijasida odatdagidan teskari yo'nalishda harakatlanishi. Regurgitatsiya (oshqozon-ichak traktida) sfinkterlar yoki klapanlarning disfunksiyasi natijasida oshqozonga kirish va chiqish qismidagi yetishmovchiliklar tufayli, masalan pilorospazm, pilorik stenoz, kardiospazm bilan yoki organning mushak devorining qisqarishining antiperistaltik harakati tufayli paydo bo'ladi. Regurgitatsiya reflyuksdan farq qiladi. Reflyuksda (masalan gastroeozafial reflyuks) suyuqlikning qo'shni bo'shlqlarga passiv oqishi kuzatiladi.
- Rentgenkontrast moddalar — organizmga kiritilganda tekshiriladigan obyekt tasvirini aniq ko'rsatadigan kimyoiy moddalar. Ular rentgen nurlari yutilishini yo'naltirib yoki kamaytirib, kontrast tasvir hosil qiladi. 'Og'ir' rentgenkontrast moddalarga baryi sulfat, yod preparatlari bilan bir qatorda 'yengil' rentgenkontrast moddalar havo, kislorod, azot loksid va boshqalar ham ishlataladi.
- $\text{pO}_2$  ko'rsatkichi plazmadagi erigan kislorodning partsial bosimini aks ettiradi, ammo qonning haqiqiy  $\text{O}_2$  qiymatini ko'rsatmaydi.  $\text{pO}_2$  normada 80-100 mm.sim.ust. ni tashkil qiladi. Klinik nuqtai nazardan,  $\text{paO}_2$  o'pkaning qonni kislorod bilan to'yintirish qobiliyatini ifodalaydi (kislorod almashinuvi emas, balki o'pkaning gaz almashinuvi o'chov). Arterial qonda  $\text{O}_2$  yetishmasligi gipoksemiya deb ataladi va tashxis qo'yish oson. To'qimalarda  $\text{O}_2$  yetishmasligi gipoksiya deb ataladi va gipoksemiyaga qaraganda aniq ko'rsatkich emas. Gipoksiyaning sabablari har xil, jumladan yurak yetishmovchiligi, anemiya, zaharlanish va boshqalar.
- Rotametr - bu gazlar yoki suyuqliklarning vaqt birligida oqim tezligini aniqlaydigan qurilma.
- Saturatsiya- ( $\text{SpO}_2$ ) qonda kislorod bilan to'yangan gemoglobin miqdorini ko'rsatadigan miqdoriy ko'rsatkichdir. Saturatsiya ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni pulsoksimetri yoki qon tahlillari (shifoxona sharoitida) asosida olish mumkin. Qonning kislorod bilan to'yanganligi ma'lumotlari foiz sifatida ko'rsatiladi. Pulsoksimetri bilan o'lchananida gazning bir qismi qonda eriganligi tufayli hech qachon 100% bo'lmaydi. Laboratoriya tahlilida agar ko'rsatkich 100% bo'lsa giperventilyatsiyadan darak beradi.

- Sedatsiya (lotincha- sedatio «tinchlantirish»), bu termin sun'iy koma, medikamentoz uyqu terminlariga to'g'ri keladi. Medikamentoz uyqu - xushning bo'lmasligi, reflekslar va og'riq sezgisining susayishini sedativ dorilar orqali sun'iy erishishga aytildi. Sedatsiya holati qisqa va uzoq vaqt davom etishi mumkin. Sedatsiya holatiga barbituratlar, benzodiazepinlar, ketamin va propofol preparatlarini vena ichiga yoki mushak orasiga yuborish orqali erishish mumkin.
- Seldinger Sven Ivar — shved vrach radiologi (1921–1998 yy.), birinchi bor 1952 yilda tomirlarni yo'naltirgich orqali kateter kiritishni taklif qilgan.
- Sindrom Kruzona, kraniofasisal nuqsonni (craniofassial dizostoz I tipi) – genetik kasallik bo'lib, bosh chanoqdagi va yuz suyaklarining ba'zi qismlarining suyaklanish jarayonining buzilishidir.
- Sinxron (grekcha-bir vaqtida. σύν, σύγ — «birgalikda» + χρόνος — «vaqt»).
- Spirometriya (yunon tilidan - «spiro» - nafas olish va «metria» - o'lchov). Spirografiya - tashqi nafas olish funksiyalarini diagnostika qilishning zamonaviy usuli. Tashqi nafasni tekshiradigan uskuna - spirografdir. Bu nafas funksiyalarini xususiyatlarini baholash imkonini beradi.
- Suyaklar ichiga dorilarni yuborish usullari 1868 yilda rus professori G.F. Goyer tomonidan o'r ganilishni boshlagan. U suyak ichiga mahsus buyoq yuborib organlarga bo'yqning tarqalishini o'r ganib chiqdi va infuzion dorilarni suyak ichiga kiritish mumkinligini taklif qildi.
- Taxipnoe, inglizcha - tachypnea (tachy - tez-tez va pnein - nafas olishdan) - tez yuzaki nafas olish (kattalar uchun 20 dan ortiq 1 daqiqada, chaqaloqlar uchun 40; 1 yoshli bola uchun 25 marta; nafas olishning chastotasi yoshga bog'liq. Taxipnoye vaqt havo asosan «o'lik» bo'shlqlargacha kiradi, bu esa alveolyar gipoventilyatsiyaga olib keladi.
- Transsfenoidal gipofizektomiya turk egarchasida joylashgan gipofiz o'smalarini burun teshigi orqali olish usulidir.
- Traxeostomik trubkalar manjetkali (4,0-10,0) va manjetkasiz (3,0-8,5) bo'ladi. Traxeostomiya trubkasi - havo yo'llarining o'tkazuvchanligini tiklash, o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasini, shu jumladan traxeostomiya orqali yordamchi sun'iy ventilyatsiyasini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.
- Traxeya intubatsiyasi (lot. intubatio; in - ichkarida+ tuba – trubka (quvur)) – nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash uchun traxeyaga endotracheal maycha kiritilishi. O'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi jumladan umumiy endotracheal

narkoz paytida, shuningdek, reanimatsiya paytida muntazam ravishda qo'llaniladi. Endotraxeal trubka orqali vaqtincha bronxoskop va balg'am aspiratsiyasi uchun kateter kiritilishi mumkin.

- Troakar (fransuzcha. trocart; trois — «uch» i carre — «qirra», «yelka»,-tibbiy xirurgik asbob bo'lib, organizdagi bo'sh (kavak) a'zolarni teri orqali teshib o'tish uchun mo'ljallangan. O'rnatilgan troakar yordamida dorilar yuborishdan tashqari turli xil tibbiy asboblar jumladan laparoskopik, torakoskopik va boshqalarni turli xil muolajalar bajarish uchun foydalilaniladi.
- Tromboz (lot. thrombōsis — ivish. grech. θρόμβος — lahta) — tomirlar ichida qon lahtalanishi (tromb hosil bo'lishi) natijasida qon aylanishining mikrosirkulyatsiyaning buzilishi bilan namoyon bo'ladi.
- Tromboflebit (tromb va flebit so'zları birikmasi) — tromboz vena tomirlari devorining yallig'lanishi natijasida tromblar hosil bo'lishi bilan kechadigan va tomirlar o'tuvchanligining tromblar natijasidabekilishi bilan kechadigan yallig'lanish jarayoni.
- To'liq total spinal blok asosan katta dozada mahalliy anestetikning subdural bo'shliqqa tushishi natijasida paydo bo'ladi. Epidural anesteziyada odatda orqa miya anesteziyadan 8-10 baravar yuqori doza talab qiladi. Agar epidural anesteziya uchun mo'ljallangan katta miqdordagi anestetik subdural bo'shliqqa tushsa bu yuqori spinal blokning rivojlanishiga olib keladi. C3-C5 (nervus phrenicus) shoxchalarining bloklanishi tufayli diafragmaning falajiga olib keladi.
- O'lik bo'shliq. Anatomik va funksional (fiziologik) turlari mayjud. Anatomik o'lik bo'shliq - gaz almashinuvni sodir bo'lmaydigan havo yo'llarining hajmidir (burun bo'shligi, halqum, traxeya, bronxlar, bronxiolalar). Anatomik o'lik bo'shliq hajmi o'rtacha 150 ml (140 - 170 ml) ni tashkil qiladi. Shunday qilib, 500 ml nafas hajmidan faqat 350 ml alveolalarga kiradi.
- O'pkaning tiriklik sig'imi - Maksimal nafas olingandan so'nggi maksimal nafas hajmi, unga nafas hajmi, nafas olishning rezerv hajmi, nafas chiqarishning rezerv hajmi kiradi, ya'ni o'rtacha,  $500+1500+1500=3500$  ml havo kiradi. Yoshi, jinsi, sog'ligiga qarab tiriklik sig'imi turlicha bo'ladi. O'pkaning tiriklik sig'imi erkaklarda 3,5-4,5 l; ayollarda shundan taxminan 3-3,5 l. dir.
- Uretraning strikturasi (striktura kasalligi) - turli patologik sharoitlar fonida yuzaga keladigan erkaklar siyidik yo'llarining torayishidir.
- Fassiya (lot. fascia — bog'ich, tasma) — odamlarda va umurtqali hayvonlarda organlar, qon tomirlari, nervlarni qoplayadigan hamda mushaklarni qoplab turadigan biriktiruvchi to'qima qobig'i; tayanch va oziqlantiruvchi funksiyalarini bajaradi.


- Fenilefrin - adrenomimetik. U asosan  $\alpha$ -adrenergik reseptorlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Arteriolalarning torayishi, periferik qon tomirlarining qarshiligini va qon bosimini oshiradi. Mahalliy qo'llanilganda, fenilefrin shilliq qavatlarda yaqqol vazokonstriktiv ta'sir ko'rsatadi. LOR amaliyotida burun bo'shlig'i shilliq qavatidagi  $\alpha 1$ -reseptorlarni qo'zg'atish hisobiga vazokonstriktiv ta'sir ko'rsatadi, shilliq qavatlarning shishishi va to'qimalar giperemiyasini, burun shilliq qavatida tiqilib qolishni kamaytiradi, burun havo yo'llarining o'tkazuvchanligini yaxshilaydi.
- Fentanil - opioid analgetik, kuchli  $\mu$ -opioid reseptorlari agonisti. Sitrat shaklida chiqariladi. U asosan anesteziologiyada analgetik sifatida ishlataladi. Ilgari u "talamanal" nomi bilan, neyroleptanalgeziya uchun neyroleptiklar bilan birgalikda keng qo'llanilgan.
- Flebotonometr - bu fiz.eritma bilan to'ldirilgan troynikli (uch shoxli), shkalalarga bo'lingan uzun shisha trubka bo'lib, markaziy venoz bosimni o'lchash uchun mo'ljallangan.
- Foley kateteri - (ing. Foley Catheter) bu puflanadigan manjetkasi bor kateter turi. Bu kateter urologiyada siyidik pufagidan siyidki chiqarish va ba'zida siyidik pufagiga dorivor suyuqliklarni kiritish uchun qo'llaniladi; Kateter amerikalik urolog Frederik Foley sharafiga nomlangan.
- Xlorgeksidin — antiseptik, tayyor holatda tibbiyotda biglyukonat (Chlorhexidini bigluconas) nomli dori preparati ishlataladi. Xlorgeksidin tashqi antiseptik va dezinfeksiyalovchi vosita sifatida ham ishlataladi.
- Havo emboliyasi - tashqi muhitdan qon oqimiga kirgan havo pufakchalar bilan qon oqimining to'sib qo'yilishi. Klinik ko'rinishi havo tushgan tomirning turiga va hajmiga bog'liq. Koronar va o'pka, miya arteriyalariga havoning tushishi eng xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin.
- Sellyulit (ing. cellulite, fran. cellulite) — teri osti yog' to'qimasi (qavati) xususiyatining yallig'lanish natijasida to'qima strukturasining buzilishi.
- Sianoz, ko'karish (yunoncha κυανός to'q ko'k + - ωσις) - qonda karbgemoglobin (HbCO<sub>2</sub>) ning yuqori miqdori tufayli yuzaga keladigan teri va shilliq pardalarning kulrang-ko'kdan ko'k-qoramirgacha rangga ega bo'lishi. Qon aylanishi buzilganida, sianoz tananing yurakdan quyida joylashgan joylarida, ya'ni barmoqlar va oyoq barmoqlarida, burun uchida, lablarda va quloqlarda ifodalanadi. Sianozning bunday taqsimlanishi akrosianoz deb ataladi.
- Evtektika (ot grek. έυτεκτος — yengil eriydigan). Ikkita mahalliy anestetikning suv-moy emulsiyasi: lidokain va prilokainand tashkil topgan. Shunday qilib, (evtektik aralashma) teriga qo'llanganda, ikkala anestetik ham, dastlab kristalli tuzilishga ega bo'lishiga qaramay, suyuq holatga o'tishini anglatadi, bu esa butun teri orqali so'rilib jarayonlarini osonlashtiradi.

- Edvard Tui amerikalik anesteziolog (Edward Bruce Tuohy, (biz familiyasini noto'g'ri talaffuz qilganimiz) boshqa mualliflar tomonidan kaudal anesteziya va meningitda drenajlash uchun igna orqali o'tkaziladigan siyidik kateteri qo'llanilishi haqida bilgan, bunday kateterni Barker igna ichidan o'tkazib uzoq muddatli spinal anesteziyada qo'lladi. Ammo u kateterni samarali qo'llash maqsadida Huber (Huber-pointneedle) ignasini ishlatalishga qaror qildi. Bunday ignalar tish shifokori Ralf L. Huber (Ralph L. Huber) tomonidan intradermal yoki tomir ichiga dorilarni yanada aniqroq kiritish uchun ixtiro qilingan. Tui bunday ignani barcha orqa miya ignalari kabi mandren bilan jihozladi.
- Ekstravazatsiya - to'qima atrofiga dorining ketishi.
- Elektrokardiostimulyator (ES; sun'iy yurak stimulyatori (SYuS)) yurak ritmiga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan tibbiy asbobdir. Elektrokardiostimulyatorning (kardiostimulyator) asosiy vazifasi yurak yetarlichqa qisqara olmaganda yoki qorinchalar (atrioventrikulyar blokada) o'rtaSIDA elektrofiziologik uzilish (blokadalar) mavjud bo'lgan bemorga yurak urish tezligini sun'iy ushlab turish yoki qo'llashdir.
- Emboliya (-grekcha. ἐμβολή — bosqin) — tipik patologik jarayon bo'lib, qon yoki limfa tizimida normada bo'lishi mumkin bo'lmasdan yot narsalarning (embol), (zarrachalar) paydo bo'lishi va natijada tomirlarning berkilishi (okklyuziya). Emboliya natijasida a'zolarning qon bilan ta'minlanishining buzilishi kuzatiladi.
- Endotracheal trubkalar - SNB uchun traxeyani intubatsiyalashga mo'ljallangan notoksiq termoplastik polivinilxlorid tarkibli naychadan iborat.
- Epifizar plastinka (o'suvchi tog'ay plastinkasi) yoki o'suvchi zona — naysimon suyaklarning epifiz va metafiz orasidagi gialinli tog'ay. Epifizar plastinka bolalar va o'smirlarda bo'ladi, kattalarda bu tog'ay bo'lmaydi yosh o'tishi bilan bu tog'ay epifizar chiziqqa aylanadi.
- Yurak tomponadasi (perikard qopchasi, gidroperikard) - perikard bo'shlig'ida suyuqlik (transudat) to'planishi.
- Yurak fibrillatsiyasi - yurak mushak tolalarining alohida guruhlarining tarqoq va muvofiqlashtirilmagan tarzda qisqarishi natijasida yurakning sinxron qisqarish qobiliyatini buzadigan, bu yurakning samarasiz ishlashiga olib keladigan yurakning patologik holati.

## RASMLI TEST MASHQLARI

### NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING UCHLIK QO'LLANMASI P. SAFAR UCHLIGI

1. Ushbu rasmda nafas yo'lining berkilish mexanizmi ko'rsatilgan, sababi nimai?



- A. Tilning xalqumga tigelishi.
- B. Ovoz bog'laming nafas yo'liga tigelishi.
- C. Kvinke shishi.
- D. Laringospazm.

2. Quyidagi rasmda P.Safar uchlik usulini nechanchi qadami ko'rsatilgan?



- A. 3-qadami.
- B. 1-qadami.
- C. 2-qadami.

3. Ushbu rasmda P.Safar uchlik usulining 2-qadami tasvirlangan.



- A. pastki jag'ni oldinga tortish

- B. og'izni ochish
- C. boshni orqaga egish

4. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan P.Safar uchlik usulining birinchi bosqichi.  
Bu usulga mutloq qarshi ko'rsatmani toping.



- A. Bo'yin umurtqalari jaroxatlari.
- B. Yuqori nafas yo'llarini to'silishi.
- C. Daun sindromi.
- D. Koma holati.

5. P.Safar uchlik usulining 3-qadami .....texnikasidir.



- A. og'izni ochish
- B. boshni orqaga egish
- C. pastki jag'ni oldinga tortish

6. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan holat Safar uchlilgining qaysi bosqichida bajariladi?




- A. 2 bosqichida.
- B. 1 bosqichida.
- C. 3 bosqichida.

7. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan Safarning uchlik usulini ikkinchi bosqichida ikkala bosh barmoqlar bilan iyakni bosib og'izni ochish nima maqsadda bajariladi?



- A. Pastki va yuqorigi tishlar bir tekislikda bo'lishini ta'minlash maqsadida.  
B. Laringospazm oldini olish maqsadida.  
C. Tilning tomoq sohaga tifilib qolishini oldini olish maqsadida.  
D. Burundan nafas olish erkinligini ta'minlash maqsadida.  
8. Quyidagi rasmdagi nafas yo'lining berkilish mexanizmida qaysi komponent ishtirok etmaydi?



- A. Xiqqildoq  
B. Halqum  
C. Til  
D. Iyak  
9. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan usulda bo'yin umurtqasining qaysi sohasidan egish maqsadga muvofiq?



- A. Atlanta-okspital sohasidan.  
B. Atlan-axis sohasidan.  
C. Bo'yinning yetinchi umurtqasi sohasidan.  
D. Bo'yinning 3-4 umurtqalari sohasidan.

10. Quyidagi rasmda Safar uchligi usulining nechanchi bosqichidagi holati tasvirlangan?



- A. Bu rasmning usulga aloqasi yo'q.
- B. 1-bosqich.
- C. 2-bosqich.
- D. 3-bosqich.

### NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING GEYMLIX USULI

11. Ushbu rasmda Geymlix usulini chaqaloqlarda bajarish texnikasi ko'rsatilgan. Ushbu usul necha yosh oralig'iда o'tkaziladi?



- A. 1 yoshgacha.
- B. 5 yoshgacha.
- C. Faqat tana vazniga qaraladi.
- D. Har qanday yoshda.

12. Quyidagi rasmda qanday holatdagi bemorda Geymlix usuli bajarish ko'rsatilgan?



- A. Xushsiz bemorda.
- B. Chalqancha yotgan bemorda.
- C. Pastki obstruksiya kuzatilgan bemorda.
- D. Yuqori obstruksiya kuzatilgan bemorda.

13. Quyidagi rasmda xomiladorlarda Geymlix usulini o'tkazish ko'rsatilgan. Qanday o'ziga xos tomonlari bor?



- A. Usul qorin qismini emas, balki ko'krak qafasini qisish orqali amalga oshiriladi.
- B. Usul odatdagidek, lekin kam kuch bilan siqiladi.
- C. Usulni bajarayotganda kuchanmaslik buyuriladi.
- D. Yordam beruvchi jabrlanuvchining yelkasini o'z ko'kragiga kuch bilan uradi.

14. Ushbu rasmda ko'rsatilgan qo'llar joylashuvida qo'lni musht qilishini sababini nima?



- A. Ichki a'zolar (ayniqsa o'pkaga) ko'proq bosim berish va havoni keskin chiqarish.
- B. Ikkinci qo'lni qo'yishni osonlashtirish.
- C. Qorin a'zolarini shikastlanishni kamaytirish.
- D. Ushlab turish qulay bo'lish uchun.

15. Quyidagi rasmda qo'llar qayerga qo'yiladi?



- A. Qo'llar hanjarsimon o'simtasining pastiga qo'yiladi.
- B. Qo'llar epigastral sohaga qo'yiladi.
- C. Qo'llar to'shning o'rta uchligiga qo'yiladi.
- D. Qo'llar qo'ltik ostidan o'tkazilib mahkam qisiladi.

16. Quyidagi rasmda yelkaga urish holati ko'rsatilgan, maqsad nima?



- A. Yutal refleksini chaqirish uchun.
- B. Xushiga keltirish uchun.
- C. Aspirasiyani oldini olish uchun.
- D. Qayt qildirish uchun.

17. Quyidagi rasmda jabrlanuvchi qisman gapira oladi. Geymlix usuli qay tartibda olib boriladi?



- A. Geymlix usuli o'tkazilmaydi.
- B. Geymlix usuli odadtagidek o'tkaziladi.
- C. Kurak orasiga uriladi.
- D. Epigastral sohadan qisiladi.

18. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan kuraklar orasiga urishda, yordam beruvchi kishining ikkinchi qo'lni ko'krak sohasiga qo'yishning maqsadi nima?




- A. Hammasi to'g'ri.
- B. Kurak sohasiga urganda bemor yiqilib ketishini oldini olish.
- C. O'pkaning ikki tomonlama bosim bilan ushlab turilishini ta'minlash.
- D. Qovurg'a jarohatlaridan himoya qilish.

19. Geymlix usulidan keyin bemorda qayt qilish kuzatildi. Bu yot modda nafas yo'llidan chiqqanligidan darak beradimi?



- A. Ikkala holat ham bo'lishi mumkin.
- B. Yo'q .
- C. Ha.
- D. Geymlix usulidan keyin qayd qilish kuzatilmaydi .

20. Quyidagi rasmda qo'llarni musht qilish ko'rsatilgan. Bundan maqsad nima?



- A. Epigastral sohaga maksimal bosim berish uchun.
- B. Jabrlanuvchini yaxshi ushlab turish uchun.
- C. Yot jism chiqganligini bilish uchun.
- D. Ko'krak qafasini maksimal qisish uchun.

### NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI MANUAL TIKLASHNING SELLIK USULI

21. Sellik usulini bajarishda qanday asbob-uskuna talab etiladi?
- A. Uskuna talab etilmaydi.
  - B. Endoskop.
  - C. Qisqichlar.
  - D. Oshqozon zondi.

22. Quyidagi rasmda Sellik usulida barmoqlar joylashishi ko'rsatilgan. Bosh va u'sha barmoq qayerda joylashishi kerak?



- A. Uzuksimon tog'ay ikkala yonboshida.
- B. Qalqonsimon tog'ay ikki qanoti ustida.
- C. Bosh barmoq uzuksimon to'g'ay yonbosh qismida, o'rta barmoq esa old qismida.
- D. O'rta barmoq uzuksimon to'g'ay yonbosh qismida, bosh barmoq esa old qismida.

23. Quyidagi rasmda Sellik usuli bajarish texnikasi ko'rsatilgan. Traxeya intubatsiyasi davrida yordamchi hamshira bu usulga ko'ra, bemorni bo'yin orqa sohasidan ushlab turadi. Buni nima uchun qilinadi?



- A. Traxeya intubatsiyasini bajarishni osonlashtirish uchun.
  - B. Bo'yin orqa ketib qolishini oldini olish uchun.
  - C. Bosh miyada jarohat kuzatilmasligi uchun.
  - D. Zondni oson kirishi uchun.
24. Bemorda Sellik usuli qo'llanilmoqda. Shifokor 50 Nyuton kuch bilan uzuksimon tog'ayni bosdi. Traxeya intubatsiyasi bajarishni boshlash mumkinmi?
- A. Ha. Agar bemor qattiq o'rindiqqa yotqizilgan bo'lsa.
  - B. Ha. Agar bemor bo'yin orqa sohasidan yordamchi hamshira ushlab tursa.
  - C. Yo'q. Bemorga beriladigan kuchni kamaytirish kerak.

25. Quyidagi rasmda Sellik usulining birinchi bosqichi ko'rsatilgan. Barmoqlar bilan qaysi tog'ay bosiladi?



- A. Bosh barmoq va o'rta barmoqlarni uzuksimon tog'ay yonboshidan, ko'rsatkich barmoqni uzuksimon tog'ayni old qismidan qo'yiladi.

B. Bosh barmoq va o'rta barmoqlarni qalqonsimon tog'ay yonboshidan, ko'rsatkich barmoqni uzuksimon tog'ayni oldi qismidan qo'yiladi.

C. Bosh barmoq va o'rta barmoqlarni uzuksimon tog'ay yonboshidan, ko'rsatkich barmoqni qalqonsimon tog'ayni oldi qismidan qo'yiladi.

D. Bosh barmoq va o'rta barmoqlarni qalqonsimon tog'ay yonboshidan, ko'rsatkich barmoqni qalqonsimon tog'ayni burtib turgan qismidan qo'yiladi.

26. Ushbu rasmda Sellik usulini yakunlash ko'rsatilgan. Bu bosqichdan oldin shifokor nimani tayyorlab turishi maqsadga muvofiq bo'ladi?



- A. So'rg'ichni
- B. Dokani
- C. Zondni
- D. Salfetkani

27. Ushbu rasmda ko'rsatilgan uzuksimon tog'ay ustidan bosish nima maqsadda qilinadi?



- A. Qizilo'ngachni bosib turish uchun.
- B. Nafas o'tishini vaqtinchalik to'xtatib turish va narkozni yaxshilash.
- C. Qalqonsimon va uzuksimon tog'ay orasidagi membranani ochish uchun.
- D. Qayt qilish refleksini bartaraf qilish uchun.

28. Sellik usuli qayerda ko'proq qo'llaniladi?



- A. Operatsiya xonasida, «to'la oshqozon» sindromida.
- B. Komatoz holatlarda, qayt qilishni oldini olish maqsadida.
- C. Nafas yo'liga yot jism tushganda.
- D. Shifoxonagacha bosqichda aspirasiyani oldini olish maqsadida.

29. Ushbu rasmda qanday amaliyot bajarilmoqda va usulning nechinchisi qadami ko'rsatilgan?



- A. 3-qadam nafas yo'llari sanasiyasi.
- B. 1-qadam bo'yin qismi paypaslanib tog'ay qismini topish.
- C. 2-qadam uzuksimon tog'ayni markazidan ushlab uni biroz kuch bilan bosish.


30. Ushbu rasmdagi jarayonda qalqonsimon tog'ay pastrog'idagi chuqurcha paypaslanishi to'g'ri bajarilmoqdami?



- A. To'g'ri bajarilmoqda.
- B. Noto'g'ri bajarilmoqda.


#### NAFAS YO'LLARI O'TKAZUVCHANLIGINI TIKLASHNING KONIKOTOMIYA USULI

31. Ushbu rasmda bo'yin sohasiga ishlov berish krikotireoid bog'lam punsiyasining nechanchi qadami ko'rsatilgan?



- A. 1-qadami
- B. 2-qadami
- C. 3-qadami
- D. 4-qadami

32. Ushbu rasmda ko'rsatilgan krikotireoid bog'lam punksiyasining 2-qadami ko'rsatilgan.



- A. tog'ayni paypaslab topish
- B. bo'yin sohasiga ishlov berish
- C. uzuksimon tog'ayni bosish
- D. qalqonsimon tog'ayni bosish

33. Ushbu rasmda ko'rsatilgan asbob –uskunalar qaysi amaliyot uchun ishlatalidi?



- A. Konikostomiya uchun.
- B. Konikotomiya uchun.
- C. Traxeyastomiya uchun.
- D. Intubatsiya uchun.

34. Ushbu rasmda ko'rsatilgan krikotireoid bog'lam punksiyasi maqsadida o'tkaziladi .



- A. faqat qisqa vaqt 30-45 daqiqa davomida sun'iy nafas berish
- B. uzoq muddat 2-4 soat davomida sun'iy nafas berish
- C. nafasni tiklash
- D. balg'amni so'rib olish

35. Ushbu rasmda ko'rsatilgan krikotireoid bog'lam punsiya qilishning nechanchi qadami ko'rsatilgan?



- A. 3-qadami
- B. 2-qadami
- C. 1-qadami
- D. 4-qadami

36. Ushbu rasmda ko'rsatilgan krikotireoid bog'lam punsiya qilishning 5-qadami angiotekstura adapter o'rnatishi ko'rsatilgan, adapter nima maqsadda o'rnatiladi?



- A. Barcha SNO uskunalariga ulash uchun.
- B. Kateterni tozalab turish uchun.
- C. Havoni namlab turish uchun.
- D. Adapter orqali mukolitiklar yuborish uchun.

37. Ushbu rasmda ko'rsatilgan krikotireoid bog'lam punsiya qilishning 6-qadami sun'iy nafas berish bosqichi ko'rsatilgan. Ambu qopchasi orqali qancha kislorod oqimi berilishi lozim?



- A. 5l/daq. da
- B. 15l/daq. da
- C. 5l/soniyada
- D. 5l/soatda

38. Ushbu rasmda qaysi jarayon aks ettirilgan.



- A. Angiokateterga adapter o'rnatish jarayoni.
- B. Traxeyaga dori yuborish jarayoni.
- C. Kateterni o'tkazuvchanligini tekshirish jarayoni.
- D. Kateterni fiksasiyalash jarayoni.

39. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan bolaga qanday amaliyot o'tkazilgan?



- A. Konikostomiya
- B. Konikotomiya
- C. Traxestomiya
- D. Krikotiroitomiya

40. Quyidagi rasmda krikotireoidotomiya qilishning bo'yin sohaga ishlov berish qadami ko'rsatilgan. Bu qadamdan so'ng qanday turdag'i anesteziya o'tkaziladi?



- A. Anesteziya o'tkazilmaydi.
- B. Infiltrasiyali anesteziya.
- C. Terminal anesteziya.
- D. Vishnevskiy bo'yicha qavatma-qavat anesteziya.

GVEDEL NAYCHASINI OG'IZ ORQALI KIRITISH USULI

41. Quyidagi rasmda qanday asbob ko'rsatilgan?




- A. Burun orqali o'rnatiladigan havo naychasi.
- B. Og'iz orqali o'rnatiladigan havo naychasi.
- C. Intubatsion naycha.
- D. Drenaj naychasi.

42. Quyidagi rasmda qanday asbob ko'rsatilgan?



- A. Og'iz orqali o'rnatiladigan Gvedel havo naychasi.
- B. Burun orqali o'rnatiladigan havo naychasi.
- C. «S» simon Safar havo naychasi.
- D. So'rgich naychasi.

43. Quyidagi rasmda Gvedel naychasin kiritish usulining nechinchi qadami ko'rsatilgan?



- A. 1-Qadami.
- B. 2-Qadami.
- C. 3-Qadami.
- D. 4-Qadami.

44. Quyidagi rasmda Gvedel naychasini kiritishning 2-qadami ko'rsatilgan. Bu bosqichda qanday amaliyat bajariladi?



- A. Naychani uch qismini tanglay tomonga qaratilgan holda og'izga kiritiladi.
- B. Bemorga holat berilgandan so'ng havo o'tkazuvchi naychani o'lchab olinadi.
- C. Naychani uchi til ildiziga yetgandan so'ng uni 180 gradusga aylantiriladi.
- D. Naychadan havo o'tayotganligiga ishonech hosil qilinadi.

45. Quyidagi rasmda Gvedel naychasini o'lchash ko'rsatilgan. O'lchash qanday amalga oshiriladi?



- A. Naycha og'iz burchagidan pastki jag'ni paski burchak qismigacha o'lchanadi.
- B. Burun kirrasidan pastki jag'ni pastki burchak qismigacha o'lchanadi.
- C. Naycha og'iz burchagidan pastki jag'ni iyak qismigacha o'lchanadi.
- D. Qoziq tishlardan pastki jag'ni paski burchak qismigacha o'lchanadi.

46. Quyidagi rasmda Gvedel naychasini kiritish usulining qanday amaliyoti o'tkazilmokda?



- A. Naychani uchi til ildiziga yetgandan so'ng uni 180 gradusga aylantiriladi.
- B. Naychani uchi til ildiziga yetgandan so'ng uni 360 gradusga aylantiriladi.

C. Naychani uchi yumshoq tanglayga yetgandan so'ng uni 180 gradusga aylantiriladi.

D. Naychani uchi ovoz bog'lamiga yetgandan so'ng uni 180 gradusga aylantiriladi.

47. Quyidagi rasmda Gvedel naychasini kiritish usulining nechinchi qadami ko'rsatilgan va qanday amaliyat bajariladi?



- A. 4-qadam. Naychani to'g'ri turganligini tekshirish.
- B. 5-qadam. Naychani to'g'ri turgan holati.
- C. 3-qadam. Naycha uchini nafas yo'liga to'g'rinish.
- D. 1-qadam. Naycha o'lchami mosligini o'lhash.

48. Quyidagi rasmda qanday jarayon aks ettirilgan?



- A. Naychani to'g'ri turgan holati.
- B. Sun'iy nafasga tayyorlash.
- C. Nafas o'tkazuvchanligini tiklash.
- D. Naychani to'g'ri turganligini tekshirish.

49. Quyidagi rasmda burun orqali havo o'tkazuvchi naychani bemorga o'lhash ko'rsatilgan. Qanday o'lchanadi?



- A. Burun qanotidan to qulinqing yumshoq qismigacha.

- B. Burun teshigidan to qulqqacha.
- C. Og'iz burchagidan qulqqacha.
- D. Rasmda "S" simon naycha ko'rsatilgan.


50. Quyidagi rasmda burunga naychani kiritish ko'rsatilgan. Agar naychani kiritish vaqtı qiyinchilik tug'ilsa nima kilinishi kerak?



- A. Naychani 60-90° soat strelkasiga qarshi yo'nalishda burab kiritish kerak.
- B. Naychani qaytadan chiqarib so'ngra 180° ga burab kiritish kerak.
- C. Naychani anestetik gel bilan surkab qaytadan kiritish kerak.
- D. Naycha ichiga yo'naltirgich o'rnatib so'ngra kiritish kerak.

### **TRAXEYANI INTUBATSIYA QILISH TEHNİKASI**

51. Quyidagi rasmda qanday amaliyot bajarilmokda?



- A. Traxeya intubatsiyasidan oldingi giperventillyasiya o'tkazish.
- B. Sellik usuli o'tkazilmokda.
- C. Niqobli narkoz o'tkazilmokda.
- D. Ekstubasiyadan keyingi jarayon tasvirlangan.


52. Quyidagi rasmning traxeya intubatsiyasiga qanday aloqasi bor?



- A. Havo o'tkazuvchi naycha o'matilib so'nga giperventillyasiya o'tkaziladi.
- B. Havo o'tkazuvchi Gvedel naychasi naf bermaganda traxeya intubatsiya qillinadi.


- C. Bu rasmni traxeya intubatsiyasiga aloqasi yo'q.
- D. Traxeya intubatsiyasidan so'ng giperventillyasiya jarayoni.

53. Quyidagi rasmda qaychi rasmi ham ko'rsatilgan, buni intubatsiyaga nima aloqasi bor?




- A. Bosh barmoq bilan ko'rsatgich barmoqlarni qaychisimon harakat bilan og'zini ochish ko'rsatilgan.
- B. Intubasion trubkani og'izga fiksasiya qilingandan so'ng ortiqcha yopishqoq plasterni kesish lozimligi ko'rsatilgan.
- C. Rasmda qaychi emas balki jag'ni ochilish mexanizmi ko'rsatilgan.
- D. Og'iz bosh barmoq bilan ko'rsatgich barmoqlar yordamida ochilgach tibbiy qisqich yordamida og'iz bo'shligini tozalash ko'rsatilgan.

54. Quyidagi rasmda laringoskop tuyningidan nimani ko'rish tasvirlangan?



- A. Tilcha.
- B. Xiqqildoq usti tog'ayi.
- C. Laringoskop uchi.
- D. Ovoz bog'lami.


55. Quyidagi rasmda laringoskop tuyningidan nimani ko'rish tasvirlangan?



- A. Xiqqildoq usti tog'ayi.

- B. Tilcha.
- C. Laringoskop uchi.
- D. Ovoz bog'lami.

56. Quyidagi rasmda laringoskop tuynigidan nimani ko'rish tasvirlangan?



- A. Ovoz bog'lami.
- B. Xiqqildoq usti tog'ayi.
- C. Tilcha.
- D. Laringoskop uchi.

57. Quyidagi rasmda ovoz bog'lami ko'rsatilgan. Laringoskopiya bosqichida ovoz bog'lami qanday topiladi?



- A. Laringoskop uchi asosini bemor tishlariga suyagan holda laringoskop uchini yuqoriga ko'tarib ovoz bog'lамиni topiladi.
- B. Hiqqaldoq usti tog'ayining topib, laringoskop uchi bilan hiqqaldoq usti tog'ayining ustidan bosiladi.
- C. Laringoskopiya jarayonida bemorga gapirib turish buyuriladi.
- D. Ovoz bog'lамиni topishda maxsus amaliyot shart emas.

58. Quyidagi rasmda traxeya intubatsiyasining qaysi amaliyoti ko'rsatilgan?



- A. Naychani traxeyaga kiritish bosqichi.

- B. Ovoz bog'lamini topish bosqichi.
- C. Ekstubatsiya bosqichi.
- D. Trubkani to'g'ri turganligini aniqlash bosqichi.

59. Quyidagi rasmda traxeya intubatsiyasining qaysi amaliyoti ko'rsatilgan ?



- A. Naychani fiksatsiyalash bosqichi.
- B. Naychani traxeyaga kiritish bosqichi.
- C. Naychani chiqarish bosqichi.
- D. Balg'amni surib olish bosqichi.

60. Quyidagi rasmda traxeya intubatsiyasining qaysi amaliyoti ko'rsatilgan ?



- A. Naychani fiksatsiyalash bosqichi.
- B. Naychani traxeyaga kiritish bosqichi.
- C. Naychani chiqarish bosqichi.
- D. Balg'amni surib olish bosqichi.

### LARINGEAL NIQOB O'R NATISH TEKNIKASI

61. Quyidagi rasmlarda turli xil intubatsiya oldi holatlari tasvirlangan. Har birini nomini belgilang.



- A. Uchchala rasm ham Djekson holatiga ta'lulqi.

### Rasmlı test mashqlari

- B. 1-si Djekson holati, 2-si Trendlenburg holati, 3- si Fovler holati.
- C. 2-si Trendlenburg holati, 2-si Djekson holati, 3- si Fovler holati.
- D. 3-si Fovler holati, 2-si Trendlenburg holati, 3- Djekson holati.

62. Quyidagi rasmda qanday jarayon aks ettirilgan?



- A. Laringeal niqobni germetikligini tekshirish.
- B. Laringeal niqob manjetkasiga havo yuborish.
- C. Laringeal niqob manjetkasiga suyuqlik yuborish.
- D. Laringeal niqobni ishga tayyorlash.

63. Nima uchun laringeal niqobga anestetik gel surkash lozim?



- A. Laringeal niqob qayt qilish refleksini yo'qotish uchun surkaladi.
- B. Shillik qavatni anesteziya qilish uchun.
- C. Anestetik gel surkalmaydi.
- D. Usimlik yog'i surkaladi.

64. Ambu qopchasi bilan sun'iy nafas berilmokda. Laringeal niqob o'rnatishga nima aloqasi bor?



- A. LN qo'yishdan olin kislород bilan SNO berib to'yintirish uchun.
- B. LN o'rnatish natija bermaganda SNO o'tkaziladi.
- C. LN olib tashlangandan so'ng SNO ga o'tkaziladi.
- D. LN o'rnatilib so'ngra SNO o'tkaziladi.

65. Ushbu rasm laringeal niqob o'rnatish amaliyotining nechinchi bosqichiga ta'lukli?



- A. 5- qadamiga.
- B. 6- qadamiga.
- C. qadamiga.
- D. 7- qadamiga.

66. Quyidagi rasmda laringeal niqob uchi tanglayga qaratilmasdan kiritilmokda, muolaja to'g'ri olib borilmoqdami?



- A. Xa, to'g'ri.
- B. Yo'q, noto'g'ri.
- C. Xalqumdan utgach  $180^{\circ}$  ga buriladi.

67. Laringeal niqobni o'rnatish texnikasining 9-qadamida o'pka ventilyasiyasida necha marotaba nafas beriladi va nafas hajmi qancha bo'ladi?



- A. 8-10 marotaba nafas va xajmni 500ml. ga yetkaziladi.
- B. Ambu qopchasida nafas berilmaydi, naychani tekshirish usun qo'llaniladi.
- C. LN nafas berish uchun emas, balki nafas yo'llarini tiklash uchun o'rnatiladi.
- D. Ambu qopchasi bilan SNO o'tkazish sinxronizasiya maqsadida olib boriladi.

68. Quyidagi rasmda qanday jarayon aks ettirilgan?



- A. LN ni germetiklash bosqichi.
- B. LN ni fiksasiyalash bosqichi.
- C. Balg'amni surib olish jarayoni.
- D. Traxeyaga mukolitiklar yuborish jarayoni.

69. Quyidagi rasmda qanday holat tasvirlangan?



- A. LN ni og'izga fiksasiya qilish.
- B. LN ni germetiklash bosqichi.
- C. SNO o'tkazish bosqichi.
- D. Sinxronizasiya qilish bosqichi.

70. 50-70 kg og'irligidagi kattalar uchun mos keladigan laringeal niqob razmerini belgilang.

- A. Odatda, №4 o'lchamli LN qo'llaniladi.
- B. Odatda, №1 o'lchamli LN qo'llaniladi.
- C. Odatda, №2 o'lchamli LN qo'llaniladi.
- D. Odatda, №3 o'lchamli LN qo'llaniladi.

#### **O'PKA SUN'YI VENTILYASIYASI (OG'IZDAN OG'IZGA USULI)**

71. Ushbu rasmda bemorning yelkasi ostiga nima maqsadda yostiq qo'yilgan?



- A. Bosh orqaga ketib nafas yo'li ochilishi uchun.
- B. Yurak massaji vaqtı qattiq taglik bo'lishi uchun.
- C. Nafas yo'lidagi suyuqlikning nafas yo'liga tushirmaslik uchun.
- D. Kaft bilan bo'yinni ushslash qulay bo'lish uchun.

72. Rasmda Peter Safar usulikasining qaysi bosqichi tasvirlangan?



- A. Bemorga yondashuv.
- B. Sun'iy nafas berishni boshlash.
- C. Bemor umumiy ahvolini baholash.
- D. Bemorni xushiga keltirishga xarakat.

73. Ushbu rasmda qanday jarayon tasvirlangan?



- A. Nafas yo'llari sanasiyasi.
- B. Tilni oldinga tortish.
- C. Protezlarni olib qo'yish.
- D. Havo o'tkazuvchi naycha qo'yish.

74. Rasmda P.Safar uchligining qaysi bosqichi tasvirlangan?



- A. 1-bosqichi.
- B. 2-bosqichi.
- C. 3-bosqichi.

75. Rasmda tavsirlangan “og’izdan og’izga” sun’iy nafas berish hozirda birlamchi shifokorlik yordamida ko’p qo’llanmaydi, nima uchun?



- A. Gigiyenik qoidalaraiga ko’p ham mos emas.
- B. Texnik jihatdan noto’g’ri bo’lgani uchun.
- C. Shifokor va bemor turli jins vakillari bo’lgani uchun.
- D. Effektivligi past bo’lganligi uchun.

76. Rasmda tavsirlangan jarayon sun’iy nafas berish usulining qaysi bosqichda qo’llaniladi?



- A. 5- qadamda.
- B. 6- qadamda.
- C. qadamda.
- D. qadamda.

77. Rasmda tavsirlangan “og’izdan og’izga” nafas berish usulida minutiga qancha puflash kerak?



- A. 12-16 marta.
- B. 4 : 1 nisbatda.
- C. 30 : 2 nisbatda.
- D. 4 soniyada 1 marta.

78. Rasmda tavsirlangan “og’izdan og’izga” sun’iy nafas berish usulida yordam beruvchi kishining qo’llari qayerda bo’lishi lozim?



- A. O'ng qo'l bo'yin ostida, chap qo'l kafti peshonada burunni qisgan holda.  
B. O'ng qo'l pastki jag'ni ushlagan holda, chap qo'l kafti peshonada.  
C. Chap qo'l barmoqlar bilan burunni qisib, o'ng qo'l bilan iyakni ushlagan holda.  
D. Qo'lllar qanday holatda bo'lishdan tashqari qulay bo'lsa bo'ldi.

79. Sun'iy nafas berish usuliga nisbiy ko'rsatmani belgilang.

- A. Gipoksemiya, 50% kislород maska orqali berilganda ham kislорodning parsial bosimi ( $paO_2$ ) 9,3 kPa dan past bo'lganda (70 mm.sim.ust).  
B. Nafas to'xtashi, apnoe.  
C. O'pkaning minutlik hajmining kamayishi bilan o'pka ventilyasiyasing yaqqol yetishmovchiligi.  
D. Nafas yetishmovchiliginig og'ir darajasi.

80. Rasmda tavslrlangan "og'izdan og'izga" usulida sun'iy nafas berish vaqtida ko'krak qafasi ekskursiyasi kuzatilmasa qanday chora kurish lozim?



- A. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini qayta tekshirib ko'rish kerak.  
B. Ko'proq hajmda nafas berish lozim.  
C. Og'izdan burunga nafas berishga o'tish lozim.  
D. Konikatomiya muolajasini bajarish kerak.

### OG'IZDAN BURUNGA SUN'IY NAFAS BERISH

81. Rasmda tavslrlangan "og'izdan burunga" sun'iy nafas berish usulida yordam beruvchi kishining qo'llari qayerda bo'lishi lozim?



- A. O'ng qo'l iyakni ko'targan holda, chap qo'l kafti peshonadan bosgan holda.  
B. O'ng qo'l pastki jag'ni ushlagan holda, chap qo'l burunni qisgan holda.  
C. Chap qo'l barmoqlar bilan burunni qisib, o'ng qo'l bilan iyakni ushlagan holda.  
D. Qo'llar qanday holatda bo'lishdan tashqari qulay bo'lsa bo'ldi.

82. Rasmdagi "og'izdan burunga" sun'iy nafas berish usulida nafas yo'llari qanday tiklanadi?



- A. Safar uchligi bilan.  
B. Geymlix usuli bilan.  
C. Gvedel naychasi orqali.  
D. Sellik usulida.

83. Og'izdan burunga usulida sun'iy nafas berishda shifokor bemorning qaysi tomonida turishi kerak?



- A. O'ng tomondan  
B. Bosh tomondan  
C. Orqa tomondan  
D. Chap tomondan

84. Ushbu "og'izdan burunga" SNO usulida bemor og'zi qanday holatda



bo'lishi lozim? \_\_\_\_\_

- A. Shifokor qo'li bilan bemor og'zini yopib turadi.

- B. Ochiq.
- C. Yarim ochiq.
- D. Shifokor og'zini bemor og'ziga qo'yadi.

85. Og'izdan burunga SNO usulida bemor boshi qanday holatda bo'lishi



kerak?

- A. Maksimal orqaga egilgan holda.
- B. Maksimal og'zi yopilgan holda.
- C. Bu usulda boshni egish shart emas.
- D. Har qanday holatda.

86. Quyidagi rasmda sun'iy nafas berilgandan keyin qanday qanday amaliyot bajarilmokda?



- A. Ventilyasiya natijasini kuzatiladi.
- B. Og'zini sanasiya qilamiz.
- C. Yuragini eshitib ko'rish kerak.
- D. Puls tekshiriladi.

87. Sun'iy nafas berishni natija berayotganini qanday aniqlaymiz?



- A. Ko'krak qafasi kengayishini vizual tekshirib.
- B. Burniga oyna tutib aniqlaymiz.
- C. Burniga ip yoki soch tolasi tutamiz.
- D. Yo'talish refleksini tekshirib ko'ramiz.

88. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan jarayon qaysi bosqichga ta'lukli?



- A. 1-Qadamiga.
- B. 2-Qadamiga.
- C. 3-Qadamiga.
- D. 4-Qadamiga.

89. Og'izdan-burunga sun'iy nafas berish usuli boshqa SNO usullariga qaraganda qachon samarali bo'lib hisoblanadi?

- A. Jabrlanuvchi cho'kkan holatlarda birinchi yordam berishda.
- B. Jabrlanuvchida talvasa kuzatilayotgan bo'lsa.
- C. Bemor infekszion kasallik bilan og'rigan bo'lsa.
- D. Elektr tokidan shikastlanganda.

90. Sun'iy nafas berishni asoratlariga nima kiradi?

- A. Aspirasiya
- B. Atteliktaz
- C. Gipoksiya
- D. Gipoksemiya

#### ASBOB-USKUNALAR YORDAMIDA SUN'iy NAFAS BERISH

91. Quyidagilardan qaysi bir uskunasiz SNO o'tkazish mumkin emas?



- A. Ambu qopchasisiz.
- B. Kislorodsiz.
- C. Surg'ichsiz.
- D. Yuz niqobisiz.

92. Quyidagi rasmda havo o'tkazuvchi naychani bemorga o'rnatish ko'rsatilgan. Ambu qopchasi bilan SNO o'tkazishda naycha qo'yilmasa qanday asorat kelib chiqishi mumkin?



- A. Tilning xalqumga tigilib nafas o'tmasligi mumkin.
- B. Havoning oshqozonga o'tishi mumkin.
- C. Aspirasiya kuzatilishi mumkin.
- D. Regurgitasiya kuzatilishi mumkin.

93. Quyidagi rasmda P.Safar usulining qaysi bosqichidagi jarayon tasvirlangan?



- A. Niqobni qo'lga moslab olish.
- B. Niqobni yuzga germetik kiydirish.
- C. Niqobni mosligini tekshirish.
- D. Pastki jag'ni yuqoriga ko'tarish.

94. Quyidagi rasmda qanday jarayon ko'rsatilgan?



- A. Niqobni mosligini tekshirish.
- B. Nafas berib bo'lgandan so'ng o'pkadagi havoni chiqarib yuborish.
- C. Niqobni qo'lga moslab olish.
- D. Niqobni o'chab ko'rish.

95. Rasmdag'i jarayon P.Safar usulikasining qaysi bosqichida ishlataladi?



- A. Sun'iy nafas berish bosqichi. Ambu qopchasi bilan SNB.
- B. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash bosqichi. Ambu qopchasi bilan SNB.
- C. Ambu qopchasi bilan SNB. Birinchi bosqich.
- D. Ambu qopchasi bilan SNB bosqichda.

96. Sun'iy nafas berish vaqtida nafas tiklangach qanday yordam ko'rsatamiz?



- A. Nafasiga ritmik ravishda nafas beramiz.
- B. Yuragini massaj qilamiz.
- C. Medikamentoz yordam beramiz.
- D. Yurak faoliyatini tiklovchi dorilarni qilamiz.

97. Sun'iy nafas berish vaqtida asosan bolalarda ko'p uchraydigan asorat?



- A. O'pka yorilishi.
- B. Qayt qilish.
- C. Oshqozonga havo o'tib regurgitasiya bo'lishi.
- D. Aspirasiya.

98. Quyidagi rasmda Ambu qopchasi bilan nafas berilmokda. Chiqayotgan havoning qaytib chiqishi uchun niqobni yuzdan ko'tarish kerakmi?



- A. Yo'q shart emas, niqobda havo chiqish uchun klapan mavjud.
- B. Xa, ko'tarish kerak chunki chiqadigan havo o'pkada qolib ketmasligi uchun.

99. Quyidagi rasmda Ambu qopchasi bilan nafas berilmokda. Bu jarayon qaysi bosqichda bajariladi?



- A. 6- Qadamda.
- B. 5- Qadamda.
- C. 4- Qadamda.
- D. 3- Qadamda.

100. Quyidagi rasmga izox bering.



A. Ikki kishi nafas berishda ishtirok etayotgan bo'lsa, bir kishi ikkala qo'l bilan niqobni ushlab yuzga mahkamlab turadi, ikkinchi kishi qopchani siqib nafas berish mumkin.

B. Odatda Ambu qopchasi ikki kishi uchun muljallangan. Bir kishi nafas beradi, bir kishi qopchani ushlab turadi.

**«S» -SIMON NAYCHA ORQALI SUN'iy NAFAS BERISH**

101. Rasmda 1- raqamli uskuna nima va qanday maqsadda ishlatalidi?



- A. S-simon naycha; sun'iy nafas berish uchun.
- B. S-simon naycha; nafas yo'lini tiklash uchun.
- C. Gvedel havo naychasi; sun'iy nafas berish uchun.
- D. Gvedel havo naychasi; nafas yo'lini tiklash uchun.

102. Rasmda qanday jarayon tasvirlangan?



- A. Safar usuli 2-bosqichi; Safar uchligi 3-bosqichi.
- B. «S» simon naycha orqali SNB ning 2- bosqichi.
- C. Safar usuli 1-bosqichi; Safar uchligining 1-bosqichi.
- D. «S» simon naycha orqali SNB ning 1- bosqichi.

103. S-simon naychaning razmeri qanday o'lchanadi?



- A. S-simon naychaning razmeri bo'lmaydi.
- B. Labning burchagidan to pastki jag'ning burchagigacha.
- C. Burun qanotidan jag'ning burchagigacha.
- D. Yoshi+4/10

104. S-simon naycha qancha uzunlikda og'iz bo'shlig'iga kiritiladi?



- A. Naycha og'iz xalqumga yetgach muftasini labga surib boriladi.
- B. 7-8 sm uzunlikda kiritilib 180° ga buraladi.
- C. Bemorni bo'yiga moslab o'lchanadi.
- D. 10-12 sm uzunlikda kiritiladi.

105. Quyidagi rasmda S -simon naycha orqali og'iz bo'shlig'iga kiritilgan tasvirlangan. Keyingi jarayonda nima ish bajariladi?



- A. Sun'iy nafas beriladi.
- B. Naychaning o'tuvchanligi tekshiriladi.
- C. Naycha og'izga fiksasiya qilinadi.
- D. Ambu qopchasi bilan nafas beriladi.

106. S -simon naycha orqali qancha vaqt davomida nafas beriladi?



- A. Har 5 soniyada 1 marta.
- B. Har 30 soniyada 1 marta.

- C. O'z nafasiga sinxronizasiya qilib boriladi.  
D. 30: 2 nisbatda yurak massaji va nafas beriladi.

107. Quyidagi rasmida S -simon naychani og'iz bo'shlig'iغا kiritishning bir bosqichi tasvirlangan. So'ngra qanday ish bajariladi?



- A. Naycha tanglay bo'ylab sirpantirib kiritilib boriladi.  
B. Naycha 180° ga buraladi.  
C. Safar uchligi bajarilib naychani kiritiladi.  
D. Naycha mustfasи labgacha suriladi.

108. Quyidagi rasmida P.Safar uchligini bajarish ko'rsatilgan. S -simon naychani o'rnatishga nima aloqasi bor?



- A. Safar uchligi bajarilib so'nга og'iz bo'shlig'i tozalanadi.  
B. Safar uchligi bajarilib so'nга naycha kiritiladi.  
C. Safar uchligi bajarilib so'nга SNO o'tkaziladi.  
D. Safar uchligi bajarilib so'nга og'iz bo'shlig'i tekshiriladi.

109. S -simon naychani o'rnatishga ko'rsatmani ko'rsating.

- A. Shifoxonagacha bo'lган bosqichda nafas to'xtashi kuzatilganda.  
B. Shifoxona bosqichda nafas to'xtashi kuzatilganda.  
C. Shifoxonagacha bo'lган bosqichda nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklashda.  
D. Nafas to'xtashi kuzatilganda.

110. Agarda jabrlanuvchida kon aylanish to'xtagan bo'lsa S -simon naychani o'rnatishga xojat bormi?

- A. Naycha o'rnatish nafas yo'lini tiklashni alternativ usulidan biridir.  
B. Shart emas, jabrlanuvchiga endi yordam berib bo'lmaydi.  
C. Har qanday sharoitda xam naycha o'rnatilib reanimasiya tadbirlari o'tkaziladi.

**YURAKNING TASHQI MASSAJI**

111. Quyidagi rasmda qanday belgi aks ettirilgan?




- A. «Mushuk ko'zi» simptomasi.
- B. Anizokoriya.
- C. Retinopatiya
- D. qorachiqning nuqtasimon bo'lishi.

112. Quyidagi rasmda jabrlanuvchining ushbu holatining ahamiyati nimada?



- A. Bosh miyaga qoninig ko'proq kelishi uchun.
- B. Yurak massaji vaqtini oyoqlar xalaqit qilmasligi uchun.
- C. Kichik qon aylanish doirasida qonning kamaytirish maqsadida.
- D. Katta qon aylanish doirasida qoning desentralizasiyasi uchun.

113. Quyidagi rasmda kaftning to'sh suyagining ma'lum qismiga qo'yishligi ko'rsatilgan. Nima maqsadda aynan shu qismga qo'yildi?




- A. To'shning bu qismi yurak chap qorin proyeksiyasiga to'g'ri keladi.
- B. To'shning bu qismi egiluvchan va xavsiz.
- C. To'shning bu qismiga kaftni qo'yish qulaylik tug'diradi.
- D. To'shning bu qismi tog'aydan iboratdir.

114. Yurak tashqi massajini bajarishda 2-qadam nimadan iborat?



- A. Kaftni to'sh suyagiga qo'yish.
- B. Bemorning to'g'ri holati.
- C. Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash.
- D. Massaj vaqtি yelka-qo'l holati.

115. Quyidagi rasmida bosh barmoq tanaga qanday yo'nalishda bo'lgani ma'qil?



- A. Bosh barmoq jabrlanuvchining iyagiga yoki qorin tomoniga yo'naltirilgan holda bo'lishi lozim.
- B. Bosh barmoq jabrlanuvchining kat'iy iyagi tomoniga yo'naltirilgan holda bo'lishi lozim.
- C. Bosh barmoq jabrlanuvchining qorin tomoniga yo'naltirilgan holda bo'lishi lozim.
- D. Bosh barmoqning yo'nalishi unchalik ahamiyatga ega emas.

116. Yurak tashqi massajini bajarishda kaft qaysi sohaga qo'yiladi?



- A. Xanjarsimon o'simtadan 2-4 sm yuqoriga.
- B. To'shning yuqori qismiga.
- C. To'shning o'rta uchligiga.
- D. Xanjarsimon o'simta sohasiga.

117. Yurak tashqi massajini bajarish texnikasida tirsak bo'g'imi nima uchun to'g'ri burchak ostida bo'lishi lozim?



- A. Bosish kuchi bir nuqtaga yelka orqali yo'nalgan bo'lishi lozimligi uchun.
- B. Charchab qolmaslik uchun.
- C. Massaj sonini sanash oson bo'lishi uchun.
- D. Kaft qayerda turganligini aniq bilib borish uchun.

118. Quyidagi rasmda qanday jarayon aks ettirilgan?



- A. Venoz oqimining yurakka qaytishi mexanizmi.
- B. Venoz oqimining yurakdan otilish mexanizmi.
- C. Aortadan qonni yurakka qaytishi mexanizmi.
- D. Aortadan qonni otilish mexanizmi.

119. Yurak tashqi massajini bajarish texnikasida ko'krak qafasining qisilish chuqurligi qanchaga teng?



- A. Eng kamida 5sm.
- B. Eng kamida 10sm.
- C. Eng kamida 2sm.
- D. Eng kamida 15sm.

120. Yurak tashqi massajini bajarishda 30 : 2 nisbatda bo'lishi lozim. 1 daqiqada qancha marta ko'krakni bosish kerak?



- A. 1 daqiqada 100 martagacha massaj, sun'iy nafas berish 10 martagacha bo'lishi lozim.
- B. 1 daqiqada 60 martagacha massaj, sun'iy nafas berish 20 martagacha bo'lishi lozim.
- C. 1 daqiqada 120 martagacha massaj, sun'iy nafas berish 2 martagacha bo'lishi lozim.
- D. 1 daqiqada 30 martagacha massaj, sun'iy nafas berish 2 martagacha bo'lishi lozim.

### O'PKA YURAK REANIMASIYASIDA ISHLATILADIGAN DORI PREPARATLAR

121. O'pka yurak reanimasiyasida ishlatiladigan dori preparatlar guruhlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A. Hamma javob to'g'ri.
- B. Vazopressorlar: adrenalin.
- C. Antiaritmetiklar: amiadaron, lidokain.
- D. Maxsus preparatlar: Ca, Mg, NCO<sub>3</sub><sup>-</sup>.

122. Adrenalinning klinik-farmakologik guruhi to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

- A. alfa, beta-adrenomimetik.
- B. Trankvilizator.
- C. Sedativ.
- D. kalsiy kanali blokatori.

123. Sintetik adrenalin qaysi nom bilan dorilar guruhiba kiradi?

- A. Epinefrin.
- B. Lidokain.
- C. Noradrenalin.
- D. Bikarbonat.

124. Adrenalinning ta'sir mexanizmini belgilang.
- A. Periferik tomirlarni toraytiradi, koronar tomirlarni kengaytiradi.
  - B. Periferik tomirlarni kengaytiradi, koronar tomirlarni toraytiradi.
  - C. Barcha tomirlarni toraytiradi.
  - D. Barcha tomirlarni kengaytiradi.
125. Atropin qaysi guruxga ta'lukli?
- A. m-xolinolitik, nespesifik xolinoblokator.
  - B.  $\alpha$ - i  $\beta$ -adrenoblokator.
  - C. m-xolinostimulyator, nespesifik adrenoblokator.
  - D. m-xolinomimetik, spesifik xolinoblokator.
126. Adrenalinning chiqarilish shaklini ko'rsating?
- A. 0.1%-1ml 1mg/ml dan ampulada
  - B. 0.2%-1ml 1mg/ml dan ampulada
  - C. 0.1%-3ml 2mg/ml dan ampulada
  - D. 3%-1ml 1mg/ml dan ampulada
127. Atropinni farmakokinetikasini ko'rsating.
- A. Asetilxolinning rag'batlantiruvchi ta'siriga to'sqinlik qiladi.
  - B. Skelet mushaklari tomirlarini kengaytirishi.
  - C. Siklik adenozinmonofosfati (sAMF) ni bloklaydi.
  - D. So'lak, me'da, bronxial sekresiyasini kuchaytiradi.
128. Atropinning chiqarilish shakli?
- A. 0,1% - 1ml
  - B. 0,1% - 5ml
  - C. 0,1% - 2ml
  - D. 1% - 5ml
129. Lidokainning kon aylanishi to'xtashida qo'llanishdan maqsad?
- A. Antiaritmik dori hisoblanadi.
  - B. Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vosita hisoblanadi.
  - C. Nervlarning miyelin qavatini bloklaydi.
  - D. Fibrillyasini bloklaydi.
130. Lidokainni yuborish dozasini ko'rsating.
- A. 4 ml 2% li eritma.
  - B. 1 ml 1% li eritma.
  - C. 1 ml 2% li eritma.
  - D. 10 ml 2% li eritma.


**O'MROV OSTI VENASINI KATETERLASH**

131. Quyidagi rasmda umrov osti venasini kateterlashda bemorning holati ko'rsatilgan. Bu holat qanday nomlanadi?



- A. Trendelenburg holati.
- B. Gorizontal holati.
- C. Fovler holati.
- D. Seldinger holati.

132. Quyidagi rasmda umrov osti venasini punksiya qilish nuktalari ko'rsatilgan. To'g'ri qatorni belgilang.



- A. 1 — Giles; 2 - Aubaniac; 3 - Wilson.
- B. 1 — Aubaniac; 2 - Gile; 3 - Wilson.
- C. 1 — Wilson; 2 - Aubaniac; 3 - Wilson.
- D. 1 — Wilson; 2 - Gile; 3 - Wilson.

133. Quyidagi rasmda qanday amaliyot tasvirlangan?



- A. Punksiya nuqtasini paypaslab topish.
- B. Buyinturuq venanining pulsasiyasini aniqlash.
- C. Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash.
- D. Kateter razmerini aniqlash.

134. Quyidagi rasmda bajarilayotgan amaliyotga izox bering.



- A. Punksiya sohasini mahalliy anesteziya qilish.
- B. Venani punksiya qilish.
- C. Kateter kiritishning boshlang'ich bosqichi.
- D. Teri ostida «limon pustlog'i» xosil qilish.

135. Quyidagi rasmda venani punksiya qilish amaliyoti tasvirlangan. Ignani venaga tushganligini qanday belgiga qarab aniqlash mumkin?




- A. Shprisda qon paydo bo'lishi.
- B. Shprisda alvon qon paydo bo'lishi.
- C. Ingani bo'shilqka tushgandek belgi paydo bo'lishi.
- D. «Qarshilik» sinamasining musbat bo'lishi.

136. Quyidagi rasmda qanday amaliyot bajarilmokda?



- A. Kateter kiritishning boshlang'ich bosqichi.
- B. Venani punksiya qilish.
- C. Punksiya sohasini mahalliy anesteziya qilish.
- D. Igna orqali leska-yo'naltirgich kiritish

137. Seldenger usulida o'mrov osti venasini kateterlashda igna orqali leska-yo'naltirgichni kiritish nechanchi qadamda bajariladi?



- A. 5-qadamda
- B. 4-qadamda
- C. 6-qadamda
- D. 8-qadamda

138. Quyidagi rasmda yo'naltirgachni kateterdan chiqarib olish ko'rsatilgan. Leska-yo'naltirgich nima maqsadda qo'llaniladi?



- A. Leska-yo'naltirgich orqali kateter venaga kiritiladi.
- B. Leska-yo'naltirgich kateterni bukulmasligini ta'minlaydi.
- C. Leska-yo'naltirgich orqali ineksiya joyi kengaytiriladi.
- D. Leska-yo'naltirgich kateterni tozalash uchun ishlataladi.

139. Quyidagi rasmda punksiya sohasini anesteziya qilish jarayoni ko'rsatilgan. Anesteziya turini ko'rsating.



- A. Mahalliy infiltrasiyali.
- B. Umumi anesteziya.
- C. O'tkazuvchi anesteziya.
- D. Terminal anesteziya.


140. Quyidagi amaliyotda leska-yo'naltirgichni kiritish vaqtida qiyinchilik bo'lса nima qilish kerak?



- A. Ignani o'z o'qi atrofida biroz aylantirib yo'nalishni o'zgartirish.
- B. Leskani majburan kiritish mumkin.
- C. Amaliyotni to'xtatish lozim.
- D. Dilatator bilan kengaytirib qaytadan kiritish lozim.

### DORI VOSITALARINI SUYAK ICHIGA KIRITISH USULI

141. Quyidagi rasmda suyakning to'qima kesmasi ko'rsatilgan. Dori preparatlari suyakning qaysi qatlamiga yuboriladi?




- A. Trabekulaga.
- B. Kompakt moddaga.
- C. Osteonga.
- D. Periostomaga.
- E. Gavers kanaliga.
- F. Folkman- kanaliga.

142. Quyidagi uskuna nomini belgilang.




- A. Bone Injection Gun (B.I.G.) troakori.
- B. EZ- IO parmalagichi (drel).
- C. Suyak troakori.
- D. Suyak dilatatori.

